B.NORMURODOV, G.NORMURODOVA

SOTSIOLOGIYA TARIXI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

B. NORMURODOV, G. NORMURODOVA

SOTSIOLOGIYA TARIXI

XIX – XX ASR

**Bakalavrlarning 5310300 – sotsiologiya
ta’lim yo‘nalishi uchun**

O‘QUV QO‘LLANMA

**«TAFAKKUR»
TOSHKENT– 2010**

ББК 60.5я73
УДК 316(09)(575.1)(075)
М 833

TAQRIZCHILAR: **prof. S.K. Karimov**
prof. F.H. Nabiyev

Ushbu o‘quv qo‘llanma talabalar uchun tayyorlangan bo‘lib, sotsiologiya ta’lim yo‘nalishi bakalavrlariga mo‘ljallangan. Sotsiologiyadagi asosiy oqimlar, maktablar nazariyalarini va ular qo‘llagan uslublarni ilmiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Qo‘llanmada XIX – XX asr G‘arbiy Evropa sotsiologlarning qarashlari o‘z aksini topgan. Ushbu qo‘llanma Sotsiologiya tarixi bo‘yicha Davlat ta’lim andozalariga muvofiqdir.

60.5
N-79
Normurodov, Bekmurod.
Sotsiologia tarixi. XIX-XX asr. [Text]: o‘quv qo‘llanma / B. Normurodov, G. Normurodova; rets. S. K. Karimov, F. H. Nabiev; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi. - Toshkent: Tafakkur, 2010. -112 b.

№699-4024

ISBN: 978-9943-372-98-6

© B.NORMURODOV, G.NORMURODOVA
© «TAFAKKUR» nashriyoti 2010 y.

SO‘ZBOSHI

Barcha fanlarning shakllari, tarmoqlari, yo‘nalishlari o‘zining kelib chiqish va rivojlanish tarixiga ega. Sotsiologiya va uning tarixi ham bundan mustasno emas. Ulug‘ faylasuf Gegel ta’kidlaganidek, har qanday nazariyani o‘rganishdan oldin uning tarixini bilmoq kerak.

Mamlakatimizda sotsiologiyaga oid fanlarning rivojlanishi, ayniqsa, sotsiologiya bo‘yicha kadrlar tayyorlashga bo‘lgan e’tiborining tobora kuchayayotganligi mutaxassis olimlarga katta mas’uliyat yuklaydi. Ular bu fanni o‘rganishni yanada chuqurlashtirish va kengaytirishda faollik ko‘rsatmoqlari zarur.

Qo‘lingizdagi ushbu qo‘llanma sotsiologiya tarixi bo‘yicha o‘zbek tilida tayyorlangan ilk to‘plamlardan biridir. Chunki sotsiologiya tarixi asosida chiqarilgan kitoblarning aksariyati xorijiy tillarda yozilgan bo‘lib, hamon yaxlit tizimga keltirilmagan hamda bu soha yetarli darajada yoritilmagan. Boshqa qo‘llanmalardan farqli o‘laroq, bunda sotsiologiyaning asoschilari, uning klassik vakillarining mazkur sohaning ilmiy rivojlanishiga, shuningdek, uni umumbashariy fakt sifatida jahon jamoatchiligi nazari darajasiga ko‘tarilishida qo‘shgan ulkan hissalari atroflicha yoritilgan. Ayniqsa, sotsiolog mutafakkirlar hayoti va ijodi, ular ilgari surgan g‘oyalari, umuman, ularning jamiyat haqidagi yozgan nazariyalarini muayyan darajada yoritib berishga harakat qilinadi.

Sotsiologiya fani mustaqil akademik fan sifatida XX asrning 30 – 40-yillarida shakllandi. Muallif sotsiologiya ilmi va uning tarixining vujudga kelishi, rivojlanishini yoritishga harakat qilar ekan, jamiyat va uni tashkil etuvchi inson hayoti hamda faoliyatini aks ettiruvchi oddiy, sodda, stixiyali bilimlarning ilk davridan tortib, hozirgi zamon yetuk sotsiologiya fani, sotsiologiya nazariyasigacha bosib o‘tilgan yo‘lning murakkabligi, uning tarixiy ildizlari va ma’naviy manbalari haqidagi bilimlarni atroflicha bayon etgan.

Sotsiologiya tarixining predmeti sotsiologlarning jamiyat haqidagi qarash, bilim, tushuncha, ta’limot, yo‘nalish, oqimlar, maktablar, nazariyalar, konsepsiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishini o‘rganadi. Qisqacha qilib aytganda, sotsiologiya tarixi fanining jamiyat haqidagi ijtimoiy fikrlar majmuasi sifatida qayd etiladi. Bundan tashqari, sotsiologiya tarixini o‘rganishning ahamiyati, sotsiologiya

AXBOROT RESURS MARKAZI

o‘tmishining boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy aloqasi, uning nazariyasi va metodologiyasi qisqa va ravon tilda yoritib berilgan.

XX asr sotsiologiyasining yirik nazariyotchisi, metodisti, va tarixchisi Pitirim Sorokin sotsiologlarning 1966-yil Eviana shaxrida o‘tgan VI Butun jahon Kongressida: «Ko‘p narsani o‘z ichiga oluvchi sotsiologik sintezlar va yirik sotsiologik tizimlarni yaratishda keyingi davrlar XIX asr ikkinchi yarmi XX asr birinchi yigirma yilligiga nisbatan juda qashshoq bo‘ldi. Kont, Spenser, Marks, Dyurgeym, Veber, Zimmel, Fon Vize, Uord, Somner, Tard, Tennis, Pareto va boshqa zotlar bilan o‘sha davrda sotsiologiyani nafaqat fan sifatida yoritdilar, shu bilan birga hozirgi zamon sotsiologiyasining poydevori va boshlanish nuqtasi bo‘lib qoladi» – degan edi.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr G‘arbiy Yevropa hamda Amerika sotsiologiyasining rivojlanishi bo‘limida XIX asr ikkinchi yarmida G‘arbiy Yevropada sotsiologiya fanining rivojlanishida katta hissa qo‘shgan mutafakkirlar – O. Kont, G. Spenser, M. Veber, E. Dyurgeym, V. Pareto, F. Tyonnis va boshqalarning sotsiologik qarashlari, shuningdek, o‘sha davrda shakllangan turli maktablar va yo‘nalishlar haqida ishonchli materiallar bayon etilgan. Mazkur bo‘limda, bundan tashqari, XX asr boshida va ikkinchi yarmida G‘arbiy Yevropa hamda Amerika sotsiologiyasi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Keyingi bo‘limlarda sotsiologiyaning asoschisi O. Kont va klassik vakillari G. Spenser, V. Pareto, E. Dyurgeym, M. Veber, F.Tyonnis, shuningdek, P. Sorokin, T. Parsons va boshqalarning hayoti va ijodi, sotsiologik ta’limotlari va qarashlari, tarixida tutgan o‘rni hamda ushbu sohaning hozirgi davrdagi ahamiyati keng yoritib berilgan.

Maskur qo‘llanma respublikamizda sotsiologiya tarixi bo‘yicha yozilgan dastlabki urinishlardandir. Umid qilamizki, ushbu qo‘llanma barcha sotsiologiya mutaxassislarini va shu fanga qiziquvchilarni ijtimoiy bilimlarini kengaytirishiga ko‘maklashadi.

Majmua sotsiologiya va uning yirik namoyondalari to‘g‘risida ma’lumotlar beribgina qolmasdan, ularni allomalar ta’limotlarini o‘rganishga yordam beradi hamda yosh sotsiologlarni dunyoqarashini kengaytiradi. Qo‘llanmaning tarbiyaviy ahamiyati ham ana shunda.

SOTSIOLOGIYA TARIXINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

Odamzot o'zini tanigandan buyon tabiiy va ijtimoiy jarayon, hodisalarning sirlarini bilishga intilgan, shu jumladan, odamzot o'zining mavjudligi, yashayotgan jamiyati odamlarning o'zaro aloqa va munosabati masalalariga qiziqa boshlagan. Insoniyat orasidan etishib chiqqan mutafakkirlar, donishmandlar jamiyatning odamlar kundalik turmushining xilma-xil tomonlarini bilishga, asrlarning jumboqlariga javob topishga intilganlar. Bu borada faylasuflar alohida mavqega ega bo'lganlar. Qadimgi Xitoy va Hindistondagi ko'pgina manbalarda, jumladan, Motsri yo'nalishida jamiyatni oqilona boshqarish yoshlarga ko'proq foyda keltiradigan kasb-hunar, faoliyat haqida qimmatli fikrlar ilgari surilgan bo'lsa, «Mahobharot»da esa hukmdorlarning qudratli bo'lishi, barcha odamlar uchun baxtga erishuvi uchun zarur bo'lgan qonun-qoidalar, turmush tartibi haqida teran ijtimoiy fikrlar ilgari surildi.

Konfutsiy ta'limoti manbalarida ilgari surilgan ko'pgina g'oyalar, jumladan, sotsial munosabatlarning bosh nazariyasi: keksalarga hurmat, uzoq umr ko'rish, sihat-salomatlik kabi masalalar, marosim, rasm-rusumlar, shuningdek, she'riyat va musiqa sohasida, umuman, inson faoliyatining ijtimoiy shakllari haqida sotsiologik fikrlar ilgari surilgan edi. Shuningdek, «Manu qonuni», «Brigaspati», «Parada», ma'bud Vishnu timsolining o'rnatilishi kabi hind manbalarida sotsiologik xarakteridagi fikrlar keng o'rin olgan.

Ijtimoiy fikrlarga oid qarashlar, ayniqsa, Gretsiya va Rim mutafakkirlari asarlarida yanada yuqori darajada bayon etilgan. Aflotunning «Davlat», «Siyosatchi», «Qonunlar», Aristotelning «Siyosat», «Etika», «Kategoriyalar» asarlarida ijtimoiy hayot va uning muhim jabhalari – oila, fuqaro, mulk, boylik, zeb-ziynat, jamiyatni boshqarish, adolat, donishmandlik, davlat, ilk demokratiya, huquq haqida o'z davriga nisbatan bir qancha ilg'or ijtimoiy fikrlar ilgari surildi. Ayniqsa, ideal axloq, ideal fuqaro, ideal davlat tuzumi, ideal boshqaruv haqida qarashlar hozirgi zamonda ham ahamiyatlidir. Ular ijtimoiy hodisalarni ifodalovchi tushuncha, kategoriya, hatto g'oya va soya (narsa, Aflotun), ya'ni «G'oyalar olami soyalar (narsalar) olamini

yaratadi» degani bilan inson hayotida tushuncha, g'oyalarning roli haqida qiziqarli fikrlarni bayon etadi.

Bu haqda, ayniqsa, Aristotelning «Kategoriya» asarida atroflicha fikrlar bayon etilgan. O'sha davr uchun xarakterli bo'lgan polis demokratiyasi ba'zi siyosiy institutlar, jumladan, respublika haqida ijtimoiy fikrlar bayon qilingan. «Respubiika» so'zi, «umumiy ish» – degan ma'noni anglatib, o'z davrida davlat birligi ma'nosida ishlatilmagan. Sitseron: «Davlat – bu xalqning ishi, to'g'rirog'i, fuqarolarning mulki» – deydi. Ammo respublika – bu boshqaruv shakli emas, bu qandaydir prinsipdir. Sitseron «Qonunlar to'g'risida», «Leliem», «Davlat to'g'risida» traktatlarida va Yunon tarixchilari Gerodot, Fukidida, Plutarx asarlarida o'sha davr uchun xarakterli bo'lgan tarixiy voqea-hodisalar, ijtimoiy jarayonlar haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan.

Aristotelning fikricha davlat tuzumining olti shakli mavjud: uch to'g'ri va uch noto'g'ri. Shulardan to'g'rilari – monarxiya (yoki podsholik) – bir kishining boshqarishi; aristokratiya – ozchilikning boshqaruvi, ammo bir kishidan ko'proq; politiya – ko'pchilikning boshqaruvi. Uch noto'g'ri: tiran, oligarxiya va demokratiya (kambag'allardan tashkil topgan ko'pchilik hukmronligining g'arazli shakli).

O'rta asr davrida Hindiston va Xitoyda falsafiy va sotsiologik fikrlar yana kengroq rivojlandi. Ayniqsa, VII – IX asrlarda Xitoyda madaniyat, adabiyot, san'at taraqqiy topdi. Konfutsiy ta'limotining dunyoviy xarakterdagi fikrlariga e'tibor yanada rivojlandi: Xan Yuy (768 – 824), aka-uka Chee Xao (1032 – 1085) va Chen I (1033 – 1107), Chju Si (1130 – 1200), Chjan Szay (1020 – 1077), Van yan Min (1472 – 1528), Li Chji (1527 – 1602) va boshqalar.

Hindistonda ilk o'rta asr davrida IV – IX asrlarda turli xil diniy, falsafiy oqimlar rivoj topdi.

Braxmanizm va buddizm g'oyalarini shubha ostiga oluvchi qarashlar ham rivojlandi. Shoir Kabir (XV asr)asarlarida, ayniqsa, Shoir Tulen Das(1532 – 1624)ning «Ramayana» dostonida kastachilik tizimi, ijtimoiy tengsizlik va diniy fanatizmga qarshi tanqidiy fikrlar ilgari surildi. Yaponiyada ham ijtimoiy fikrlar keng rivojlandi. Bu erda ham hukmron mafkura konfutsionizm va buddizm edi. Nakae Todzyu, Fudzivara Seyka, Xayasi Radzan va boshqalar ta'limotida ko'pgina dunyoviy qarashlar – jamiyat, davlat, boshqaruv, adolat, tengsizlik, masalalari, shuningdek, oila muammolari o'z ifodasini topgan edi.

O‘rta asrda Vizantiyada xristian sxolastikasi bilan birga jamiyat, davlat fuqaro, adolatsizlik, cherkov, ezgulik va yovuzlik haqida turli ijtimoiy fikrlar rivojlandi. VIII asrda yashagan Ioann Damaskin; IX asrda yashagan patriarx Fotiy, Mixail Psell (1018 – 1078) Ioann Ital (XI asr ikkinchi yarmida yashagan, ijtimoiy hayotni nuqul diniy tushuntiruvchi cherkov ta’limotiga qarshi ochiq tanqidiy fikrlar bayon etildi. Vizantiyada IX – XIV asrlarda feodalizm sarqitlariga qarshi, katta, ijtimoiy fikrlar ham shakllandi. Eron va qo‘shni bo‘lgan Yaqin Sharq mamlakatlarida ham «Avesto» ta’limoti, mazdaizm qarashlarida ijtimoiy hayotning ko‘pgina tomonlari o‘z ifodasini topgan edi. III asrda Manixeylik, V – VI asrlarda Mazdakizm yo‘nalishlarida ezgulik, ijtimoiy adolat, tengsizlik kabi muammolar keng o‘rin olgan. Mazdakizm ijtimoiy va mulkiy tengsizlikni zo‘rlik yo‘li bilan yo‘qotish, mulkning umumiyligi va undan teng foydalanish haqidagi talablar bilan chiqdi. Ar-Roziy (864 – 925) qarashlarida ham jamiyatning ko‘pgina muammolari ko‘tarildi.

Sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishada arab mutafakkiri va davlat arbobi Ibn Xoldunning ham hissasi kattadir. Uning «Kitob ul-ibar» (Ibratli misollar kitobi) (1370y) hamda «Tarixiy prolegomen» (1377y) asarining paydo bo‘lishi sotsiologiyada, umuman, ijtimoiy fan tarixida katta voqea edi. Uning ta’limotida umumiy va maxsus sotsiologiyaning ko‘pgina muhim masalalari o‘z aksini topgan edi. Unda ilgari surilgan g‘oyalar hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qatgan emas. Shuning uchun ham, Ibn Xoldunning nomi sotsiologiyaning asoschilari Platon, Aristotel, D.Viko va O. Kont bilan bir qatorda tuladi.

Uyg‘onish hamda Ma’rifatparvarlik davri mutafakkirlari asarlarida jamiyat, davlat, ijtimoiy institutlar, unda odamlarning o‘rni va roli haqida qimmatli fikrlar ilgari surildi. Ma’rifatparvarlik davri mutafakkirlaridan Gelvitsiy, Didro, Russo, Volter va boshqalar jamiyat tuzimi, tengsizlik, ijtimoiy hayotda din va cherkovning roli masalalariga e’iborni qaratdilar. Ayniqsa, italiyalik faylasuf Viko (1668 – 1744) «Yangi fan» kitobida jamiyat haqida yangilik yaratishga harakat qildi. Jamiyatda inson hulqi va tengsizlik kabi ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishga e’tiborni qaratadi. Uning kitobida birinchi marta sotsial va dinamika sohasida fikrlar bayon etildi.

«Har bir odam mustaqil ong, tafakkurga ega va mustaqil harakat qiladi, o‘zining hulqi, kasbi, turmush tarzini erkin tanlaydi; bu erkinlik faqat ilohiy qudrat bilan cheklangandir» – degan edi mutafakkir. Bundan

tashqari, ular inson sifatida nafaqat iroda erkinligiga, balki o'rgatish, ta'lim berish, aql va qobiliyatga ham ega ekanligini ta'kidlaydi.

Olijanob, madaniyatli o'qimishli, adolatpesha odamlar orqali oqilona tuzumga erishish mumkin, degan fikrni ilgari surdi.

Soha bilimdonlari orasida Monteskening «Qonunlar ruhi» asari alohida ahamiyatga egadir. Unda huquq va axloq sotsiologiyasi bo'yicha juda qimmatli fikrlar joy olgan.

Mutafakkirlarning inson va jamiyat ijtimoiy borliq, ijtimoiy birlik, ijtimoiy institutlar va ularning bir-biriga munosabati haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir. Inson jamiyatda erkin ong va irodaga ega bo'lsada, lekin uning xatti-harakati, hulqi cheklanganki, hamma vaqt ham erkin harakat va faoliyat ko'rsata olmaganligi, unda qadriyatlar, urf-odatlar, axloq va qonunning boshqaruvchilik roli haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan.

Islom dinining vujudga kelishi va keng yoyilishi bilan birga Sharqda ijtimoiy fikrlarning rivojlanishi o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Bunday xususiyatlari eng avvalo, islom dini, uning mafkurasi asosida shakllanib xalqning turmush tarzida o'z ifodasini topgan. O'sha davrda so'fiylik keng rivojlandi. Mustaqillik davri tafakkurigacha, so'fiylikka bir yoqlama qaralardi. Uning insoniy axloq-odob, kamtarinlik, odamoxunlik halol-pokizalik, o'zaro tenglilik, rahmdillik, podsholarni adolatga chaqirish, mol-mulkka, zeb-ziynatga, aysh-ishratga berilishni qoralash kabi qarashlari progressiv ahamiyatga ega edi.

Sharqda IX – XII asrlarda yashab o'tgan ulug' allomalar al-Kindi (800 – 879), al-G'azzoliy (1059 – 1111), Ibn Tufeyli (1110 – 879) va Ibn Rushd (1126-1138) asarlarida tabiat, jamiyatga oid keng qarashlar ifoda etilgan. Jumladan, ijtimoiy hodisalar va ularning qonuniyati, huquq, din, teologiya masalalari keng o'rin olgan. Umuman, o'rta asr ijtimoiy fikrlarida Aristotel va Aflotun qarashlari ta'siri sezilib turadi.

Sharq ijtimoiy fikrlar rivojlanishi tarixida al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolarning ta'limot va qarashlari muhim o'rinni egallaydi. XVI asrgacha Sharqda arab tilida yozilgan fanlarning rivojlanishi G'arbiy Yevropaga nisbatan oldinda bordi. G'arbiy Yevropada xristian dinining o'rnatilishi va mustahkamlanishi bilan birga, bir tomondan ijtimoiy hayotni nasroniylik mafkurasiga batamom bo'ysundirish jarayoni borgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy hodisalarga dunyoviy yondashish tendentsiyasi ham so'nmadi. Sxolastika (IX – XV asr) yo'nalishida ikki katta oqim realizm (XI – XIII) va nominalizm (XIII – XV asr) vakillari Ioann Skot (IX asr),

Rostselin (X asr), Anselm (1033 – 1109), Per Abelyar (1079 – 1142), Duns Skot (1265 – 1138) Rodjer Bekon (1214 – 1244), Uelyam Okkam (1300 – 1350) va hokazolar qarashlarida ijtimoiy hayot masalalari u yoki bu darajada o'z ifodasini topdi.

Rossiyada ham XII – XVI asrlarda ijtimoiy-siyosiy fikrlar Ivan Peresvetov Nil Sorskiy, Iosif Volotskiy, Maksim Grek qarashlari va boshqa manbalarda izchil yoritib berilgan.

XVIII – XIX asrlarda G'arbiy Yevropada ijtimoiy fikrlar rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar qaror topa bordi. Bozor iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishi, siyosiy hayotdagi o'zgarish, jumladan, sotsiologiyani rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. Bu o'z navbatida sotsiologiya tarixini ham mustaqil yo'nalish sifatida shakllanishiga yo'l ochdi.

Jamiyat va uni tashkil etuvchi inson hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi oddiy, sodda, stixiyali bilimlarning ilk davridan tortib hozirgi zamon yetuk sotsiologiya nazariyasigacha fan tarixining asosiy manbasi, mag'zi, yadrosini tashkil etadi. Demak, sotsiologiya tarixining predmeti jamiyat haqidagi qarash, bilim, tushuncha, ta'limot, yo'nalish, oqimlar, nazariya, konsepsiyalarining vujudga kelishi va rivojlanishini o'rganadi. Qisqa qilib aytganda, sotsiologiya tarixi jamiyat haqidagi ijtimoiy fikrlar majmuasidir.

Sotsiologik bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi fan tarixining asosini tashkil etadi. Ya'ni jamiyat va uning tuzulishini o'rganishni bilish haqidagi o'ziga xos turli xil g'oyalar, tushunchalar, kategoriyalar, atamalarni vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi hamdir. Jamiyat o'zgarishi bilan turli qarash, ta'limot, nazariyalar ham o'zgarib, boyib boradi. Demak, sotsiologiya tarixida ma'lum bilimlar tizimi makonda mavjud bo'lib, zamonda yashaydi. Sotsiologiya fani va tarixi o'rganadigan mavzular qanchalik o'zgarmasin, barcha zamonlarda: kishilik jamiyati, uni tashkil etgan individlar, ijtimoiy guruh va birliklar, ularning o'zaro aloqa va munosobatlari, bir-biriga ta'siri haqidagi xilma-xil qarashlar haqidagi bilimlar uning markazida turgan. Bu qarash va bilimlar odamlarga jamiyat hamda uning tabiati, sirlarini bilishga ko'maklashgan.

Sotsiologiya tarixi fanning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, bu fan falsafa tarixi, siyosatshunoslik tarixi bilan chambarchas bog'liqdir.

Sotsiologiya tarixining metodologiyasi (uslubiyoti) asosini tarixiylik, mantiqiylik, obyektivlik, tizimli yondashuv, dialektika, in-

duksiya, taqqoslash tashkil etadi. Uning nazariy manbayi va asosini antik va o'rta asr mutafakkirlari, ayniqsa, klassik va hozirgi zamon sotsiologiyasining yirik vakillarining asarlari tashkil etadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Sotsiologiya tarixining vujudga kelishi va rivojlanishi.
2. Sotsiologiya tarixining predmeti va asosiy yo'nalishlari.
3. Sotsiologiya tarixini o'rganishning ahamiyati.
4. Hozirgi zamon sotsiologiyasi va uning tarixi jamiyat, ijtimoiy hayot haqidagi bilimlar tizimi sifatida XIX asr 30 – 40-yillarining mahsulimi yoki uning tarixiy ildizlari, manbalari uzoq moziyga borib taqaladimi?
5. Sotsiologiya tarixi predmeti bilan uning o'rganish obyekti o'rtasida qanday o'xshashlik va farqlar bor?
6. Sotsiologiya tarixi predmetidan kelib chiqqan holda uning asosiy yo'nalishlari tushunchasiga nimalarni qo'shimcha qilish mumkin?
7. Sotsiologiya tarixi asosiy yo'nalishlari oqimlar, maktablar, nazariyalar, uslublarni ham o'z ichiga oladimi?
8. Sotsiologiyada «oqimlar», «maktablar», «nazariyalar», «uslublar»ning bir-biriga yaqinligi va farqlari, asosan, nimalarda namoyon bo'ladi?
9. Sotsiologiya tarixini o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyati deganda, nimani tushunish mumkin?
10. Sotsiologiya tarixini o'rganishning amaliy ahamiyati nima bilan o'lchanadi yoki belgilanadi?
11. Hozirgi zamon sotsiologiyasining tamal toshlari haqida nimalarni bilib oldingiz va o'rgandingiz?

XIX ASR IKKINCHI YARMI VA XX ASRDA G'ARBIY EVROPA VA AMERIKA SOTSIOLOGIYASINING RIVOJLANISHI

XVIII asr oxiri XIX asr birinchi yarmida sotsiologiyaning ijtimoiy fanlarning mustaqil yo'nalishi sifatida rivojlanishida tarixchi F. Kulanj, injenerlar F. Pleyt, G. Spenser va matematik-mexanik O. Kont katta rol o'ynaydi. Ular tomonidan sotsiologiyaga oid ko'pgina ilmiy ishlar yozildi.

1988-yil Fransiyada De Robertining «Sotsiologiya», 1885-yil Lyudvig Gultlovichning «Sotsiologiya asoslari» kitoblarining chop etilishi sotsiologiyani mustaqil fan sifatida rivojlanishida muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Sotsiologiya ijtimoiy bilimlarning mustaqil yo'nalishi sifatida Rossiyada ham rivojlana bordi. Jumladan, rus sotsiologiya maktabining asoschilaridan biri M. Kovalevskiyning «Hozirgi zamon sotsiologiyasi» nomi bilan katta kitobi nashr etildi.

XIX asrning birinchi choragi, ayniqsa, XIX asr o'rtalarida sotsiologiya mustaqil fan sifatida o'zini namoyon qila bordi.

Sotsiologiya fanining rivojlanishi unga bo'lgan ehtiyojning katta ekanligidan dalolat beradi. Sotsiologiya kasb sifatida ham, ta'lim, bilimning zarur sohasi sifatida ham keng rivojlanmoqda. Bu sotsiologiya fan sifatida institutlashganligini, ya'ni ijtimoiy fanlar tizimida o'zining mustaqil maqomiga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Sotsiologik qarashlar bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi moziyga borib taqaladi. Biroq sotsiologiya mustaqil fan sifatida XIX asrning o'rtasidan boshlab rivojlandi. Buni Ogyust Kont, Gerbert Spenser, Lestor Uord, Franklin Giddins, Georg Zimmel, Ferdinand Tennis, Maks Veber, Emil Dyurkgeym, Vilfredo Pareto va boshqalarning sotsiologiya sohasidagi kashfiyotlari, nazariyalarini turli maktablar, yo'nalishlarda ko'rish mumkin.

Ogyust Kont (1798 – 1857) nafaqat «sotsiologiya» tushunchasini kashf etdi, balki bu tushunchani birinchi bo'lib fanga kiritdi, shu bilan birga fanda yangi yo'nalishga – sotsiologiyaga asos solindi. Uning asosiy g'oyasi «fanni» «metofizika» va teologiyadan ajratishi edi. Uning fikricha, haqiqiy fan «yechib bo'lmasdan» muammolardan voz

kechishi, ya'ni isbotlash inkor etish imkoniyati bo'lmagan dalillarga tayanadigan (amaliy) kuzatish mumkin bo'lgan ilmdir. U faktlarni o'zaro bog'liqligi, uning amal qilishi katta butunlik, katta tizim doirasida bo'lishligini tadqiq etishga da'vat etdi. Jamiyat, insoniyatni tizimning oliy ko'rinishi deb hisobladi. O. Koptning sotsiologik nazariyasi ikki qismdan: «Sotsial statika» va «Sotsial dinamika»dan iborat edi. Fransuz mutafakkirining asosiy e'tibori dinamikaga qaratildi. Sotsial dinamikaning birinchi omili – ma'naviy-aqliy rivojlanishdir. Ikkinchi omilga tabiat, irq, odam umrining o'rtacha darajasi, aholi o'sishi, mehnat taqsimoti hamda odam aqliy va axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi.

XIX asr o'rtasi va II yarmida G'arb ilm-fan tarixida tabiatshunoslik fani yutuqlari va pozitiv-naturalistik dunyoqarashning gullab yashnashiga mahliyo bo'lish tendentsiyasi kuchli edi. Bu o'z navbatida, sotsiologiyaga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Evolutsion nazariya tabiat va inson birligi, tabiiy va ijtimoiy fan metodlarining birligi haqidagi tushuncha va tasavvurlar o'sha davr ijtimoiy fikrlarida yetakchilik qiladi. Sotsial evolutsiani biologik evolutsianing davomi va uning tarkibiy qismi sifatida qaraldi.

Gerbert Spenser (1820 – 1903) sotsiologiyada naturalistik yo'nalishning yirik namoyandasi edi. Angliya sotsiologlari uchun evolutsiya tabiat va jamiyat hodisalarini tushuntirishning universal usuli sifatida qabul qilingan edi.

U jamiyat hodisalariga, ijtimoiy faktlarga tirik organizm nuqtayi nazaridan qarab, jamiyatni biologik organizmga o'xshash deb tushunardi.

Organizm qancha rivojlangan bo'lsa uning shunchalik murakkabligini, qismlari esa bir-biri bilan bog'liqligini ta'kidladi. Oddiy jamiyatda tarkibiy qismlarning bir xilligi va ularning bir-biri bilan almashish jarayoni yengil o'tishi, murakkab jamiyatda esa biron qismning noto'g'ri yoki muvaffaqiyatsiz harakati boshqa bir qism harakati bilan to'ldirilmasligini, ya'ni murakkabligini isbotladi. Shuning uchun ham, murakkab jamiyat o'zidan oldingisiga nisbatan juda nozik va yanada murakkab ekanligini ko'rsatdi.

Spenserning «bir chiziqli», ya'ni jamiyatning to'xtovsiz oldinga tomon harakati nazariyasi murakkablashgan «ko'p chiziqli» evolutsiya nazariyasi bilan yangilandi. Ba'zi hollarda bu jarayon sotsial degradatsiyani tug'dirishi mumkinligini ko'rsatdi.

Spenserning sotsiologik nazariyasi strukturali funksionalizm nazariyasining o'tmishdoshidir. U birinchi bo'lib sotsiologiyada struktura va funksiya, tizim, institut tushunchalarini ishlatdi, qo'lladi. Strukturadagi o'zgarish, funksiyada ham o'zgarishga olib kelishligini qayd etdi. Sotsial birliklar doirasining kengayishi, shubhasiz, ularda sotsial faollikdagi progressiv differensiyani uyg'otadi, tabiiy mehnat taqsimotini yanada kengaytiradi.

Spenser ham Darvinga o'xshash «*tabiiy tanlash*» *moslashuvchanlik* g'oyasini, ilgari surdi. *Intellektual jihatdan* ustun bo'lganlargina omon qolishi, ya'ni muvaffaqiyatli hayot kechirishi mumkinligini ta'kiladi.

Spenser sotsiologik bilimlar rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. U sotsial tadqiqotchi obyektiv bo'lishligi, *tarixiy va sinfiy manfaatlardan xalos bo'lishligini,* ya'ni ijtimoiy hodisalarga xolisona yondashish yoki obyektiv munosabatda bo'lishlikni alohida ta'kidladi.

Hayoliy sotsialistlar Tomas Mor, Tomazza Kompanella, Sen Simon, Sharl Fure, Robert Ouenlarning qarashlarida ham ko'pgina sotsiologik fikrlar ilgari surildi. Ular jamiyat, davlat, erkinlik, tenglik, ozodlik, demokratiya, fuqarolik huquqlari, ijtimoiy adolatsizlik, tengsizlik masalalarida o'z fikrlarini ilgari surdilar.

Kommunizm (aslida xayoliy Kommunizm) nazariyotchilari Karl Marks (1818-1883) va Fridrix Engels(1820 – 1895)ning asarlarida tarixni materialistik tushunish, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya, ishlab chiqarish usuli, bazis, ustqurma (falsafiy, diniy huquqiy qarashlar), davlat nazariyasi, kapitalizm, sotsializm, revolutsiya, sinfiy kurash va boshqa ko'pgina masalalarda o'z fikrlarini bayon etdilar.

Karl Marks nomi bilan bog'liq marksizm va uning sotsializm va kommunizm haqidagi ta'limoti reallikdan ko'ra xayolparastlikka qurilgan edi. Taraqqiyotning modeli tarix tajribasidan – sobiq SSSR va Sharqiy Yevropada sinovdan o'tdi va o'zini oqlamagan tuzum va tizim sifatida halokatga uchradi. Shuning uchun ham, bu nazariya va amaliyot XX asr 80-yil oxiri va 90-yil boshiga kelib inqirozga uchradi. Karl Popper aytganidek, kommunizm kommunizmning o'zidan halok bo'ldi.

XIX asr oxiri XX asr boshida psixologik sotsiologiya va uning psixologik evolutsionizm, instinktivizm, «xalqlar psixologiyasi», guruhlar psixologiyasi, interaktsionizm kabi yo'nalishlari keng tarqaldi. Bu maktab barcha ijtimoiy hodisalarga sof psixologik nuqtayi nazardan yondashishga intildi.

Bu yo'nalishning yetakchi vakillari L. Uord va F. Giddingsdir. lester Uord (1841 – 1913) fikricha evolutsion *zinapoyaning oliy bosqichi – sotsiogen* bo'lib, u barchasining sintezi, ya'ni kosmobio va antropogenez jarayonida tarkib topgan bosqichdir. Tabiatda maqsadga muvofiqlik – tem (telos – maqsad), ya'ni tabiiy jarayonlar ijtimoiylikka maqsadli o'zgaradi. Aniqrog'i, odamlar oqimi individual va kollektiv tarzda (davlat tarzida) bo'lishligini qayd etdi. U *«struktura»* va *«jarayon»* o'rtasidagi farqni bartaraf etishni *«sezgi»*, *«hissiyot»* *«talab»*, *«istak»* tushunchalari orqali izoh berishga urindi. Bu psixik omillar keyinchalik inson harakatining asosi sifatida talqin etildi.

Fraklin Giddings (1855 – 1931) umumsotsiologik sxemani qamrab oluvchi prinsipni topishga intildi. Buni *«urug' ongi»* yoki *«sotsial aqllilik»*da, ya'ni *«o'xshash sezgilar»da* – individlarning bir-biriga bo'lgan munosabatda sodir bo'ladigan jarayonda ko'rish mumkinligini qayd etdi.

F. Giddings jamiyatni *«ongsiz evolutsiya»* hamda *«ongli reja»*da sodir bo'lgan ijtimoiy hodisa, deb qaradi. Sotsiologiyani *obyektiv* va *subyektiv* tushuntiruvchi fan sifatida bilib, odamzot guruhi dinamikasini ikki *tip kuchda*: *sotsiallashtiruvchi* va *sotsiallikda* ekanini isbotladi. Birinchisi, tashqi sharoitlar: *iqlim, tuproq, individlarning* intilishi va shijoati bo'lsa, ikkinchi fikrda – guruhlar ta'siri va individlarni *guruhiy* maqsadga yo'naltirganini talqin etadi. Masalan, ijtimoiy fikr, qonunchilik va hokazo.

Giddings «urug' ongi» darajasiga muvofiq jamiyatda 4 sinf – guruh ajratadi:

1) *«Ijtimoiy» sinf* – mavjud tuzumni himoya qiluvchilardan tashkil topgan;

2) nosotsial sinf – jamiyat ishlariga loqayd kishilardan tashkil topgan;

3) psevdosotsial sinf – jamiyat hisobidan yashashga intiluvchilar;

4) antisotsial sinf – bu jamiyatni ko'ra olmovchilardan tashkil topgan.

XIX asr oxirida shu narsa aniqlandiki, *individ psixologiyasi* ham, *mavhum* «xalq ruhi» ham ijtimoiy hodisalarni bilish kaliti bo'la olmadi. Guruh manfaatlari bilan bog'liq hodisalar, ommaviy hulqqa qiziqishning kuchayishi, individlarga ijtimoiy norma va e'tiqod hamda adaptatsiya (moslashish) imkoniyatini beradi.

Psixologizm bilan organizmchilikni qo'shish interaksionik orientatsiyani tug'dirdi. Uning markazida individlarning o'zaro bir-biriga ta'siri jarayoni yotadi. O'zaro ta'sirning subyekti bo'lgan shaxs mavhum emas, balki ma'lum ijtimoiy guruhga mansub ijtimoiy mavjudot va u ma'lum sotsial rolni bajaradi.

Jamiyatni biologlashtirishdan voz kechgan psixologizm vakillari evolutsionizm cheklanganligini bartaraf etishga harakat qildilar. Bu o'z navbatida *sotsial psixologiyani* vujudga kelishiga olib keldi.

XIX – XX asrlarda *sotsiologiyada evolutsionizm krizisi* (inqirozi) va bu bilan bog'liq *antipozitivizm* oqimi vujudga keldi. Ratsional yondashuvchilar odamlarning tabiiy huquqi va xalqlarni o'ziga o'zi hukmronligi, oqilona qonun va oqilona ijtimoiy tuzum qurish huquqiga ega ekanligiga, ya'ni inson tabiatiga xos hayot qurishni ko'zda tutadi.

Tarixiy yondashuvchilar esa odamlar hayotida an'anaviy norma va prinsiplar muhim ekanligini, ijtimoiy hayotda esa davlat va huquq tartibga sobit turuvchi shakllari mavjudligi va zarurligini ta'kidladi.

XIX asr ikkinchi yarmida *pozitivistlar bilan antipozitivistlar* o'rtasida kurash kuchaydi. Pozitivistlar ilmiy bilimlarning birligini himoya qilish bilan birga ijtimoiy hodisalarga tabiiy-ilmiy metodni qo'llashni da'vat etdilar. Bu hol *sotsiologiyada naturalizm* boshlanishiga olib kelgan edi.

Antipozitivistlar, aksincha, ijtimoiy va tabiiy fanlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga urindilar.

XIX asr oxiri sotsiologiyadagi bu bahs rasmiy va tushunuvchi sotsiologiya bahsiga olib keldi. Birinchisi – G. Zimmel va F. Tennis, ikkinchisi – M. Veber qarashlarida yaqqol ko'zga tashlana bordi.

Rasmiy sotsiologiyaning tashkiliy jihatdan rasmiylashuvi Ferdinand Tennis (1855–1936) nomi bilan bog'liqdir. U dunyoga sotsial qarashda ratsional ilmiy metod imtiyozlarini tarixiylik bilan bog'ladi. Olim «Jamoa va jamiyat» asarida erk-iroda tushunchalariga alohida e'tibor berdi.

F. Tennis amalda erk bilan aqlni bir-biriga o'xshaydi, ya'ni aynan bir narsa, deb qaradi. Odamlarning birgalikdagi ijtimoiy hayoti, ularning o'zaro munosabati, cherkov yoritganchalik an'anadan emas, hatto Xudodan ham emas, balki aqldan boshlanadi, deb qayd etdi.

Tennis erk-irodaga yuqori baho berib, unda tafakkur bor deydi, tafakkurda esa erk-iroda mavjud deb bildi. Birinchi tip erk-irodani «mohiyatli» ikkinchisini esa «saylanma» deb atadi. Jamoa shunday ijtimoiy birlikki, unda erk-iroda tuyg'usi ustun, jamiyatda esa ikkinchi

til – tafakkur hukmron. Jamoadagi ijtimoiy aloqalar o'zaro bog'liqlikka, ruhiy, qalbiy moyillika, jamiyatda esa oqilona almashuvga, narsalar yoki niyatini o'zaro o'rin almashishiga bog'liqdir. Bu ikki xil tipdagi ijtimoiy aloqa nafaqat odamlarning bir-biriga munosabatini, balki jamiyatga bo'lgan qarashlarini ham ifodalaydi yoki xarakterlaydi. Jamoada sotsial yaxlitlik qismdan oldin, jamiyatda esa qismlardan tashkil topadi. Butunlik har qanday qismlar yig'indisidan kattadir. Shunday qilib, har bir narsada o'z mohiyati, mantig'ini izlash kerak, deydi F. Tennis.

Georg Zimmel (1858 – 1918) sotsiologiyani an'anaviy yo'lda emas, balki o'z mazmuniga ega bo'lgan fan metodi sifatida qarashga da'vat etadi. Sotsial fanlarning har bir predmetlariga muvofiq o'ziga xos rasmiylashgan «kanal» bo'lib, unda ijtimoiy hayot oqadi. Hayot – bu fanlarga aniq bo'lmagan qonuniyatlarni o'rganishni vazifa qilib qo'ydi.

Sotsiologiya metodining maqsadi – ijtimoiy fanlar o'rganayotgan sof «sotsiatsiya», ya'ni odamlarning muloqotidagi jarayonlarni olishi, shundan keyin esa ularni sistemalashtirish, psixologik asoslash va tarixiy rivojlanishda ekanligini qayd etish.

Zimmel konsepsiyasiga ko'ra, bir tomondan sotsiologiyani boshqa ijtimoiy fanlardan aniq ajralishini kafolatlaydi, bir tomondan esa «Sotsiologiya»ni sof shaklini o'rganadi, boshqa jamiyat haqidagi fan, ya'ni sotsiologik metodni qo'llaydigan fan bilan tabiat tug'risidagi fan o'rtasida aniq chegara qo'yish imkoniyatini beradi.

Emil Dyurkgeym (1857 – 1917) fransuz jamiyatshunosligi «Sotsiologik maktabi»ning klassik vakilidir. U sotsiologiyani mustaqil fan sifatida hamda bu predmetning tadqiqot metodikasi haqidagi chuqur fikrlarini bayon etdi. Sotsiologiya sotsial reallik va faqat uning o'ziga xos fazilatlarni o'rganmog'i zarur, dedi. Sotsial realikni elementlari sotsial faktlar bo'lib, uning yig'indisi jamiyatdir. Bu faktlar sotsiologiyani predmetini tashkil etadi. «Sotsial faktlar»ga barcha harakat tarzi, ko'rinishi kiradi, qaysiki, individga tashqi ta'sir va bosim o'tkazadi.

Individ tuzilganda tayyor qonun va urf-odatlar, hulq qoidalari, diniy e'tiqod va odatlar, til, pul tizimiga duch keladi, chunki bular unga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir va faoliyat ko'rsatadi. Bu fikr, harakat va hissiyot mustaqil, obyektiv mavjuddir. Jamiyatda har bir odam bo'layotgan ta'sir bosim, hatto zo'rlashni u yoki bu darajada sezadi, ko'radi. Bu jamiyatdagi obyektiv holdir.

Dyurkgeym nazariyasiga ko'ra sotsiologiya nafaqat sotsial faktlarni o'rganadi, shu bilan birga boshqa ijtimoiy fanlar ochishga metod va nazariya bo'lib xizmat qiladi. U mehnat taqsimoti haqida fikr yuritib, uning birdamlik sohasini alohida ajratib qaradi. Uning fikricha mehnat taqsimoti hozirgi zamon jamiyatida shunday mexanizmki, o'zining birlashtiruvchi umumiy, kollektiv kuchini yo'qotgan diniy ong sharoitida zaruriy ijtimoiy aloqa, guruhiy birdamlikni yaratib, tor mutaxassislik bilan bog'liq barcha kamchiliklarni to'ldiradi. Birdamlik tushunchasi shunday o'qki, uning atrofida mehnat taqsimotining barcha turlari aylanadi.

Birdamlik oliy darajadagi axloq, oliy qadriyat va bu hol jamiyatning barcha a'zolari uchun universel hodisadir. Ijtimoiy tartib, garmoniya, birdamlikka ehtiyoj katta va yuksak axloq sifatida qaralar ekan, demak, mehnat taqsimotini o'zi ham axloqdir, deb baholaydi Dyurkgeym.

Shaxs va jamiyat bir-biri bilan bog'liq bo'lib, har birining rivojlanishi hamda gullab yashnashidan manfaatdordir.

Shunday qilib, Dyurkgeym mehnat taqsimoti haddan tashqari mutaxassisliklarni maydalashib ketishiga yo'l qo'ymasligi haqida ham keng fikrlarni bayon etgan. Tenglik, adolat, erkinlik, birdamlik asoslangan ijtimoiy tuzilishning oliy darajada uyushgan tipi shakllanishi muqarrar deb ishonadi.

Sotsiologiyani eng yirik nazariyotchilaridan biri Maks Veberdir (1864-1920). Uning tarixiy sotsiologiya konsepsiyasini yaratishdagi xizmati alohida ahamiyatga ega. U jahonning ko'p jamiyatlariga doir empirik materiallar to'pladi. Umumiy va xususiylikni uyg'unlashtirish metodologiya va tushunchalar apparatini, tartibsizlikni, tarqoqlikni tartibga solishga harakat qildi. Uning metodologik konsepsiyasida «tushunuvchi» nazariya muhim ahamiyatga ega. «Tushunuvchi» metod (usul)dan ratsional foydalanishga tavsiyalar berdi. Uning tarafdorlari va muholiflari o'rtasida bu tushuncha atrofida turli xil qarashlar mavjud. Matndan yoki sotsial hodisadan qayg'urish emas, balki unga aniq yondashishni va o'rganishni da'vat etdi.

M.Veberning sotsiologiyaga qo'shgan katta hissalaridan biri «Ideal tip» tushunchasidir. Ideal tip mantiqiy asosga qurilgan tushuncha bo'lib, tadqiqotdagi sotsial hodisalarni asosiy belgilarini ajratishga imkoniyat beradi (masalan, ideal-tipdagi harbiy jang unga kos [illegible] barcha

AXBOROT RESURS MARKAZI

tomonlari qismlarini qamrab olishi lozim). Ideal tip mavhum nazariy qurilmadan iborat emas, balki ijtimoiy tarixda real dunyodan induktiv ravishda vujudga keladi, deb tushuntiradi. Bu faoliyat haddan umumiy (masalan, din tarixini hammasini) yoki haddan tashqari xususiy xarakterda (individual diniy tajriba) bo'lmasligi kerak.

Tushuncha bu statik emas, balki dinamik xarakterga egadir. Jamiyat singari tadqiqotchilar manfaati doimo o'zgarishda ekan, bunday paytda yangi tipologiyani rivojlantirmoq darkor.

Hozirgi zamon Amerika sotsiologiyasiga Verberning qadriyatlar haqidagi konsepsiyasi katta ta'sir etdi. U baholashni ahamiyatini to'la inkor etmagan holda tadqiqot jarayonini uch etapga bo'ldi; dalil yig'ish, aniq kuzatishi, dalillarni muntazam taqqoslash va jarayonda hissiyotga berilmaslik. Veberning qadriyatga taqali tushunchasining ma'nosi, tadqiqotchi materiallarni tahlil qilish va tiklashda hozirgi zamon qadriyatlar tizimiga asoslandi.

Veber sotsiologik nazariyasi asosini sotsial harakat konsepsiyasi tashkil etadi. U harakatni har qanday xatti-harakatdan farqi bo'lishini, ya'ni anglangan, aqlga, fikrga asoslangan ideal harakatni nazarda tutdi.

Veber ishlarida «ratsionallik», byurokratiya (ratsional byurokratiya) masalalari keng yoritilgan. U ilmiy terminologiyaga «ratsionallik» tushunchasini kiritdi.

Vilfredo Paretoning (1848 – 1923) sotsiologik tizimi jamiyat haqidagi metafizik va ayri ilmiy fikrlariga chek qo'yish edi. Chunki bunday qarashlar XIX asr ijtimoiy-siyosiy fikrida ko'proq hukmron edi. Pareto sotsiologik bilimlarni to'g'rilik, ishonchlilik va asoslanganlik tamoyiliga qurishga harakat qildi. Pozitivizm asoschilari Kont, Mills, Spenserlarni qo'llab-quvatlash bilan birga ularning faqat bilimlari asoslanishini tanqid qildi.

U logik-eksperimental metod orqali jamiyat tuzulishi, mavjudligi va o'z o'zgarishining umumiy tamoyillarini ochishga intildi. Sotsiologiyani fizika, ximiya, astronomiya kabi aniq fanga aylantirishga urinib, empirik asoslangan hukmlardan foydalanishni ham tavsiya etdi. Nazariyada faqat etik va qadriyat bilan bog'liq elementlarni bartaraf etishga harakat qildi. U «Mutloq», «zaruriy» tushunchalarni ham olib tashlashni talab etdi. Chunki ularda metafizika va teologiya belgilari mavjudligini ta'kidladi. U sababiyatni o'zaro yoki o'zaro ta'sirga almashtirishni. Umuman, sotsial nazariya jamiyatdagi barcha olimlarni e'tiborga olishni va ular o'rtasida doimiy o'zaro bog'liqlik bo'lish zarur, deb qaradi.

Sotsiologiyada Chikago maktabi ham alohida o'rin egallaydi. Uning asoschisi A.Smolldir (1854–1926) Albiona Smollning asosiy e'tibori manfaatlar nazariyasiga qaratilib, sog'liq farovonlik, muloqot qilish, go'zallik, adolatga qaratilgan yo'nalish bilan bog'liq edi. U fizikada atom qanday rol o'ynasa manfaat ham sotsiologiyada shunday rol o'ynashi kerak, dedi. Manfaatlarning bir-biriga o'tishi, manfaatlar va undan kelishuvga o'tish mumkinligini qayd etadi. Sotsial hodisalar uch omilning o'zaro ta'siri natijasidir: tabiat, individlar va sotsial institutlar. U ilmiy tadqiqotni to'rt bosqichga bo'ldi: qayd etish, analitik, baholash va konstruktiv. Sotsiologiya jamiyatni «amalda yaxshilashga» xizmat qilishi kerak dedi. Keyinchalik manfaatga hulqni tartibga soluvchi, sotsial jarayonni baholavchi omil sifatida qaradi.

Chikago maktabining yana bir ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Uilyam Samneru (1840 – 1910). U sotsial evolutsiya so'zsiz, shubhasiz, xarakterga, tabiiy tanlov va yashash uchun kurash esa barcha uchun universaldir, degan fikrni ilgari surdi. Sotsial tengsizlik sivilizatsiya rivojlanishining tabiiy holati va zaruriy shartidir. Bu hodisaga odamlarning o'zaro munosabatigina emas, balki «nima qilayapti», – degan masala qiziqtiradi. Jamiyat ijodiy xarakterga ega bo'lib, atrof-muhit ustidan nazorat, umumiy qadriyatlarni o'rganish va o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. U «guruh» tushunchasiga alohida e'tibor bilan qaradi. Uilyam Somnerning: «Biz-guruhlarimiz», «ular-guruhlardir» tushunchasi ko'proq mashhur bo'ldi. «Biz guruhlar»da birdamlik, «ular-guruhlardir»da ko'proq dushmanlik tuyg'usi ustuvorlik qiladi. Oxirgisi etnosentrizm qarashi bilan bog'liq bo'lib, unda o'zining guruhi boshqa odamlar uchun markaz bo'lib, qolganlar esa ana shu atrofda baholanadi. Jamiyatdagi farovonlik to'qlik, urf-odat, axloq va qonunlarni bajarilishini ta'minlaydi. Urf-odatlar nafaqat manfaat, balki turli bahonalarni tug'diradi. Bahonalarda ochlik, jinsiy xohish, o'zini yaxshi ko'rish, sevish va asossiz talvasaga tushish bilan xarakterlanadi.

Chikago maktabining ko'zga ko'ringan vakillaridan yana biri Edvard Ross (1866–1951) bo'lib, u ko'proq sotsial tartib va birdamlik tabiati bilan qiziqdi. Birdamlikka sotsial nazorat jarayon nuqtayi nazaridan qaradi. Birdamlik orqali individ va guruh yagona tashkilot yoki uyushmaga birlashim mumkinligini ko'rsatdi. Hatto, odamlar o'rtasidagi munosabatlar ham kelishuv yoki nazorat shaklida namoyon bo'lishligini ta'kidladi.

Sotsiologiyaning Chikago maktabi vakillari, umuman, sohaning nazariy va amaliy masalalari, sotsial muammolariga katta e'tibor berdilar. Chikago o'ziga xos «sotsial laboratoriya» markazi rolini o'ynadi. Bu erda qishloq jamoasi va emigrantlar, ularning shahar muhitiga moslashishi, hulqning buzilishi, oilalardagi muammolar, yoshlikdagi jinoyatchilik, darbadarlik kabi masalalarda keng tadqiqotlar olib bordilar. Chikago universiteti bu sotsial laboratoriyada katta rol o'ynadi.

Shunday qilib, XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmida sotsiologiyaga jamiyat haqidagi maxsus fan sifatida qarashning to'la asosi yaratildi. Jamiyatga o'ziga xos yondashishning tashkil etuvchi nazariya konsepsiyasi va metodologik tamoyillari rivojlandi.

XX asr boshida Yevropa sotsiologiyasida Britaniya antropologiyasi maktabi ham muhim o'rin egalladi. Sotsiologiyada sotsioetnografik muammolar vujudga keldi. Bu o'sha davr Britaniya koloniyasi va dominionlarni boshqarishda katta rol o'ynardi. London Universitetida Edvard Vester Mark (1862 – 1931) sotsiologiya kafedrasini tashkil etdi. London maktabi funksionalizm tamoyillarini ishlab chiqdi. Bu nazariyaga ko'ra jamiyat ehtiyoji bilan bog'liq vujudga keladigan va rivojlanadigan barcha sotsial institutlar, ular bajaradigan murakkab vazifalar haqida keng fikrlar ilgari surildi. Bu esa keyinchalik strukturali funksionalizm nazariyasini yanada boyitdi. Ular odamlar o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni o'ziga xos farqini ko'rsatib berishga harakat qildi.

Sotsiologiyada Kolumbiya maktabi ham keng tarqalgan. Bu maktab R. Mak-Ayver (1882 – 1970), Y. Moreno (1892 – 1974) va P. Lazarsfeld (1901 – 1976) kabi vakillari timsolida sotsial bilimni kommunal hamda sotsial darajadagi boshqaruv jarayonini sotsial-inteneflik ta'limoti bilan bog'lashga harakat qildilar. Ular yirik sotsial guruhlarning o'zaro munosabatidagi amaliy masalalarga ko'proq e'tiborni qaratishdi (R.Mak-Ayver). D. Moreno otsiometriya metodini keng rivojlantirdi. Uning psixodrama va sotsiodrama metodlari ham keng tarqaldi. P.Lazarefela ijtimoiy fikrlarda matematik metodni qo'lladi.

Yevropa sotsiologiyasida dialektik sotsiologiya J.Gurvich (1894 – 1965) struktural-funksional tahlil nazariyasi cheklanganligini bartaraf etish maqsadida keng rivojlandi. Dialektik sotsiologiya struktura-funksional tahlil nazariyasini tahlili sotsial jarayonlarga statik yondashishni tanqid qildi. Sotsial jarayonlarda ziddiyatlarning realligi

va uning har qanday jarayon yoki tendetsiyaning harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaradi.

J. Gurvich sotsiologiyani akademik fan sifatida institutlashuviga katta hissa qo'shdi. Xuddi shu sotsiolog tufayli Sorbonda sotsiologiya fakulteti ochildi. Bu fakultet ko'p mamlakatlar uchun sotsiologik fikrlar tarqatuvchi o'ziga xos Markaz rolini o'ynadi.

AQShda XX asr o'rtalarida strukturali-funksional tahlil maktabi keng tarqaldi. Mazkur maktabning tabiiy-ilmiy metodologiyasiga tayanib, sotsial sistemada muvozanat va «tartib»ni ta'minlashga alohida e'tiborini qaratdi. Bu maktabni asoschisi Tolkott Parsons (1902 – 1979)dir. Uning ijtimoiy ta'limoti markazida bosh g'oya – «sotsial tartib» yotadi va bunda konflikt ustidan kelishuv (konsens) g'oyasi hukmronlik qiladi. Uning konseptual tizimida sotsial sistemalarning o'zaro munosabati va unda shaxsiy tomonlar va cheklangan madaniyat ta'limot sotsiologiyadagi ko'pgina yo'nalishlarni tarixga zidlikda (antiistorizm) aybladi.

Amerika sotsiologiyasida simvolik interaktsionizm ta'sirchan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Djordj Gerbert Mid bu yo'nalishning asoschisidir (1963–1931). U ilgarigi interaktsionizmdan farqli o'laroq, odamlar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat to'ppa-to'g'ri, balki bevosita, ya'ni simvollar yordamida ham amalga oshadi. O'zaro munosabatlarning bevosita qurollari bo'lib, ular orasida ma'naviy ustuvorlik tizimini namoyish qiluvchilardan leksika, shuningdek, abadiy simvollar bo'lgan: avtomobil markasi, sigareta markasi, kompyuter tiplari muhim o'rin egallaydi. U birinchi bo'lib sotsial rol va uning shaxs ijtimoiylashuvidagi o'rni hamda odamning ijtimoiy qadriyatlarga kirishida simvolik o'yinlarning ahamiyatini ochib berdi.

D.G.Midning simvolik interaktsionizm ko'pgina amaliy konsepsiyalar uchun, jumladan, guruhiy dinamik nazariya, kichik guruhda liderlik konsepsiyasi, «Ko'zgudagi Men» nazariyalariga metodologik, asos bo'ldi. Simvolik interaktsionizmni ba'zilar «harakatlar nazariyasi», ba'zilar esa «rollar nazariyasi» deb ataydilar.

Fransiyalik yirik sotsiolog va siyosatshunos Raymon Aron (1905 – 1983) sotsiologiyaga ijtimoiy nazariyadan kirib kelib, avval relyativist, so'ngra undan ham voz kechib, odamlar faoliyatining subyektiv tomonlariga katta e'tibor berdi hamda marksizmning dialektik ijtimoiy-tarixiy qonuniyat g'oyasini inkor etdi. U industrial jamiyat va kovergentsiya nazariyasining mualliflaridan biridir. Agar A.Turen, J.R. Dyumazede, J. Furastelar bo'lg'usi jamiyat ko'proq

sotsializmdan oladi, desalar R. Aron kelajakda hammasini kapitalizm yutadi, deb ta'kidladi. Bu qarash Zbignev Bjezinskiyda ham ustuvor qarashdir. Kapitalizm sotsializm dunyosini yutib yuboradi, degan qarash sotsiologiyada keng tarqalgan edi.

Sotsial almashuv va bixevioristik sotsiologik nazariyada (Berres Frederik Skinner) (1910), Petr Blau (1918) strukturali funksionalizmga qarama-qarshi ravishda ustunlikni tizimga emas, odamga qaratdi. Xomans «Odamga qaytish» shiori bilan psixologizm pozitsiyasida strukturali funksionalizmni tanqid qildi. Agar strukturali funksionalizm jamiyat faoliyatini normativ tomonlarini mutloqlashtirishsa, bixevorizmning psixologik tomoni ijtimoiydan ustunligini qayd etadi.

Blauning sotsial almashuv nazariyasida odamlarning o'zaro munosabatida rag'batlantirishning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Sotsial munosabatlar jarayonida odamlar qo'llab-quvvatlash, hurmat, maqom(mavqe)ga erishadilar. Bunga esa xilma-xil munosabatlar, jumladan, hokimiyatga erishish vositalaridan foydalanish ham kiradi.

Sotsiologiya rivojlanishida nemis sotsiologi Karl Manngeym (1893 – 1947) ham katta hissa qo'shdi. Uning asosiy e'tibori sotsial bilimlarga qaratildi. Olimning asarlarida tafakkur rivojlanishi bilan jamiyatning o'zaro bog'liqligi masalasi katta o'rin egallaydi. «Tuzilish», «o'zaro aloqa» tushunchalari uning asarlarida muhim ahamyatga ega. Tafakkur – bu faoliyat bo'lib, sotsial hayot va uni tashkil etuvchi struktura tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Barcha g'oyalar, hatto «haqiqat» g'oyalari sotsial yoki tarixiy vaziyat ta'sirida vujudga keladi va rivojlanadi. Har bir mutafakkir ma'lum guruh vakili bo'lib, muayyan mavqe, hatto aniq mavqega ega va ma'lum vazifani bajaradi. Xuddi ana shu uning intellektual salohiyatini belgilaydi. Odamlar voqealarga bo'lgan munosabatda abstrakt emas, birgalikda yoki bir-biriga qarama-qarshi yo'lda turib harakat qiladilar.

G'oyalarning ildizi turli tarixiy vaqtlarda va sotsial strukturaga borib taqaladi. Shuning uchun ham, tafakkur istiqboli xarakterga ega bo'lib, shubhasiz, kuzatuvchi pozitsiyasiga ham bog'liqdir. Ikki odam rasman bir xil mantiqiy qoidaga asoslanib ish ko'rsa ham bir voqeani turlicha baholaydilar. Bu tabiiy hol, albatta. Uning ildizi odamning tafakkur darajasiga borib taqaladi.

Manngeym tafakkur mafkuraviy xarakterga ham egadir, deydi. Birovni bir guruhning tafakkur tizimi barcha haqiqatni qamrab ololmaydi. Balki uning bir qisminigina aks ettirishi mumkin. To'la haqiqatni faqat mustaqil ziyolidan topish mumkin; biron bir pozitsiyaga bog'lanmagan o'zi xohlagan pozitsiyada turish imkoniyatiga ega bo'lsagina undan to'la haqiqatni bilib olish mumkin. Xuddi shu fazilati tufayli ziyoli turli xil mafkuralarni yaxshi bilgani holda, to'la haqiqatni aytishi yoki o'z pozitsiyasini ochiq bildirishi mumkin. «Ijtimoiy o'zaro munosabatlarning tafakkurga» (empirik) va «bu munosabatlarning voqeilikka ta'siri» (nazariy) tomonlari haqida ham Manngeym qimmatli fikrlarni bildirgan.

Sotsiologik bilimlar ahamiyati bilan Frankfurt maktabi vakillari ham keng shug'ullandi (Erix Fromm, 1900 – 1980). Bu yo'nalish «gumanistik» deb ham ataladi. Dunyo sotsial, dunyo o'zgarishda, chunki odam dunyoni bilib boradi, bilish orqali esa dunyoni o'zgartiradi, deydi. Aks holda, anglangan ijtimoiy qonuniyat, qat'iy ma'noda, qonuniyat bo'lmay qoladi. Bilish aslida o'zgartirilishiga, unga yangi komponentlarni qo'shishiga, uni boshqacha sifatda bo'lishiga qaratilgandi. Bilish inson erkinligini yanada kengaytiradi. Odam faoliyati bilan bog'liq sharoitlarni o'zgarishi unga o'z imkoniyatlarini ishga solishga yordamlashadi.

Odam sotsial dunyo ijodkori bo'la turib, ba'zan o'zi tomonidan yaratilgan hodisalarni bilishi mumkin va hokazo.

Sotsiologiya sotsial reallikni bilishga moslashgan konseptual apparatga ham egadir. Sotsiologiya odamlar haqida odamlarga qaratilgan fan sifatida gumanizm ideallariga asoslanadi. Shunday qilib, E. Fromm sotsiologiyaga odamlarni yomon xislatlardan xalos qiluvchi maxsus fan mavqei maqomini berishga harakat qildi.

Jahon va Amerika sotsiologiyasi rivojlanishiga ulkan hissa qo'shganlardan biri Pitirim Sorokin(1889 – 1968)dir. U integral sotsiologiyasi asoschisidir. Sorokin ta'limotining Amerika davri quyidagi yo'nalish va konsepsiyalar bilan xarakteralanadi: Ekstremal vaziyat (urush, ocharchilik, inqilob), sotsial stratifikatsiya, sotsial mobillik, sotsial tizim, sotsial o'zgarish va h.k. Uning to'rt tomlik «Социальные и культурные изменения» monografiyasi sotsiologiya tarixida katta o'rin egallaydi. Unda sotsiologiyaning ko'pgina nazariy

va amaliy masala va muammolarini yoritib berdi. Petrograddagi hamda Garvard universitetidagi sotsiologiya fakultetlarini tashkil topishi uning nomi bilan bog'liqdir. Amerikada uning nomini abadiylashtiruvchi xalqaro mukofot tashkil etilgan. Bu mukofot har-yili – uning vafoti munosabati bilan ijtimoiy fanlardagi yutuqlarga beriladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. XIX asr ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropada sotsiologiya rivojlanishi va uning ko'zga ko'ringan vakillari kimlar edi?
2. XX asr boshida G'arbiy Yevropa va Amerika sotsiologiyasi rivojlanishining o'ziga xos xususiyati.
3. XX asr ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropa va Amerika sotsiologiyasining yirik vakillari hamda ularning ta'limotlari.
4. Nima uchun XIX asr ikkinchi yarmida sotsiologiya oldingi davrlarga nisbatan kengroq rivojlandi?
5. Bu davrni sotsiologiya uchun chinakam ulg'ayish va rivojlanish davri deb hisoblash mumkinmi?
6. XIX asr oxiri XX asr birinchi choragida G'arbiy Yevropada sotsiologiya rivojlanishining xususiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Xuddi shu davrda Amerika sotsiologiyasi rivojlanishining xususiyati?
8. Sotsiologiya rivojlanishining o'ziga xos xususiyati deganda, nimani tushunish mumkin?
9. XX asr ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropada ko'zga ko'ringan sotsiologlar ta'limotini o'rganishning ahamiyati nimada?
10. XX asr Amerikalik sotsiologlardan kimlarni bilasiz? Ular ta'limotining qaysi tomonlari sizga ko'proq yoqadi?
11. Nima uchun «nazariya», «ta'limot», «paradigma», tushunchalari mavjud? Bu tushunchalarga xos o'xshashlik va farqlar nimada?

OGYUST KONT

Ogyust Kont sotsiologiyani fan sifatida oyoqqa turishi va rivojlanishida katta xizmat qilgan jamiyatshunos olimdir. Uni bejiz sotsiologiyaning «ota»si deb hisoblashmaydi. Har qanday bilimning yo'nalishi jamiyatning ehtiyoji tufayli sodir bo'ladi. Ana shu ehtiyojni o'z vaqtida ilg'ash va unga muvofiq harakat qilishi uchun albatta, insondan katta iste'dod va mahorat talab etiladi. Iste'dod sohibi, donishmand Ogyust Kont tufayli sotsiologiya jamiyat haqidagi mustaqil fan sifatida rivojlandi.

Fransuz mutafakkiri Ogyust Kont 1798-yil 19-yanvarda Montele shahrida chinovnik oilasida tug'ildi. Uning ota-onasi monarx va katolik cherkovining ko'zga ko'ringan vakillaridan edi. Bo'lajakda sotsiolog olim O. Kont ijtimoiy hodisa va jarayonlarini mohiyatiga yetishga juda qiziqish bilan qaradi. Bu esa uni oiladagi diniy an'anadan voz kechishga va ijtimoiy hayotda yangi mustaqil dunyoviy qarashga asoslangan yo'l tanlashga olib keldi.

U buyuk Fransuz inqilobining ideallariga ergashdi.

XIX asr birinchi yarmi Fransiya xalqi tarixi uchun haddan tashqari muhim davr edi. Kapitalizm tez rivojlanishi va yangi sinfiy tuzilmaning qaror topishi siyosiy hokimiyatni tez-tez almashib turishi bilan xarakterlanar edi: Direktoriya, Konsullik, Imperiya, Restovratsiya, 1830-yilgi revolutsiya, Ikkinchi Respublika, Ikkinchi monarxiya kabi siyosiy voqealar o'z davrida Fransiya ijtimoiy-siyosiy hayotini larzaga solgan edi.

O'sha davrlarda bir tomondan moddiy boylikni ma'lum guruh odamlar qo'lida to'planishi va ikkinchi tomondan aholining katta qismi kambag'allikda qolishi norozilik kayfiyati va xarakterini kuchaytirgan edi.

Tabiatshunoslik fanlarini rivojlanishi hamda texnik taraqqiyot an'anaviy mafkura tizimini inqirozga olib keldi. Bu voqealar O.Kont dunyoqarashiga katta ta'sir etdi. Ayniqsa, Monteske va Kondores, qarashlari unga katta ta'sir o'tkazdi. Birinchisi, siyosiy-huquqiy hodisalarni tabiiy qonunlarga bog'liqligi haqidagi qarashlarni ilgari surgan bo'lsa, ikkinchisi, jamiyatni progressiv rivojlanish qonuni va tarix konsepsiyasi sohasida jiddiy fikrlarni bayon etgan edi. Bu qarashlar o'z davrida ijtimoiy g'oyalar tarixida, jumladan, evolutsion qarashlarda muhim o'rin egallagan edi.

O. Kont 1814-yil ona shahridagi internat litseyini tugatib Parijdagi politexnika maktabiga o'qishga kiradi. Bu erda liberal va respublika ruhidagi g'oyalar hukmronlik qilardi. Kont tahsil chog'ida matematikani va boshqa tabiiy fanlarni sevib o'qidi, shu bilan birgalikda falsafa, iqtisod, sotsial muammolarni ham o'rganadi. Litseyda ham, Politexnika maktabida ham, u o'zining harakatchanligi bilan tengqurlari orasida ajralib turardi. Go'yoki u o'z harakatlari bilan haqiqatni, ya'ni: «Kim yosh va keksa bo'lishini xohlasa, yosh va keksa bo'lishi shart» – degan fransuz maqolini isbotlashga urinardi.

Yosh Ogyust o'zining fikrlarida mustaqil bo'lib, ichki his-tuyg'uga berilmay, faqat intellektual g'ururlarni hurmat qilardi. Yoshligidan kurashchanlikni o'ziga singdirdi. Mana shunday kofliktlarda (o'quvchilar o'qituvchiga qarshi chiqishgan) Kont faol rol o'ynagan. 1816-yil Politexnika maktabini vaqtinchalik yopilishida uning hissasi bor edi. Politsiya uni Monpele shahriga jo'natdi. Parijga qaytib kelgach, u mustaqil hayotni boshdan kechira boshladi. Matematikadan xususiy darslar bera boshlaydi.

1817-yil O.Kont Sen-Simonning kotibi bo'lib ishlaydi. Yosh o'quvchi va mashhur o'qituvchi o'rtasida do'stona munosabat bor edi. O.Kont Sen-Simon maktabining qatnashchilaridan biridir. U Sen-Simonga nisbatan katta hurmatda bo'ladi va ko'p ishlari bilan hamkorlik qiladi. Lekin ularning o'zaro munosabati 1824-yil tugaydi. O.Kont boshqa sohaga ishga o'tadi. 1826-yil Kont pullik falsafa ma'ruzalarida qatnashadi. 1830 – 1842-yillarda o'zining mashhur 6 tomlik «Pozitiv falsafa ruhi» kitobini chop etadi. Unda fanlar klassifikatsiyasi, pozitiv falsafa va sotsiologiya prinsiplarini ishlab chiqdi. XIX asr 40-yillarining birinchi yarmida u amaliy harakat tashkilotlarida, jumladan, pozitivizm jihatidan ommaga tushuntirish ishlarida faol qatnashadi. 1842-yil u inson muammosi nima ekanini o'rganadi va 1848-yil «Pozitiv jamiyat» nazariyasini ishlab chiqadi. Umrining oxirgi yillarida yangi «diniy» ta'limot – pozitivizm, ya'ni sotsial fanlar nazariyasi asosida insoniyatni axloqiy birlashishi, jamiyatni qayta qurishni asos tutuvchi g'oya bilan shug'ullandi. «Haqiqiy», «Ilmiy» din mavjud bo'lishini pozitiv metod ekanligini yaratmoqchi bo'lgan nazariyasinini «sotsial fan» va «yangi din»ni bir-biriga o'xshashligini isbotladi. Haqiqiy «ilmiy» dinni mavjud bo'lishini xuddi axloq haqidagi fan singari ijtimoiy integratsiyada diniy funksiyani bajaradi, deb ta'kidladi.

Fanni metafizika va teologiyadan ajratish Kont pozitiv metodining asosiy g'oyasi edi. U *pozitiv* so'ziga bir necha ma'noda qaradi. Eng muhimi bo'lmag'ur xomxayollik, ishonchsizlik, noaniqlik kabi salbiy hodisalarga tanqidiy fikrini bayon etdi.

Kont fanning vazifasi tabiat qonunlarini ochish, uni hodisalar o'rtasidagi doimiy takrorlanuvchi aloqa, munosabat sifatida tushundi. U aniq, ma'lum bilimlarga erishishni kelajakni oldindan ko'ra olishning asosi, deb bildi. Bir so'z bilan aytganda, kelajakni ko'rish fanga asoslangan – bu ko'rishda esa harakat bor – deydi, Kont. Jumladan, falsafani eski an'anaviy ma'nodagi so'z sifatida tugatishni ilgari surdi. Uning fikricha filosofiya o'zining fandan farq qiluvchi predmetiga ham, metodiga ham ega emas edi. Pozitiv falsafani fanlarni sistematizatsiya qiluvchi, ya'ni «fandagi ilmiylik»dir, deb hisoblaydi. Uning nazarida pozitiv falsafani ta'riflash uchun predmet, metod, qonunlar, o'xshashlik va farq qiluvchi tomonlarni qamrab oluvchi tizim sifatida tushuntirishi lozim edi.

O. Kont klassifikatsiyada ko'proq ularning obyektiv belgilariga tayanadi. U eng avvalo, fanlarni abstrakt va konkretga ajratib qaradi. *Birinchisi,* ma'lum turkum hodisalar qonunini, *ikkinchisi* esa, bu qonunlarni xususiy sohalarga qo'llashni o'rganadi. Masalan, biologiya hayot haqidagi umumiy nazariy fan, meditsina esa aniq fan bo'lib, biologiyaning barcha qonunlarini qo'llaydi, xolos, dedi.

Kont olti abstrakt(mavhum)-nazariy fanlarni ajratdi: matematika, astronomiya, fizika, ximiya, biologiya va sotsiologiya; tabiiy hodisalarning bosh turkumiga – astronomiya, fizika, ximiya va biologiya fanlarini kiritib, ularni ijtimoiy hodisalar kategoriyasi bilan to'ldirishga, bu bilan o'z klassifikatsiyasiga eng umumiy, zaruriy tus berishga harakat qildi. Fanning «ensiklopedik zinapoyasi»ni Kont hodisalarning oddiydan murakkablikka tomon o'sib borish tamoyili bo'yicha yaratdi. Sotsial hodisalar o'zining juda murakkabligi bilan farq qilishini, ayni paytda uning boshqa hammasiga bog'liq ekanligini, bu esa o'z navbatida sotsiologiyani vujudga kelishiga olib kelganligini ta'kidlab, tabiiy hodisalar o'ziga xos maxsus tabiiy qonunlarga tobe bo'lishini isbotlaydi.

O. Kont jamiyat haqidagi pozitiv fanni dastlab sotsial fizika, keyinroq esa sotsiologiya deb atadi. *Sotsiologiyaga* jamiyat hodisalarini fundamental qonunlarini o'rganuvchi hamda «sotsial fizika»dan farqli o'laroq nazariy fan ekanini tadqiq etdi. Sotsiologiyani pozitiv

fanga aylantirish bilan pozitiv falsafa tizimini yaratishni nihoyasiga etkazdi va buni inson aqli rivojlanishi hamda jamiyat taraqqiyotining *pozitiv bosqichi* deb qaradi. Bu muvaffaqiyatni Kont fanning o'tmish sxolastikasi ustidan g'alabasi, haqiqiy pozitiv revolutsiya deya baholadi.

Uning bunday qarashlarida ijobiy tomonlar bilan birgalikda cheklanganlik ham mavjud edi. Shunga qaramasdan bu qarashlar o'z davrida ijtimoiy fanlar rivojlanishida muayyan darajada ijtimoiy rol o'ynadi.

O.Kontning pozitiv metodi *stritualizmga* (lot – jon, ruh. Dunyoning asosini ruh, ya'ni Xudo boshlang'ich tashkil etadi) qarshi kurashda ma'lum rol o'ynadi. Fanning ijtimoiy hayotdagi yuqori darajadagi qadr-qimmatini ta'kidlash bilan birga, uning avtonomligini hamda rasmiy din va metafizik vaysaqillikka qarama-qarshi bo'lishini ta'kidladi.

Kont metodologiyasi turli tendentsiyalarni o'zida birlashtirgan aqidaga asoslanardi. Uning ta'limoti o'z vaqtida, ma'lum darajada, ijobiy rol o'ynagan bo'lsa, keyinchalik fan taraqqiyotiga to'siq bo'la boshladi. Chunki, u tarixiy cheklangan ijtimoiy hayotni noto'g'ri talqin qilgan edi. Fanning qanotlarini kesib qo'ygan edi (A. Kressan).

Sotsiologiya predmeti va vazifalari haqida fikrlar ekan, Kont uni jamiyat va inson haqidagi pozitiv fan sifatida baholab, teologiya va metafizikaga qarama-qarshi qo'ydi. Bir tomondan teologlarning odamni hayvondan keskin farq qilishi, uni Xudo tomonidan yaratilganligini, boshqa tomondan esa, o'zigacha bo'lgan filosof – «metafiziklar»ni «sotsial – utopiya» yaratganlikda aybladi. Ularning jamiyat, odam, individning erkin aqli bilan yaratilgan, degan tushunchasiga e'tiroz bildirdi.

Kont sotsiologiyani inson aql-zakovati va psixikasi qanday qilib ijtimoiy hayot ta'siri ostida takomillashib borishi mumkinligini tushuntiruvchi yagona fandir, deb bildi. Uning bu fikri butun bir konsepsiyaga aylanadi: unga ko'ra, individ abstrakt tushuncha bo'lib, jamiyat esa tabiiy qonunlarga buysunuvchi voqelikdir. Ijtimoiy hodisalarni biologiyadan, ya'ni tabiiy hodisalardan doimiy o'zgaruvchanligi, qayta o'zgarishi hamda *vaqtda* rivojlanishi bilan farq qiladi, deb uqtiradi. Uning mohiyati – tarixiylikda, deb bildi. Shuning uchun ham, Kont jamiyatga tarixiy nuqtayi nazardan qaragan Kondorsga hurmat bilan qaraydi.

O. Kont ijtimoiy hodisalar tabiiy qonuniyat xarakteriga ega, deb ta'kidlab, *valyuntarizmning* «ulug' odamlar»ini rolini haddan tashqari oshirib yuborish aqidasiga qarshi chiqdi. Shu bilan birga *siyosiy rejimni* sivilizatsiya rivojlanishi darajasiga muvofiq bo'lishini uqtirdi. Iqtisodiy omilni inkor qilmagan holda, sivilizatsiyani eng avvalo, ma'naviy-psixologik birgalikda, g'oyalar birligida deb hisoblaydi. G'oya dunyoni boshqaradi va o'zgartiradi hamda barcha sotsial mexanizm pirovard oqibatda, *fikrlarga* tayanadi, shuningdek, ilmiy fikr va ilmiy ruhni ijtimoiy jarayonning bosh mazmuni ekanligini o'zicha tahlil etadi.

O. Kont jamiyatni o'rganishda muayyan metodlarni ilgari surdi. U oddiy mushohada va empirizmga berilishini tanqid qilib, sotsiologiyada: a) kuzatish; shuningdek, b) eksperimental; d) taqqoslash; e) tarixiy usullarni qo'llashni tavsiya etdi. Matematikani fanlar mantig'i deyish bilan birga matematik metodni haddan tashqari, ko'p ishlatishga qarshi fikr bildirdi. Uni boshqa ko'p tadqiqot usuli, vositalaridan biri deb hisobladi.

O. Kont, birinchidan, kuzatishni sotsiologiyada asosiy tadqiqot metodi, ekanligini isbotladi. Sotsial faktlarni (dalil) kuzatish sotsiologiyani fan sifatidagi darajasini oshirishni sotsiolog tayanuvchi materialga obyektivlik xarakterini berishini aytdi.

Ikkinchidan, empirik materialni to'plashda nazariyaga tayanish, nazariya rahnamoligi ostida bo'lishi, aks holda sotsiologlar cheklangan va tasodifiy faktlardan boshqa hech narsaga erisha olmaydi, dedi. Har qanday sotsial kuzatish, statistik yoki dinamik jarayonlarda doimo fundamental nazariya qo'llanilmog'i zarur.

Pozitiv nazariyasiz sotsiolog og'ir ahvolga tushishi mumkin hamda kuzatish o'tkazish uchun nazariya, nazariya yaratish uchun kuzatuv zarur, deb ta'kidlaydi.

Uchinchidan, Kont eksperiment metodika, ya'ni tadqiqot uchun maxsus sharoit yaratish va unda hodisalardagi o'zgarishlarni kuzatish zarurligi metodikasiga ham katta e'tibor bilan qaradi.

To'rtinchidan, pozitiv fan metodlaridan biri taqqoslash usuli bo'lib, uning yordamida Yer sharining turli burchaklarida yashovchi xalqlar hayotini solishtirish orqali – jamiyat mavjudligi va rivojlanishining umumiy qonunlarini aniqlash. U jamiyat bilan hayvonot dunyosi o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni o'rganishni ham foydali tomonlarini alohida ko'rsatdi. Bir jamiyatda turli sinflarning

ijtimoiy ahvolini solishtirish yoki taqqoslashning ahamiyati haqida ham qimmatli fikrlarni bayon etdi.

Beshinchidan, Kont tarixiy metod «Insoniyatni turli izchil, muntazam holatini tarixiy taqqoslash» – sotsiologiyani o'ziga xos metodi sifatida, ayniqsa, uni sotsial hodisalar tabiatiga muvofiq ekanligi bilan bog'liq metod sifatida alohida e'tibor berdi. Faqat ijtimoiy hodisalarni butun jarayonni taqqoslash bilan «olim» fizik, intelektual, axloqiy yoki siyosiy belgi, alomatlarini oshib borishi yoki unga teskari yo'nalishning susayishi hamda unga muvofiq oxirgi natijani oldindan aytish ilmiy imkoniyatini beradi. Ogyust Kont tarixiy metodni butundan qismga o'tishda katta rol o'ynashligini ko'rsatadi. Umuman, tarixiy nuqtayi nazarni hukmron metod bo'lishi pozitivizmning muhim belgisi va ayni bir paytda uning asosiy natijasi ekanligini aniqladi.

O. Kont sotsiologiyani ikki katta qismga ajratdi: sotsial statika va sotsial dinamikaga. Birinchisi, ijtimoiy tizimning mavjudligi va uning amal qilish qonunlarini o'rganadi. Sotsial statika – bu ijtimoiy tartiblashgan, uyushgan garmoniya (uyg'unlik) nazariyasidir. U jamiyatni organik butunligi, uning barcha qismlari o'zaro bog'langanligi va faqat ana shu butunlikda tushunish mumkinligini aytgan edi.

Bu ta'limot jamiyatni individlar o'rtasidagi shartnoma natijasi deb tushunuvchi individualistik nazariyaga qarshi qaratilgan. Jamiyat strukturasini belgilovchi, uning tartibi va uyg'unligini ta'minlovchi tamoyillar sotsial siyosat bilan chambarchas bog'langan, deb ta'kidlaydi. U asosiy ijtimoiy institutlar – oila, din, davlatga bajaryotgan vazifasi, ularning ijtimoiy integratsiyasidagi o'ynayotgan roli nuqtayi nazaridan qaraydi.

Hozirgi zamon har bir oilaga jamiyat kelajagini yaratuvchi yangi oilani, uning haqiqiy hayotini uzaytiruvchi omil sifatida qaraydi.

Oila – o'tmish avlodlar an'anasi, tajribasini saqlovchi va uni kelajak avlodlarga uzatuvchi hamda beruvchi sifatida yuksak qadrlanadi. Individ avvalo, oilada ijtimoiy qadriyatlarni o'zlashtiradi, ya'ni sotsiallanadi, insoniyatga xizmat qiladigan zarur fazilat, sifatlarni oilada o'zlashtiradi, tabiiy individualizmni yengib «boshqalar uchun yashash»ga o'rganadi. Avlodlar o'rtasidagi yaxshi munosabatlargina ijtimoiy barqaror jamiyatda muvozanatni saqlaydi, an'ana va novatorlik o'rtasidagi uyg'unlikka yordam beradi, deb uni qo'llab quvvatlaydi.

Mehnat taqsimoti va uning oqilona usul, yo'llari hamda bu jarayonda kasblarning roli va takomillashuvi haqida ham qimmatli fikrlarni bayon etdi. Davlat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabat, birining ijtimoiy birdamlik, ikkinchisining esa muqaddas burchi qonun-qoidalarga rioya qilishi, itoatkorlik masalalariga ham keng to'xtaladi. Davlatning iqtisodiy, siyosiy va axloqiy funksiyasi hamda hokimiyatni taqsimlanishi prinsiplariga ham to'xtaladi. O'z davrida, ya'ni o'rta asrda davlat va cherkov hokimiyati, uning katta roli, fuqorolik urf-odatlari, eski va an'anaviy urf-odatlarning almashinishi haqidagi masalalarga ham to'xtaladi.

«Ijtimoiy progressning pozitiv nazariyasi»ni Kont sotsial dinamika deb atadi. Progressni – yuqoriga intilgan taraqqiyot va ijtimoiy turini axloqiy yuksalish deb bildi. Ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir qiluvchi turli olimlarni Kont birlamchi va ikkilamchiga bo'ldi. Birinchisi, ma'naviy, aqliy rivojlanishi bo'lib, hal qiluvchi omildir, ikkinchisi, ob-havo, irq, odam umrining o'rtacha cho'zilishi, aholi o'sishi bo'lib, bu mehnat taqsimotini belgilaydi hamda odamning aqliy va axloqiy fazilatlarini ko'proq rivojlantirishga da'vat etadi.

Ikkinchi omillar jamiyat rivojlantirishini tezlashtirishi yoki susaytirish mumkin. U taraqqiyotni moddiy (hayotni tashqi sharoitni yaxshilash), tabiiy, (inson tabiatini takomillashtirish), intelektual (aqlni rivojlanishi, diniy va metafizik dunyoqarashdan pozitivizmga o'tish) va axloqiy (jamoachilik va axloqiy tuyg'uni rivojlanishi) keyingi ikki omil – aqliy va axloqiyga alohida ahamiyat berdi. Uning fikricha, sotsial organizm qarashlar, «fikrlar» majmuasiga asoslanadi va ijtimoiy hayotning barcha qolgan tomonlariga ta'sir etadi. Shunday ekan, sotsial dinamika asosiga insoniyatning ma'naviy, ruhiy tarixi qo'yilishi kerak.

Aql – zakovat rivojlanishning muhim ko'rsatkichi – eng umumiy abstrakt tushunchalardir. Jamiyat rivojlanish darajasi unga muvofiq falsafiy tizim bilan baholanishi mumkin. Inson aqlu zakovati rivojlanishning har bir etapi uch bosh (muhim) qonuniy bosqichni bosib o'tadi: teologik, metafizik va pozitiv bo'lib, bular sanoat shakllari, xo'jalik siyosat tuzumini belgilaydi.

Uch bosqichli qonun Kont sotsial dinamikasining poydevor toshidir, ayni bir vaqtda tarixiy va mantiqiy qonundir: insoniyat aqlining uch bosqichli taraqqiyoti shunga o'xshash uch bosqichli tarixiy rivojlanishga to'g'ri keladi. Qadimgi va ilk o'rta asrni o'z ichiga oluvchi teologik yoki tabiiy bosqichni Kont uch davrga: fetishizm,

politeizm va monoteizmga bo'ldi. Ularni har birining tavsifini, xarakteristikasini berdi.

Metafizik bosqich 1300 – 1800-yillarni o'z ichiga oluvchi o'tish davri bo'lib, unga eski dinlarning yemirilishi – ijtimoiy tartibning poydevori edi. Reformatsiya, ma'rifatchilar falsafasi va revolutsiya («metafizik va huquqchilarning siyosiy triumfi») bu davrning muhim voqealaridir. Salbiy tanqidiy falsafa barcha avtoritetlarni, hukmron sinf hokimiyatini dinning tushib ketishiga olib keldi. Shaxsni va ezilgan xalqlarni ozod etgan revolutsiya aqlli odamlarni birlashtiruvchi doktrina yarata olmadi. Fransuz revolutsionerlari tarix qonuniyatlariga qarshi borib noto'g'ri ish qildilar. Jamiyat kasallandi. Bu davrda tug'ilgan «metafizik ruh» falsafiy shubha, axloqiy buzilish va siyosiy tartibsizlikka imkon berdi. Anarxiya bilan to'lgan hozirgi jamiyat yangi mafkuraga ehtiyoj sezdi, qaysiki bu soxta, to'qima doktrina o'rniga kelishi va u birlashtiruvchi ijtimoiy rol o'ynashi lozim.

Jamiyat o'zining oxirgi pozitiv erasiga asta-sekin o'tishi ilm-fanning ijtimoiy ahamiyati o'sayotganligidan, umuman, pozitivizm nazariyasini yaratilayotganligidan darak beradi. Sanoat tuzumi teologiya davriga xos harbiy tizim o'rniga keldi. Bu davrning xarakterli belgilari altruizmning egoizm ustidan g'alabasi, ijtimoiy tuyg'ularni o'sishi, moddiy madaniyatni jadallik bilan rivojlanishi, bular barchasi birgalikda yaxshi, farovon hayotni adolat va tinchlikni ta'minlaydi. Kontning bu qarashlari ham ma'lum darajada cheklagan edi. Ammo bu qarashlar o'z davrida ijobiy rol o'ynadi.

Kont ijodini uch bosqichda ko'rish mumkin. *Birinchi bosqich* – (1819-1828) Sen-Simon bilan birga hamkorlik davridagi ijodi. U bu paytda uncha katta bo'lmagan olti dastur «opuskulov»dir. U buni «Pozitiv sistemalar siyosatda» (1854) asariga kiritgan. «Opuskulov»da u intelektual va sotsial islohot prinsiplari yo'lini ko'rsatdi. Bu g'oyada Sen-Simonning Kontga bergan yo'nalishi va uning yangi jamiyatdagi g'oyalari; insoniyatning ikki katta asrdagi harakatlari, ya'ni tanqidiy va organik; «pozitiv siyosat» prinsiplari hamda mashhur «uch bosqich qonunlari» aks etgandir.

Ikkinchi bosqich (1830 – 1842) – bu bosqichda u o'zining 6 tomlik «Pozitiv falsafa ruhi» kitobida yangi ijtimoiy fanning paydo bo'lishidan darak berdi. Shu vaqtdan boshlab sotsiologiyaning obyekti va predmetiga ta'rif berish boshlandi.

Uchinchi, hal qilish bosqichi, Kont ijodi XIX asr 40-yillarning II yarmidan boshlanadi. U bu paytda 4 tomlik «Pozitiv siyosat tizimi» yoki Sotsiologik traktat bo'lib, bu insoniyat dinining ta'sis bo'lganligidan darak beradi. «Pozitiv katexizis» (1852) va «Subyektiv sintez» (1856) – bu kitoblarida Kont subyektiv nuqtayi nazardan «subyektiv» metod bilan bog'liq sotsiologiyaning o'ziga xos fan sifatida boshqa ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rnini aniqlashtirishga harakat qiladi. Birinchi navbatda, o'zining asarlarida, insonning emotsional tomoni va sotsial hayoti o'rin egalladi. Bosh obyekt bo'lib, ijtimoiy institutlar, emotsional ehtiyojlari: axloq va din egalladi. Kont bu davrlarda «Pozitiv falsafa», «Pozitiv ruh», «Ratsional pozitiv», umuman, «pozitivizm»ni doktrina sifatida rivojlantirdi. Kont ruhiy yoki diniy bo'lmasa siyosiy va sotsial harakatlar bilan cheklanmay sotsiologiyaning fan sifatidagi rolini oshirish uchun ko'p ish qildi. Jumladan, Kont shaxslar o'rtasidagi munosabatlar tizimi muammosini o'rganish kerakligini o'rtaga qo'ydi va sotsiologiyani pozitiv falsafiy ta'limot sifatida bayon etdi. *Pozitivzm* ilmiy falsafaning, sotsiologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi, aynan Kont ta'limotida odamlar o'rtasidagi munosabatlar ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganish muhim ekanligi isbotlana boshlandi. O. Kont jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi nafaqat ishlab chiqarish vositalari va qurollarini, balki uni amalga oshiruvchi shaxslarning o'zaro munosabatlariga bog'liqligini ko'rsatib berdi.

O.Kontning yirik asarlaridan biri «Pozitiv falsafa ruhi» deb nomlanadi. «Ijobiy falsafa tizimida men insonning to'liq aqliy qobiliyatini bosqichma-bosqich tarzda qo'ydim va natijada bizning astronomik tadqiqotlarimizda qonun yaratishga harakat qildim» – deydi Kont. Uning asosiy ta'limoti bo'lgan pozitivizm – nazariy bilimlar, diniy, metafizik va ilmiy bilimlarning umumiy mazmunini tashkil qiladi. Bu davr o'zining boshlang'ich nuqtasida barcha fikr-mulohazalarni o'zida shak-shubhasiz jamlagandek tuyulardi, go'yo predmet tadqiqotlarini mukammal tarzda, muammoli savollarga javob berishini afzal ko'rardi. Bizning zamonamizda ziddiyatlar kuchi bir qarashda tushunarsiz tuyulishi mumkin edi, lekin o'sha vaqtda (ya'ni diniy davrda) inson aqli oddiy ilmiy muammolarni hal etmasdi.

Jamiyat tushunchasi va jamiyat to'g'risidagi fikrlar O.Kont sotsiologik nazariyasida ko'proq aks ettirilgan. O. Kont, D. Yum, A. Smit, Russo, Sen-Simonlarning jamiyat to'g'risidagi nazariyalarini rivojlantirdi.

Kont sotsiologiyasida psixologiya, siyosiy, iqtisod, etika, nuqtayi nazar, falsafa tarixi kabi fanlarning tushuncha va metodologiyasi sintezlashtiriladi. Jamiyatdan tortib uning ajralmas qismlari – oila, xalq, millat insoniyatning barcha axloqiy his-tuyg'ularini qamrab olgan. Jamiyatga o'zaro munosabatda bo'lgan «zarrachalar», «elementlar», «atomlar»ning avtomatik ravishda harakatda bo'lgan mexanizm va individ xatti-harakati hamda intilishlarini O.Kont abstraktsiya, deb hisoblaydi. Olim o'z tadqiqotlarida ijtimoiylikning ajralmas unsuri sifatida insonni emas, oilani oladi va uni jamiyatning ijtimoiy organizm sifatidagi birligini tashkil etishini yozadi. Shu o'rinda kishilarning o'zaro aloqadorligi («assotsiatsiya») emas, balki ularning ajralmas birligi hukmronlik qiladi, shuningdek ijtimoiy organizmni taraqqiyot omili isbotlandi. «Fanning metodi uning nazariyasidan kelib chiqadi, sotsiologiya metodining yana bir alohida xususiyati shundaki, deb yozadi Kont – obyektivlik va subyektivlikning o'zaro harakati maxsus bir xarakterga ega bo'ladi. Sotsiologik metodni diqqat markazida inson va uning tabiiy, ijtimoiy olam bilan bog'liq o'zaro harakatining turli shakllari yotadi. Metodlarni obyektivlik va subyektivlikka bo'lish sotsial jarayonlarni ham obyektiv, ham subyektiv tomonlardan iborat ekanligidan kelib chiqadi.

Metod tashkili shundayki, bu umumbashariy yoki sotsial nuqtayi nazaridan o'rganiladigan obyektdir. «Metodning» obyektivligi bu hissiy-altruistikdir. Bu metod «yurak», unga aql bo'ysunishi kerak. Bunga ilmiy, axloqiy va siyosiy fikrlar altruistik his, oilaga, insoniyatga ta'sir etadi. Uch formula: «o'z yaqinlari uchun yashash; o'z hamfikrlari uchun yashash; hamma uchun yashash»ni anglatadi.

Har qanday obyektni Kont fikricha, ikki nuqtayi nazardan o'rganishi mumkin: statik va dinamik. Bu sotsial sistemaga ham aloqadordir. Shuning uchun, sotsiologiya ikki qismga: sotsial statika va sotsial dinamikaga bo'linadi. Bu ikki qism Kont fikricha, ikki bosh masala «tartib va progress»ni mohiyatini ochib beradi. Sotsial statika uchun yuqori kuch – sotsial tartib, sotsial dinamika uchun esa – progress qonuniyati xosdir. Sotsial statika – bu sotsial anatomiya, sotsial organizmning tuzilishini o'rganadi, sotsial dinamika – sotsial fiziologiya va uning funksiyalashuvini o'rganadi. Ulardan birinchisining obyekti – «tinch holatida»gi jamiyat, ikkinchisining obyekti «harakat holatida»gi jamiyatdir.

Shunday qilib, Kont ijtimoiy rivojlanishni «sotsial dinamika»

nuqtayi nazaridan tushuntirishga harakat qildi. Uningcha, sotsial dinamika insoniyat jamiyati rivojlanishining ketma-ketligi, bosqichma-bosqichligi qonunlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Kontning «Pozitiv falsafa kursi» kitobidagi asosiy ta'limot «uch bosqich qonuni»ga ko'ra, insoniyat o'zining ilgarilanma harakatida uch bosqichni: teologik, metafizik va pozitiv bosqichlarni bosib o'tadi. Bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish evolutsiya tarzida bo'lib, unda jamiyatning rivojlanishi o'z ifodasini topadi.

Kontning sotsiologiya tarixidagi xizmatlari kattadir. Ayniqsa, uning ijobiy bilimlarga tayanish, tarixiy qonuniyatlarni tan olish va ta'kidlash, ijtimoiy institutlar va jamiyat tuzilishini o'rganishga e'tibori, o'z davrida jamiyatshunoslikning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. O. Kont vafotining 100-yilligi (1957) Jahon Tinchlik soveti tomonidan keng nishonlandi. Undagi katta aql, ensiklopedik bilim jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan tan olindi va yuqori baholandi. Uni o'qish va o'rganish hozirgi zamonni o'qish va o'rganish taassurotini beradi. «Olimning asarlari o'z ahamiyati va dolzarbligini hamon saqlamoqda. Uning ko'pgina g'oya va tushunchalari, jumladan, jamiyatga organik butunlik sifatida qarash G'arb sotsiologik fikrlar tarixida mustahkam o'rin oldi» – deb yozadi hozirgi fransuz tadqiqotchilaridan biri.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Ogyust Kont ilmiy ijodining uch bosqichi.
2. O. Kont sotsiologiya va pozitivizm asoschisi.
3. O. Kontning sotsial statika va sotsial dinamika haqidagi qarashlari.
4. O. Kont sotsiologiya ta'limotining hozirgi zamondagi ahamiyati.
5. O. Kont matematika, politexnika sohasida ta'lim olib, qanday qilib sotsiologiyaning asoschisiga aylandi?
6. O. Kont pozitivizmning asoschisi deymiz, «Pozitivizm»ning kontcha tushunchasining asosiy belgilari nimada? Jumladan, «pozitivizm falsafa», «pozitiv jamiyat», «pozitiv siyosat» deganda, nimalarni nazarda tutgan? «Pozitiv falsafa ruhi», «Pozitiv siyosat tizimi» haqidagi asarlaridan misol keltiring.
7. O.Kontning uch bosqichli qonuni – teologiya-metafizika-pozitivizmning mohiyati nimada?
8. O.Kontning fanlar klassifikatsiyasi haqidagi ta'limoti nimaga asoslangan?
9. O.Kont o'z qarashlarida qaysi metodlardan ko'proq foydalangan?

GERBERT SPENSER SOTSIOLOGIYASI

Gerbert Spenser (1820–1903) angliyalik faylasuf, fanning otalaridan biri bo'lib, sotsiologiyaning tili va tushunchalarini yaratishda katta hissa qo'shdi. Klassik sotsiologik evolutsionizm asoschilaridan biri bo'lgan G. Spenser o'qituvchi oilasida tug'ildi. Sog'ligi zaif bo'lganligi tufayli 13 yoshgacha maktabga bora olmadi. Otasi va amakisi yordamida uyida savod chiqardi. U muntazam ma'lumot ola olmadi, faqat mustaqil o'qidi, hayotlik davrida «Angliya Aristoteli» degan yuksak hurmatga sazovor bo'ldi, Spenserizm-evolutsion ta'limoti asosida g'oyaga va bu sohada mustaqil, hatto original fikrlarni ilgari surdi. U rasmiy lavozim yoki akademik mansablarida xizmat qilmagan, balki temir yo'lda injener, qarovchi, kuzatuvchi bo'lib ishlagan, holos. Lekin 10 tomli «Sintetik filosofiya» tizimidan iborat asarini evolutsion nazariya, tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlarga doir original g'oyalarni o'zidan meros qoldirdi. «Основные начало» (1862-yil Borliqning birinchi sababchisi haqida» kitob), «Основание биологии» (1864–1867), «Основание психологии» (1870–1872), «Основание этики» (1879–1893), «Основание социологии» (uch tom 1876–1896) asarlari jahon xalqlari tafakkur tarixidan munosib o'rin oldi. Bundan tashqari «Социология статика» (1850) va «Социология как предмет изучения» (1873) asarlari ham uning shuhratini oshirdi. G. Spenser ilmiy-ijodiy faoliyati bilan shug'ullangan angliyalik tadqiqotchilar, odatda, uning ma'naviy dunyosini shakllantirishda o'sha davr jamiyatida uchta kuch ta'sir qilganligini ta'kidlashadi: radikal diniy dissidentlikning provinsial oqimi, fanga optimistik viktorian e'tiqodi va dunyoda birinchi sanoat jamiyatini tashkil qilishning xususiyatidir. Ma'rifatparvarlarning ideali bo'lgan sanoat revolutsiyasi unga katta ma'naviy kuch berdi. O'zining sotsiologik qarashlarini ana shu material asosiga qurdi. G. Spenserning evolutsion qarashlari Darvinnikidan farq qilar edi. Uning ta'limotida tabiat va jamiyat uyg'unligi o'ziga xos shaklda namoyon bo'ldi. Tabiat, fan, evolutsion qarash va radikal mafkura (laissez faire), sotsiomadaniy hodisalarga yondashishda asosiy manba bo'ldi. Bular hammasi Spenser tafakkuri tarzining asosini tashkil qildi. Spenserning barcha sotsiologik xulosalari darvinizmga bog'liq bo'lmagan, o'zi

tomonidan ishlab chiqilgan maxsus evolutsiya nazariyasiga tayanardi. Jamiyatning evolutsion nazariyasi tabiat falsafasining tarkibiy qismi sifatida qaraldi. G. Spenser fanlar uchun umumiy bo'lgan tamoyilni folosofiya, deb atadi. Ularning ustida barcha ilmiy qonunlarning sintezi, tabiatning eng umumiy qonuni – evolutsiya qonuni deb tushuntirdi. Falsafiy va ilmiy qonunlar o'rtasida o'tib bo'lmas chegara yo'q. O'rta fan ham, falsafa ham dunyoning umumiy qonunlarini kuzatish va induksiya orqali biladi. U optiologik tushunchalar bo'lgan kuch, harakat, materiyani bilish usuli sifatida qaraydi.

Universal evolutsion jarayon «bir xillikni ko'p xillikka qayta quradi va bu «o'zgarishning umumiy qonuni»: har bir harakat qiluvchi kuch bitta o'zgarishdan ko'ra ko'proqni, har bir sabab bir oqibatdan ko'ra ko'proqni keltirib chiqaradi. Boshqacha aytganda, oqibat sababga ko'ra murakkabdir, deydi.

G. Spenser tabiatshunos olim K. Beraning o'simlik va hayvon organizmlari rivojlanish jarayonida gomogendan geterogengacha o'zgaradi, degan formulasini jamiyatda qo'llashga harakat qildi.

Uning nazarida, evolutsiya qonuni barcha fanlar metodi uchun falsafiy manbadir. Bu qonun barcha hodisalarni o'z ichiga oladi, deb tushuntiradi. Bir xilni ko'p xil, yanada ko'p xilli qilib o'zgartiradi, degan aqidani ham ilgari suradi. Har bir differentsiyalashgan qism kelgusi differensiyalashish uchun nafaqat joy oladigan shu bilan birga so'nggisining manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Biron bir agregatning (tizimning) tuzulishidagi evolutsion o'zgarish, qismlar o'rtasidagi uyg'unlik struktura va funksional muvofiqlik, umuman, qismlar o'rtasidagi aloqani mustahkamlashni Spenser integratsiya, deb atadi. Ijtimoiy hodisalar biologiya o'rganadigan hodisalardan ham murakkabligini ta'kidladi. Sotsiologiyaning predmeti evolutsion (rivojlanish) yanada murakkab shakllarda o'rganishdir, deydi Spenser. Uning sotsializatsiya haqidagi fikri diqqatga sazovordir. Odam asta-sekin «ijtimoiy hayvon»lik davridan insoniy fazilatlarga ega bo'lgan insonlik davriga o'ta boshladi. Ijtimoiy hodisalarning organik ijtimoiy-madaniy tartibi dastlabki odamning «g'ayri ijtimoiy tabiatini ijtimoiylashtirdi, ya'ni sotsializatsiya jarayonida o'zgartirdi. Sotsiologiyaning bosh predmeti ijtimoiy agregatni o'sish, rivojlanish, tuzilish va yo'nalishi qanday qilib alohida olingan shaxslarning o'zaro harakatlari tufayli bunyod bo'ldi; tabiat ham, umuman, odamlar tabiatiga o'xshash, bir qismi

yaqin qabilalar, bir qismi mutlaqo buni istisno qiluvchi tomonlar kabi munosabatda bo'ldi.

Umumiy evolutsion tamoyillar ijtimoiy strukturalar va faoliyat shakllaridagi o'zgarishlar hamda ulardagi rivojlanishning ma'lum tartibi, ijtimoiy hodisalarning mavjudlik tartibi va xronologik izchilligi nomda hokazolar tarixni sotsiologiyaga tayanishga imkon beradi. U o'zining «Sotsiologiya asoslari» asarida «Ko'p dalillar sotsial evolutsiya, katta evolutsiya, umuman, evolutsiyaning qismi ekanligini ta'kidlaydi. Bir xillikdan (gomogen) turli xillikka (geterogen) rivojlanishi oddiy qabilani sivilizatsiyali millatga o'tishiga o'xshashligini ko'p misollarda tasdiqlaydi.

Spenser progress va evolutsiya tushunchalarining bir-biriga yaqinligi va shu bilan birga evolutsiyaning keng tushuncha ekanligini ta'kidlaydi. Turli xillikdagi maqsadga muvofiqlik, umuman, nadorganik sotsial evolutsiya, jamiyatning nihoyatda murakkabligini: oddiy murakkab, ikki marta, uch marta va hokazo murakkab tizilma ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Spenser jamiyatdagi o'zgarish, rivojlanish bir yo'nalishda emas, balki xilma-xillikda namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Shuning uchun taraqqiyotning ba'zi davri bosqichlari universal bo'lishi qiyin ekanligini ta'kidladi. U bir chiziqli progress g'oyani inkor etadi va unga qarshi kurashdi.

Insoniyatning ijtimoiy muhitga moslashishi haqida ham qimmatli fikrlarni bayon etdi. Ayniqsa, bir jamiyat turidan yoki bir tuzumdan ikkinchisiga o'tishda moslashish jarayoni muhim o'rin egallashini qayd etdi.

Spenser taraqqiyotni biologik modelidan kelib chiqib, jamiyatning qadimgi organizmlik modelini afzal ko'rdi. Jamiyat – organizm modeli (aniqroq aytganda, organizmlarning organizmi yoki yuqori organizmi) haqidagi nazariyasi ham Darvin ta'limotidan katta farq qiladi. Spenser liberal jamiyat asoschilaridan biri sifatida ham mashhurdir. U klassik liberalizm g'oyalarini, qadriyatlarini sotsiologik «realizm» bilan qo'shdi. Spenserning jamiyat haqidagi konsepsiyasi tizimli nazariyasining funksional aqidasiga yaqindir. U bu masalada Dyurkgeym va Radkliff Braunning, umuman, sotsiologiyada struktural-funksionalizm maktabining o'tmishdoshidir, – desa adolatdan bo'ladi.

U jamiyatni uch modelda tasavvur etdi:

1. Jamiyatni biologik organizm tipidagi yaxlit organizm sifatida.

2. Jamiyatni individlar majmuasi sifatida.

3. An'ana, rasm-rusumlar bilan bog'liq guruh darajasida tanlangan harakatchan tizim evolutsiyasi sifatida ta'rifladi.

Spenser sotsiologiyada «sotsial institut» tushunchasini qo'-yilishiga katta hissa qo'shdi. Sotsial institut turli ko'rinishlarda:

«Sotsial munosabat», «tashkilot», «muassasa», (agentli), «muvofiqlantiruvchi markaz» hamda ijtimoiy nazorat shakllarida tasavvur etdi. Individlar o'zaro munosabatning doimiy shakllarini bir necha yirik turdagi institutlarda namoyon bo'lishini ta'kidladi. Odamlarning oilaviy yashash uy institutini (munosabatlarini) shuningdek, nikoh, oila, tarbiya, jinslar, ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarning tug'ilishini aniqladi.

Spenser olti toifadagi institutni alohida ajratib ko'rsatadi:

Uy (oila), urf-odatlar, siyosiy, cherkov, kasbiy va sanoat. Bularni keng tahlilini «Sotsiologia asoslari» asarida beradi.

1.U biron-bir institutlar – hayotga qasddan yoki ongli kiritilmaganligini ta'kidlaydi.

Spenser institutlarni individual istak va maqsadlar orqali emas, balki muayyan tizimdagi funksiyasi orqali tushuntirdi.

2. Institutlarni tushunish uchun uning kelib chiqishi va yashab o'tgan davrdagi o'zgarishlarsiz bilish mumkin emas, ya'ni amal qilishini uning evolutsiyasidan tashqari bilish mumkin emas.

3. Barcha institutlar – yagona ijtimoiy tizimning qismlari bo'lib, O.Kant tamoyili «Konsensusga» muvofiq, ya'ni yaxlit tizimdagi barcha elementlarning o'zaro kelishgan holda amal qiladi. Agar birontasida buzilish bo'lsa, boshqasi faoliyatiga, albatta ta'sir etishini ta'kidlaydi.

Har bir institut o'ziga muvofiq ma'lum vazifani bajaradi. Boshqa institutlarni vazifasini olmoqchi yoki aralashmoqchi bo'lsa, bu holda butun tizimda muvozanat buziladi, deydi. Shuning uchun har bir institut o'z ishi, o'z vazifasini bajarishi kerak. Spenserning urf-odatlar institutini «sotsial nazorat nazariyasi»ning ilk timsoli sifatida qaradi hamda odamlarning o'zaro munosabatidagi hulqini boshqarishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Hatto diniy axloq qatori marosimlar, an'analar, urf-odatlar, rasmiy udum, tantana tartiblari, modalar, bularning barchasi hulqni nazorat qilish vositasi, umuman, jamiyat qo'llab-quvvatlaydigan ixtiyoriy-majburiy faoliyat,

harakatlardir. Sovg'a-salom olib kelish, olib borish udumi ham qadimdan rivojlanib kelmoqda.

Spenser jamiyatning harbiy va sanoat tipi haqida ham ko'p fikrlar bildirgan.

Harbiy majoralar va ularning oqibatlari, shu bilan birga, qadimda savdoning rivojlanishida ularning katta roli haqida, savdo karvonlari, yo'llari harbiylar tomonidan mudofaa qiliganligini tarixiy misollarda yoritadi.

Evolutsion nazariyada tanlash, sotsial hayotda yashash uchun va omon qolish uchun kurash jarayoni mavjudligi, bu jarayonda haqida ham muvaffaqiyatli sotsiologik fikrlar bayon qilingan.

Biologiyadagi tanlash o'rniga yashash uchun, omon qolish uchun kurashish, bunda muhitga moslashishning, jumladan, kim omon qolgan bo'lsa, demak, bular ijtimoiy muhitga oqilona moslashganliklari natijasi ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Jamiyatda o'zgarishlar, rivojlanish tep-tekis yo'ldan emas, balki ziddiyatlar orqali borishi va ziddiyatlarning roli haqidagi Ibn Xoldun, N.Makiaveli, Sh. Badenlarning fikrlari to'g'ri ekanligini ko'rsatdi.

Spenser ijtimoiy taraqqiyot, progress haqida ham qimmatli fikrlarni bayon etdi. Uning bir xillikdan ko'p xillik tomon o'zgarish insoniyat tamadduniga yoki shu bilan birga har bir millat taraqqiyoti yo'lida ham namoyon bo'ladi. U hozir ham oshib boruvchi tezlikda davom etmoqda. Rivojlanishning boshqa turlari kabi sotsial progress ham chiziqli emas, balki yoyiladigan va tarqaladigandir. Yer shariga yoyilar ekan, insoniyat turli xarakter bilan qurshalganligini namoyon etdi va har bir holatda ijtimoiy hayot vujudga keldi, birmuncha o'tgan ijtimoiy hayot oldindan belgilangan birmuncha yangi sharoit ta'siri bilan belgilanadigan bo'ldi.

Shunday qilib, ko'payuvchi guruhlar muhim yoki bo'lmagan farqlarga ega bo'ladi: jamiyatning turlari va stereotiplari vujudga keladi.

Gerbert jamiyatning «hammaning hammaga qarshi urushi» tabiiy holatidan sivilizatsiyali jamiyat va davlatgacha taraqqiyot bosqichini bosib o'tganligi endilikda jamiyat va davlat odamlarning o'zaro kelishuvi, ijtimoiy shartnoma asosida birlashganliklarini ijobiy hodisa sifatida ko'rsatdi.

Bu jarayon nafaqat ixtiyoriy, balki ba'zi hollarda majburiy yo'l bilan ham amalga oshirilganligini to'g'ri, deb hisoblaydi.

G.Spenser, umuman, jamiyat ijtimoiy hayoti ziddiyatli murakkab makon ekanligini, bu makonda o'zaro kurash ixtilof, to'qnashuvlar doimiy ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lishini qayd etadi.

Ijtimoiy guruhlar, tabaqa, qatlam, sinflarning turli xil manfaatlari, ular o'rtasidagi to'qnashuvlar, ziddiyatlar mavjudligi, shunigdek, sotsial harakatlar, ijtimoiy institutlar, an'ana, marosimlarni bajarish, turli ijtimoiy tiplarda kechadigan jarayonlar murakkab ekanligini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, Spenser – ijtimoiy hayot jonli jarayon o'zgarishi, rivojlanishi, moslashish va chiniqish xilma-xil manfaatlarni qanoatlantirish bilan bog'liq harakat va faoliyat ekanligini qayd etdi.

Gerbert o'zining «Sotsiologiya organish predmeti sifatida»gi asarida: «Ijtimoiy organizm individual organizmga o'xshash qismlar va qismchalarga bo'linishi kerak, hatto u qadar aniqlik va doimiylik bo'lmasa-da, ammo unda shunday o'xshashlik va farqlar bo'ladiki, ularni bir-biridan keskin farq qiluvchi katta guruhlarga taqsimlash mumkin. Bu chegerada ham kamroq farq qiluvchi mayda bo'laklarga bo'lish mumkin» – deb yozadi.

Spenser sotsial qonunlar va ularning harakati haqida qimmatli fikrlarni bildirgan. Umuman, sotsial (ijtimoiy) qonunlar mavjudligi va ularning harakatiga qat'iy ishondi. «Alternativa (muqobil) yo'q. Jamiyat yo qonunga ega bo'ladi yoki yo'q. Agar u qonunga ega bo'lmasa, unda uning hodisalarida tartib, ishonch bo'lishi mumkin emas. Agar bo'lsa u vaqtda koinotning boshqa qonunlariga o'xshashdir – qat'iy, so'zsiz, hatto bo'lib istisno emasdir» deb ta'kidlaydi.

U jamiyatga hurmat va islohotchilarni aralashishini noto'g'ri deb bildi. U tabiat tartibiga ham aralashishni xatarli deb hisobladi. Inson o'z harakatlari natijalarini hamma vaqt ham bilolmaydi. Shuning uchun hammasi qanday bo'lsa shunday qolsin. Davlatga yagona hokimiyat individ huquqini himoya qilishi va tashqi dushmandan kollektivni himoya qilish berilgandir, deydi.

Davlat o'z fuqoralarini har qanday xavf-xatardan himoya qilishi kerak. Qolgan barchasini individning erkin tashabbusiga qo'yib berish kerak. Odamlar o'rtasidagi o'zaro kelishuv, hamkorlik katta yaratuvchi kuch ekanligini ta'kidlaydi.

– Yaxshi jamiyat individlar o'rtasidagi o'zaro kelishuvga asoslanadi. Odamlarning o'zaro kelishuviga davlat aralashmasligi kerak. Aks holda jamiyat yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin – deydi Spenser.

Davlatning ijtimoiy masalalarga aralashuvi jamiyat muhitlariga moslashishga salbiy ta'sir etadi. Inson tomonidan samarali va

oqilona qilanayotgan tabiiy hayot tarziga va unda sodir bo'layotgan jarayonlarga davlatning aralashuvi yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

G. Spenser ijtimoiy voqelikni o'rganish va tadqiq etishda obyektivlik tamoyiliga amal qilishga da'vat etdi. «Biron bir boshqa holda (sotsiologdan tashqari) tadqiqotchi o'zi mansub bo'lgan yaxlitlikning barcha xossasini o'rganishdan boshqa iloji yo'q. Bu yerda boshqa biror fanda bo'lmagan katta qiyinchilik yotibdi. Irq, mamlakat, fuqarolik bilan bog'liq aloqadan o'zini ajratish, barcha boshqa manfaat, taassub, simpatiya, bid'atlardan xalos bo'lishda o'z jamiyati hayoti va o'z vaqtida bo'lgan hamda jamiyatdagi barcha o'zgarishlarga millat, e'tiqod va shaxsiy farovonligini e'tiborga olmasdan qarab bo'lmaydi».

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Jamiyat va ijtimoiy evolutsiya haqida.
2. Sotsial tiplar: harbiy va industrial jamiyat.
3. Ijtimoiy institutlar haqida.
4. Individualizm va funksionalizm.
5. Spenserning sotsiologiya tarixida tutgan o'rni.
6. G.Spenserning evolutsion ta'limotining boshqa evolutsionistlardan farqi nimada?
7. G.Spenser temir yo'l injeneri bo'la turib, qanday qilib «Angliyaning Aristoteli»ga aylandi?
8. Maxsus ma'lumot olmasdan turib, mutafakkir bo'lish mumkinmi?
9. G.Spenser «Ijtimoiy institut» tizimi haqidagi ta'limotida urf-odatlarni ijtimoiy nazorat shakli, deb ta'riflashida qanday ma'no bor?
10. G.Spenserning jamiyat haqidagi qarashlari bilan hozirgi zamon jamiyat tizimi o'rtasida qanday bog'lanish bor?

VILFREDO PARETONING SOTSIOLOGIK QARASHLARI

Italiya falsafiy sotsiologik fikrlar tarixida pozitivizm ta'limoti ko'pgina sohalarda o'zini namoyon qilmoqda. Pozitivizm Italiya siyosiy sotsiologiya maktabi rahbarlari Raetano Moski (1858 – 1941) Roberto Miesxelsk (1876 – 1936) va Vilfredo Pareto (1848 – 1923)lar ilmiy faoliyatida o'z aksini topgan edi.

Vilfredo Pareto – italiyalik injener-iqtisodchi va sotsiolog bo'lib, u ko'proq sotsial fanda matematik iqtisod nazariyasini olib kirgan mutafakkirlardan biri. U sotsiolog sifatida «Elita tahlili va ma'lum siklli jarayoni» haqidagi qarashlari bilan mashhurdir. Uning siklli nazariyasida «Elitaning almashishi» yoki «sirkulyatsiyasi» qarashlari – ba'zi individlar («sher»lar) jamiyat barqaror bo'lganda, uni qo'llab-quvvatlovchi, boshqalari esa (osongina moslashuvi «tulki»lar) yangilanishga va ijtimoiy o'zgarishlar davrida samarali harakat qiluvchilarni tashkil etadi.

Pareto siyosiy sabablarga ko'ra Fransiyadan emigrant qilingan aristokrat oilasidan bo'lib, dastlab injenerlik ixtisosligini egalladi va faoliyatini Rim temir yo'l kompaniyasida boshladi.

Paretoning ilmiy qiziqishlariga katta ta'sir qilgan taniqli italyan iqtisodchisi Mateo Pantaleoni va Lozani universiteti siyosiy iqtisod kafedrasi professori Leon Valrosdir.

Valros bilan birgalikda iqtisodiy tenglik nazariyasi ustida ishladilar; sotsiologik tizimga umumnazariy jihatdan yondashdilar.

Paretoning bir qancha maqolalari chop etildi. Valros iste'foga chiqqanidan keyin, uning kafedrasida rahbar bo'lib qoldi.

Birinchi katta maqolalari ma'ruza tarzida «Siyosiy iqtisod kursi» nomi bilan nashr qilindi. U hukumatning bu sohadagi siyosatini ochiq tanqid qildi. U ko'plab sotsialistlar bilan do'st edi, hatto Dreyfusni himoya qilgan edi.

Vaqt o'tib borgan sari, ya'ni liberalizm, erkinlashtirish ortda qola bordi. Jamiyatda barqarorlikni ta'minlash zarur edi. Shuning uchun 1900-yillarda Pareto ochiqchasiga antidemokratik va antiliberal pozitsiyaga o'tib ketdi.

Uning yangicha qarashlari «Sotsiologik qarashlar» (1901) «Siyosiy iqtisoddan darslik» (1906) kabi kitoblarida bosilgan maqolalarida ifodasini topdi.

Pareto yuragining kasalligi tufayli professorlik faolyaitini qisqartirishga majbur bo'ldi.

1907-yilda kafedra mudirligidan bo'shadi, faqat ma'ruzalar o'qish bilan cheklandi (1917-yilgacha).

1912-yilda u o'zining asosiy tadqiqotini yakunladi. «Umumiy sotsiologiya bo'yicha traktatini yozib tugatdi. Ushbu asar faqatgina 1916-yildagina dunyo yuzini ko'rdi. Sotsiologiya bo'yicha hayotining oxirgi yillari yozgan bir qancha maqolalari, «Demokratiya transformatsiyasi» (1921), «Faktlar va nazariyalar» to'plamida bosib chiqarildi. Oxirgi maqolasida u Italiya hukumatini davlatni, jamiyatni boshqara oladigan kuchga ega emas, deb ochiq tanqid qildi. Bu bilan Pareto, asosan, fashizimni nazarda tutgan edi.

Pareto vafotidan so'ng bir yil o'tgach, hokimiyat tepasiga fashistlar kelgach, ular o'z munosabatlarini yangi rejim asosiga qo'ya boshladilar. Har qanday erkin ijtimoiy-iqtisodiy qarash, fikrlarni taqiqlab qo'ydilar.

Sotsiologiyaning falsafiy masalalarida Pareto pozitivizmni, valyuntarizm, irratsionalizm orqali tahlil qilish tarafdori edi.

Fransuz sotsiologi anarxosindikalizm nazariyotchisi Jorj Sorelya 1847–1922 unga katta ta'sir etdi. Uning nazariyasi diniy rivoyat, afsonalarga ishontirishga asoslangan edi.

Paretoning sotsiologik tizimi jamiyat haqidagi engil-elpi va metofizik qarashlarga qarshi bo'lib, XIX asr ijtimoiy-siyosiy fikrlarni haqqoniy bo'lishi tarafdori edi. Jamiyat haqidagi nazariyalarida uning maslakdoshlari va tayanchlari bo'lib, Kont, Milem, Spenserlar, ya'ni pozitivizm namoyandalari turgan bo'lsa-da, ularning qarashlari izchil bo'lmaganligini, cheklanganligini ko'rsatdi.

Paretoning fikricha, sotsiologiya jamiyat haqidagi turli maxsus fanlarning sintezidir: huquq, siyosiy iqtisod, siyosat tarixi, din tarixi va hokazolarini qamrab olishi kerak, deydi. Ularning maqsadi, insoniyat jamiyatini o'rganishda yaxlit olib qarashdir.

Sotsial faktlarni bir-biri bilan bog'lashda u bir qancha sanoq formulalari va ko'rsatkichlarini bayon qildi. Uning aytishicha, sotsiologiyani, jadallik, kuch, turli xil sotsial dalillar sharoitlar hamda ularning bir-biri bilan o'zaro aloqa va munosabatlari qiziqtirishi kerak. U mohiyatni zaruratdek arxaik, ya'ni eskirgan tushuncha va mohiyat fan uchun noaniq bo'lgan predmetdir, deb ta'kidlaydi.

Pareto har qanday nazariyani uch sohada qarash lozimligini:

1. Obyektiv – muallifga bog'liq bo'lmagan.

2. Subyektiv – nima uchun muallif nazariya yaratadi, boshqalar qabul qiladi.

3. Utilitar – foydali tomondan qarash, qabul qilish va uni qabul qiluvchiga obyektivlik hamda subyektivlikning o'zaro xususiyatlari va sharhlarini sotsial fakt asosida tushuntiradi. U faktlarning gnoseologik tabiati haqida fikr yuritib, uning moddiy yoki idealligini bilish nuqtayi nazardan yondashishni ta'kidlaydi.

Paretoni jamiyatda hamma vaqt uchun doimo abadiy, o'zgarmaydigan hodisalar qiziqtiradi. U har qanday tarix nazariyasini mafkura sifatida inkor qiladi. Uningcha, odamlar ijtimoiy mavjudot sifatida tabiatning umumiy qonuni bo'yicha rivojlanadi. Pareto o'zining «Umumiy sotsiologiya bo'yicha traktat»ida sotsial mexanikani rivojlantiradi.

«Inson faolligini ikki asosiy tipga bo'ladi: mantiqiy va mantiqiy bo'lmagan harakatga. Ko'pchilik odamning harakati hissiyot bilan belgilanadi», – dedyi va bu jarayonda instinktning rolini alohida ko'rsatadi. Neologik sohasini «qoldiq va derivatsiya»(yoki kelib chiqqan, ikkilamchi)ga bo'ladi. «Qoldiq»ni inson asosiy hissiyotini aks ettiruvchi universal element sifatida qarasa, «derivatsiya»ni o'zgaruvchan element sifatida, hissiyotdan kelib chiqqan deb qaradi.

«Qoldiq»ning olti tipidan eng muhim ikkitasini ajratadi: «Qoldiq kombinatsiya»si tulkilar, «doimiy qoldiq» «sher»larda namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Pareto mafkuraviy optika g'oyasini ilgari suradi: «O'zingga qaragin, jamiyatning o'zi qanday? Men sizlarga buni qanday «to'g'ri qilish» kerakligini ko'rsatdim».

Paretoning markaziy g'oyalaridan biri jamiyatni tizim sifatida qarash edi. Tenglik tushunchasini u Volrasning iqtisodiy nazariyasidan olgan edi.

Pareto iqtisodni sotsial tizimning ichidagi tizim deb qaradi.

Iqtisodiy tizimda, uning fikricha, asosiy molekula – odamlar bo'lib, u harakatlanuvchi, harakatlantiruvchi aqlli kishilardan iborat. Sotsial tizim murakkab ko'rinishda namoyon bo'ladi. Sotsial tizim individlar guruhlaridan, ya'ni hissiyotlari yuqori bo'lgan guruhlardan iboratdir.

Pareto sotsial konsepsiyasida – jamiyatni tushunish ilmiy-nazariy asoslangan shaxsiy va sotsial faoliyatsiz, tayanchsiz tushunib

bo‘lmaydi, deydi. Uning ideologiya nazariyasiga qiziqishi aslida sotsial nazariyasining integral qismida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

«Tajriba ko‘rsatadiki, – deb yozadi sotsiolog, odam o‘zining emotsiya, ya’ni his-tuyg‘ulari ta’sirida bo‘lmaganda, o‘z ustida tinmay ishlaydi, sidqidildan ilmiy tadqiqotlar o‘tkazadi, yangi bilimlar uchun kurashadi. Bu toifadagi odamlar geniylardir». Lekin Pareto o‘zini irratsional nazariyasiga qaramay, pozitiv ratsionalizm ta’siridan xalos bo‘la olmaydi.

Tarixda shaxslarning aqli idroki, dunyoqarashi bilan bog‘liq roliga ham to‘xtaladi.

Uning nazariyasiga ko‘ra, geniy – dohiy, umuman, mashhur odamlar aqlli, dono odamlardir omma esa faqat anglanmagan emotsiya va his-tuyg‘ularga tayanadi.

Har bir tarixiy davr o‘zining xususiyati bilan farq qiladi.

«Demokratia transformatsiyasi» asarida: «Odamlarning yangi ertangini qanday nishonlaganliklarini tushunish oson. Isoning kelishi yangi xristian erasining boshlanishi, Hijrat – musulmonlar uchun; 1789-yil Fransiya inqilobi «demokratik» dinga ishonuvchilar uchun; Rossiadagi 1917-yil inqilobi – III Internatsionalga fanatik ishonuvchilar uchun va hokazo...» – deb yozadi.

Pareto mantiqan sotsiologiyaning vazifalarini chegaralash, belgilash va aniqlashga harakat qildi.

Mantiqchi xulosadagi xatolarini ocha olsa, topa olsa, unda so‘fiylik yo‘qola boradi va mantiqchining ishi nihoyasiga etadi. Shundan so‘ng sotsiologning ishi boshlanadi, tadqiqot ishlari o‘tkazadi, olib boradi. Nima uchun odamlar faktlardan foydalanishga intiladi? Shu bilan birga mantiqiy xulosaning qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi bo‘yicha tadqiqot o‘tkazadi. Sotsiologiya esa uning sabablarini o‘rganadi. «O‘z faoliyati, qobiliyatini yorqin namoyon etuvchilarni biz *elita* deb ataymiz», – yozadi Pareto.

Elita – aholining alohida, tanlab olingan toifasi, qismidir. O‘z navbatida elita ikki toifaga bo‘linadi. Birinchisi, jamiyat boshqaruv ishlarida to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirok etadi («haqiqiy elita», yoki «haqqoniy sinf»), ikkinchi toifa esa boshqaruv ishlarida qatnashmaydilar, badiiy yoki ilmiy doiralarda faoliyat yuritadi («boshqaruvchi bo‘lmagan elita»). Bularni boshqacha qilib «hukmron», «hukmron bo‘lmagan elita» deb aytish mumkin.

Pareto bundan 100-yil oldin elitaning aylanish davrasi nazariyasini yaratdi. Jamiyatning ijtimoiy harakati mohiyatini quyidagicha yoritadi: ijtimoiy tizim muvozanatga intiladi, vaqt taqozosi bilan esa muvozanatdan chiqqan holda unga yana qaytadi. Tizimning tebranish jarayoni va uning normal holatga o'tishi sotsial siklni tashkil etadi. Sikl oqimi esa elita sirkulyatsiyasiga, almashishiga bog'liqdir.

«Elitalar jamiyatning quyi tabaqasidan kelib chiqadi va kurashish jarayonida yuqoriga ko'tariladi, u erda gullab yashnaydi va pirovard oqibatda ayniydi, yo'qotiladi va yo'qoladi ham. Elitaning bu aylanishi tarixning universal qonunidir», – deydi Pareto.

Paretoning fikriga ko'ra, elita ikki xil bo'lib, bir-birini izchil almashtirib turadi.

Birinchi tip – «sherlar» bo'lib, unga eng ashaddiy, konservatizm tipidagi dunyoqarashi, ya'ni qo'pollik, zo'rlik usuli bilan tuzumni saqlab qolishi xarakterlidir.

Ikkinchi tip – «tulki»lar aldamchilik ustalari, o'ta ayyor, baxil, siyosiy o'yinlarning mohir ijrochilaridir. Jamiyat siyosiy tizimning barqarorligi, turg'unligi «sherlar»ning ustunligi tufayli xarakterlansa, «tulki»lar, aksincha, barqaror bo'lmagan siyosiy tizimdan manfaatdor qatlam bo'lib, o'ziga xos pragmatik fikrlovchi harakatchan arboblar, novatorlar, kombinatorlarni taqozo etadi.

Har bir tip elita jamiyat taraqqiyotining u yoki bu etapida ma'lum ustunlikka ega bo'ladi, ammo ma'lum vaqt ichida esa jamiyatga rahbarlik qilish talabi, ehtiyojiga muvofiq kelmay qoladi. Shunga ko'ra ijtimoiy tizimning muvozanatini saqlash uchun doimo bir elitaning boshqasi bilan almashib turish jarayonini talab etadi.

Sotsial muvozanat mexanizmi faoliyati elitalari birinchi va ikkinchi orientirlilarining kelishi proporsional ta'minlangan bo'lsa, bunday sirkulyatsiyaning to'xtatilishi hukmron elitaning aynishiga olib keladi, tizimning inqilobiy yo'l bilan parchalashga, unda yangi elitaning ajralib chiqishiga, ya'ni «tulki» ustun bo'lishiga olib keladi. Ma'lum muddat ichida aynigan «sherlar»ga despotizm tarafdorlari xosdir.

Pareto elitalarni boshqaruvchilar va boshqara olmaydiganlarga bo'ladi. Revolyutsiya, uning nuqtayi nazaricha, boshqaruvchi elitalar bilan kurashishi va almashishi bo'lib, ular xalq nomidan gapiryapmiz, deb aldab, niqob kiyib olishadi. Lekin bu faqat aldash va yolg'onchilikdir.

Faqat hokimiyat tepasida turgan elita (odrexlela) jamoani samarali boshqarishga qurbi etmay qoladi va natijada yangi potensial elita vujudga keladi. Boshqaruv bo'lishi uchun ommaning quvvatlashi zarur, uning yordamida eski tartiblarni o'rab turgan yuqori devorda teshik – yo'l ochiladi. Bunda ko'p hollarda omma hech narsa yutmaydi. Yangi elita ekspluatatsiyaning niqoblangan yangi usullarini qo'llashi mumkin. Elitaristlar xuddi shu nazarda Oktyabrning inqilobini ta'riflangan edilar.

Ijtimoiy – tarixiy konsepsiyaga ko'ra Pareto pessimist edi. Tarix, uning fikricha, abadiy takrorlanuvchi siklдan iborat, bu erda hech qanday progress, rivojlanish bo'lmaydi.

Pareto Birinchi jahon urushi davrida Italiyada sotsiologiyaga qiziquvchi o'z o'quvchilarini topa olmadi. Bunga «Umumiy sotsiologiya bo'yicha traktat» kitobining kech nashr qilinganligi ham ta'sir etdi. Paretoga Amerikada ham qiziqish kuchaya bordi. XX asr 30-yillari boshida taniqli bioximik Lourens Xenderson Garvard universitetida Pareto konsepsiyasini o'rganish bo'yicha seminar tashkil qildi. Bu seminarda kelajakdagi taniqli sotsiologlar Tolkatt Parsons, Robert Merton, Djordj Xomans, Uilyam Uayt, Klayd Klakxon va boshqalar qatnashdilar. 1935-yilda «Umumiy sotsiologiya bo'yicha traktat» kitobi ingliz tiliga tarjima qilindi. L. Kozer: «Paretoning ishlari Marksga burjuacha javob yoki uning konservativ – funksional ekvivalentidir», – deb ta'riflagan edi. Struktural funksionalizm tarafdorlari Pareto nazariyasining ijtimoiy tomonlari, tenglik jihatlari ustida tadqiqot olib bordilar. Biron-bir tushunchani tahlil qilish jarayonida struktural funksionalizm nuqtayi nazaridan yondashish eng avvalo, tushunchaning tub mohiyatini namoyon etish lozim edi.

G'arbsiyosatshunoslari o'rtasida Paretoning ideologiya sohasidagi konsepsiyasi ham mashhur edi. Uning traktatida Marksning sotsiolog sifatida, ayniqsa, sinfiy kurash borasidagi noto'g'ri fikrlari ko'rsatib berilgan edi. Pareto ilmiy sotsializmga qarshi tarixiy materializmni ham yoqtirmas, «iqtisodiy materializm»ni esa xato tushunchalar deb hisoblar edi.

Paretoning nazariy g'oyalari cheksiz edi. U burjuaziyani halokatga uchrayotganini ko'rgan edi.

«Burjuaziyani, umuman, jamiyatni davolash uchun menda hech qanaqa dori yo'q. Agar shunday dori bo'lganda ham, bu menga aniq

emas. Men shunday holatdagi vrachmanki, o'layotgan bemorimni ham qanday davolashni bilmayman» – deb yozadi.

Pareto «Umumiy sotsiologiya bo'yicha traktat» asarida davlat, kapitalizm, hokimiyat, boshqaruv tizimi, demokratiya, plutokratiya, xalq, omma, adolat, adolatsizlik, soliq, salib yurishi, uning salbiy oqibatlari, urush, shu bilan birga sotsiologiyaning metodlari (tarixiy, mantiqiy, eksperiment, taqqoslash) haqidagi qimmatli fikrlarni bayon etdi.

Uning Markaziy hokimiyat, demokratik boshqaruv tizimi haqidagi fikrlari hozirgi zamonda ham dolzarbdir. Ayniqsa, hukumat tuzilishinng uch holati haqidagi fikri diqqatga sazovordir:

1. Demokratiyaning demogogik plutokratiya tomon o'zgarishi (buzilishi, aynishi).

2. Demogogik plutokratiyaning harbiy plutokratiya tomon o'zgarishi.

3. Harbiy plutokratiyani demokratiyaga o'zgarishi.

Paretoning fikricha bu buzilishlar markazlashgan va demarkazlashgan hokimiyat kuchlarining o'zaro muvozanati markazning kuchli nazorati demokratizatsiya va desentralizatsiyaga muvofiq itoatkorlikni ifodalovchi harakatga mos qarama-qarshi kuchlarni tug'diradi. Ammo ayyor elita o'z manfaatlari yo'lida demokratiya shakllari bilan ommani aldash va uni chalg'itishga qodirdir.

Markazsizlanish tendensiyasi demogogik plutokratiya ko'tarilishi bilan birga kuchaya boradi, markaziy hukumat hokimiyati tobora kuchsizlana boradi. Ijtimoiy hujayralar esa tarqala boshlaydi. Xuddi shu nuqtada markazni kuchaytirish maqsadida bosim kuchayadi va natijada markaziy hokimiyatni tiklashni istovchi kuchli liderlar paydo bo'ladi.

«Uzoq kelajak sotsiologiyasini o'rganish bo'yicha bo'lgan og'ir vazifani hal qilishni avlodlarimizga qo'yamiz, biz esa o'tmish, hozir va yaqin kelajakdagi sotsiologiya bilan qanoatlanib qolamiz» – deb yozadi olim.

Pareto sotsiologiya jamiyat haqidagi ilm sifatida murakkab fan ekanligini va unga mas'uliyat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga chaqiradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Vilfredo Pareto va u yashagan davr.
2. Elita nazariyasi va demokratiya.
3. Jamiyat va mafkura tizimi.
4. Paretoning sotsiologiya tarixida tutgan o'rni.
5. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr birinchi choragida Italiyada ijtimoiy-siyosiy ahvol qanday edi?
6. V. Paretoning sotsiologik qarashlarining shakllanishidagi asosiy omillar?
7. Demokratik elitizm nazariyasining ijobiy va salbiy tomonlari. «Sher» va «tulki» obrazida hokimiyat uchun kurashning qaysi belgilari ifodalangan?
8. Demokratiyaning transformatsiyasi nima?

EMIL DYURKGEYM SOTSIOLOGIYASI

Emil Dyurkgeym fransuz faylasufi va sotsiologidir. E. Dryukgeym sotsiologiyani fan sifatida, kasb sifatida va o'qitish predmeti sifatida yaratuvchilardan biridir.

1858-yil 15-aprelda Fransiyaning Shimoli-Sharqidagi Epinal shahrida boy bo'lmagan, ota-bobosi Ravvin oilasida tug'ildi. Bolaligidanoq din sotsiologiya bo'lajak nazariyachisining bobolari diniy sohaga tayyorladi, unga qadimgi yahudiy tilini va Talmudni o'rgatdi. Ammo u bolaligidan oilaning diniy an'anasidan voz kechdi.

Dyurkgeym tarjimayi holida, unga maktab o'qituvchisi – bir katolik ayol ta'siri katta bo'lganini yozadi. Qisqa vaqt ichida katolizmni mistik aqidasiga moyillik kuchayadi. Unga qachonlardan buyon biqiq bo'lib qolgan yahudiy jamoasining yemirilishi va assimilatsion jarayon, diniy toqatsizlikni zaiflashuvi va umuman, Fransiyada dinning serkulyarizatsiya jarayoni ta'sir etdi. U katolik ham ateist ham bo'lmadi. Yoshligidan umrining oxirigacha agnostik bo'lib, doimo dinning sotsial va axloqiy rolini ta'kidlar, umuman, fanga, xususan sotsial fanga e'tiqodi kuchli bo'lib qoldi.

1878-yilda Dyurkgeym uchinchi marta urinishida Parijdagi Oliy Normal maktabga o'qishga kirdi. Bu erda mashhur filosof Anri Bergson va sotsialistik harakatning ko'zga ko'ringan arbobi Jan Joreslar bilan birga o'qidi, ular bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirdi. Bu maktabda unga tarixchi de Kulanji va faylasuf E. Butru katta ta'sir ko'rsatdi. Talabalar o'rtasida katta e'tibor qozondi. Kursdoshlari esa unga «Metafizik» degan taxallus berdilar.

1882-yil Normal maktabni tugatib, markazdan uzoqdagi litseyda falsafadan dars bera boshladi.

1882 – 1887-yillarda ijtimoiy-siyosiy hayotga qiziqishi kuchaydi. 1885 – 1886-yillarda Parijda, so'ngra Germaniyada falsafa, ijtimoiy fanlarni o'rgandi.

1887-yildan – 1902-yilgacha Bordo universiteti filologiya fakultetida ijtimoiy fanlar va pedagogikasidan dars berdi. 1896-yildan esa Fransiyadagi shu universitetda birinchi bo'lib pedagogika va tarbiya kafedrasini boshqara boshladi.

Dyurkgeym atrofida uning bir guruh shogirdlari va izdoshlari: Marsel Grani, Selestin Bugle, Joris Davi, Fransua Simian, Pol Fokonne, Moris Xalbvaks, Marsel Moss va boshqalar birlashdi. Ular bilan yaqin hamkorlikda Dyurkgeym 1896-yildan «Sotsiologik yilnoma»ni chop eta boshladi. Bu jurnal jamoatchilik o'rtasida katta qiziqish uyg'otdi. Bu bilan u Fransiya sotsiologik maktabiga asos soldi. 1902-yil Sorbon universitetining tarbiya tug'risidagi kafedrasining professori, 1906-yildan esa unga rahbarlik qila boshladi. Bu kafedra 1913-yildan «Tarbiya va sotsiologiya» deb yuritila boshlandi.

1902 – 1917-yilgacha Sorbon universitetida ma'ruzalar o'qiydi. U katta notiq va so'z ustasi edi. Uning ma'ruzalari tinglovchilarda katta qiziqish uyg'otardi.

Dyurkgeymning asosiy asarlaridan biri «Sotsiologik metodning qoidasi» (1895) deb nomlanadi. Bu asarda u o'zining mashhur «Sotsiologizm» ta'limotini asosladi. Dyurkgeymning uchinchi yirik asari «O'z-o'zini o'ldirish», «Sotsiologik etyud» (1887). Bu sotsial harakat amaliyotining nazariy ifodasi, uning namunasi edi.

1912-yil Parijda «Diniy hayotning elementar shakllari» nomli yirik asari chop etildi. U dinni ijtimoiy noyob hodisa sifatida tadqiq etdi. Kont birinchi bo'lib fanga «Sotsiologiya» tushunchasini kiritgan bo'lsa, Dyurkgeym esa G'arb sotsiologlari orasida «amaliy sotsiologiya» tushunchasini olib kirdi.

Dyurkgeymning sotsiologik tadqiqotlari fransuz sotsiologik maktabini yaratishga olib keldi. Bugle, Moss, Xolbvaks va boshqalar o'z ustozlarining ishlarini ijodiy davom ettirdilar.

XIX asr oxirida Fransiyada umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat juda og'ir edi. Burjua jamiyatini juda yaxshi tasavvur qilgan Dyurkgeym o'sha davr jamiyatining yetakchi vakillari bilan mamlakatni qayta qurish rejasini tuzdi.

Dyurkgeym yangi mafkuraga ega bo'lgan burjuaziya namoyandalarini tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Burjua jamiyati inqirozini chuqur anglagan mutafakkir sinfiy birdamlik g'oyasini ilgari surdi.

Mehnat va kapital o'rtasidagi qarama qarshilikni tinch yo'l bilan hal qilishini tavsiya etdi. U ijtimoiy birdamlik asosida jamiyatdagi barcha muammolarni ijobiy hal qilish mumkin, dedi. Uning nazarida ilmiy sotsiologiyaning pozitivistik konsepsiyasi yangi e'tiqod va yangi mafkura ramzi, hatto hozirgi zamon jamiyatining dini bo'lib qolishi kerak edi.

Maktab va universitet ta'limini dunyoviyligini ta'minlash, ya'ni uni din ta'siridan xalos qilish, ayniqsa, klerikallarning zo'ravonligiga keskin qarshi chiqdi va bu harakati bilan cherkovni davlatdan ajratish siyosatiga ulkan hissa qo'shdi. 1905-yilda cherkovni davlatdan ajratish haqidagi qonunga erishdi.

Dyurkgeymning ilmiy ishlari Bordo universitetiga ishga kelgandan boshlangan edi. Ana shu universitetda uning shoh asarlari yozildi va chop etildi.

1893-yil «Ijtimoiy mehnat taqsimoti to'g'risida» nomli mavzuda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Dissertatsiyada sotsiologiyaning ko'pgina masalalariga oid qarashlarini nazariy va ijtimoiy-siyosiy tamoyillarini yoritib berdi.

Ulug' Fransiya inqilobidan so'ng haqiqiy ta'lim inqilobi sodir bo'ldi. Holbuki, ba'zi G'arb mamalakatlarida alohida elitar guruh bo'lish jarayoni to'xtagan va barcha uchun ommaviy, demokratik, hammabop xarakterdagi ijtimoiy ta'lim institutlari shakllanib bo'lgan edi. Ta'lim shaxsning oiladan so'ng yashash faoliyati va uning ijtimoiylashuvining javobi bo'lib, turli tabaqalar rivojlanishi uchun zarur bo'lgan asosiy omil edi. Ta'lim instituti shaxsning ijtimoiy mavqeini oshirishda jamiyat ijtimoiy tuzilishini takomillashtirish, jamiyatda ijtimoiy tartib va barqarorlikni qaror toptirish, shuning ijtimoiy nazoratni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi tabiiydir.

E. Dyurkgeym ta'lim tizimi islohoti, uni takomillashtirishda faollik ko'rsatdi. U ta'limning asosiy faoliyatini yuqori saviyasidagi madaniyat boyliklarini yaratishda deb bildi. Olimning ulug'ligi shundaki, sotsialistlar o'zlarining harakatlarini ishchilar sinfining ahvolini yaxshilashni asosiy maqsadi deb bilgan bo'lsa, Dyurkgeym esa sinfiy kurash barham topishini, umuman, jamiyatda sinflararo kofliktni saqlanishini muhim emas deb hisoblamadi. Dyurkgeymning ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasida utopik xarakterga ega qarashlar ham mavjud edi. Uning g'oya va nazriyasi sotsializim bilan bog'liq edi. Ayniqsa, Sen-Simon, g'oyalariga juda ham xayrixohlik bildirdi. Lekin bu qarashlar bilan u jiddiy natijalarga erishmadi. Biroq uning sotsiologizm ta'limotida bir necha qoidalar ilgari surildi.

1. Sotsial reallik muayyan tartibda mavjudligi.
2. Jamiyat reallikning maxsus turi ekanligi hamda individlarni

oddiy yig'indisi emasligini qayd etadi. Umuman, uning sotsal reallik haqidagi ta'limoti sotsial realizmni anglatadi.

Dyurkgeym: «Jamiyat tabiatning qismi ekan, jamiyat haqidagi fan bo'lgan sotsiologiya ham tabiat haqidagi fanga o'xshash o'zining metodlariga ega bo'lishi kerak, – deydi va davom etadi. – Sotsiologiya metodologiyasining asosiy prinsipi «sotsial dalillar»ga narsa sifatida qarash kerak». U sotsial taraqqiyot haqidagi g'oyani mehnat taqsimotiga bog'lab tushuntiradi. Ijtimoiy rivojlanish mexanik birdamlikka asoslangan jamiyatdan mehnat taqsimotiga asoslangan organik birdamlik, hamkorlik jamiyatiga o'tish jarayonidir. Umuman, u sotsial taraqqiyotni ta'minlovchi muhim omil mehnat taqsimoti deb qaraydi. Mehnat taqsimotigina segmentar, ya'ni bir-biridan ajralgan, uyushmagan jamiyatning barham topishiga va ijtimoiy birdamlik, hamkorlik birlashishga asoslangan jamiyatga o'tish uchun imkon beradi.

Yagona evolutsiya zanjirining dastlabki halqasi bo'lgan odamlarning birdamlikka asoslangan jamiyatda sotsial struktura bir xil segmentlar (bo'lakcha, qism) sifatida mavjud bo'ladi. Ularning ijtimoiy munosabatlarida qon-qarindoshlik tuyg'usi ustun bo'ladi. Ularda ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi uchun ehtiyoj ham, imkoniyat ham kamdir.

Demak, odamlarning mexanik birdamligi rivojlanmagan primitiv, sodda jamiyatlarga xos hodisadir. Birdamlikning bu sodda va primitiv ko'rinishi individni jamiyat bilan «hech qanday vositachiliksiz» bog'laydi. Mexanik birdamlik, birdamlikning «jamoaviy» tipi bo'lib, uni tashkil etuvchi individlar ong, tafakkur tarzi bo'yicha bir-birlariga o'xshash bo'lib, hatto ular bitiradigan ijtimoiy vazifalar ham deyarli bir xil, umuman, ularning mustaqil ijtimoiy shaxsiy xususiyatlari unchalik rivojlanmagan. Bunday jamiyatda individ o'ziga o'zi mustaqil emas, balki «jamiyatga tegishli narsa»dir. Dyurkgeym: «Bu jamiyat a'zosining ongi jamoaviy (kollektiv) ongining oddiy mahsulidir. Umumiy jamoaviy ong mavjudligi mexanik birdamlikka asoslangan jamiyatning asosiy belgisidir» – deb yozadi.

Jamiyat asta-sekin o'zgara borishi bilan lokal mahalliy segmentlar chegarasi buzila boshlaydi. Chunki turli xil darajadagi murakkab ijtimoiy aloqalar vujudga keladi. Jumladan, aloqa yo'llari va vositalari kengayadi, aholi moddiy va ma'naviy darajasi, hatto joylashishi, zichligi oshadi. Bu mehnat taqsimotini keng

tarqalishini tezlashtiradi. Odamlarning tafakkuri, ongi tobora rivojlanayotgan mehnat taqsimoti hamda murakkablashayotgan ijtimoiy munosabatlarga kela boshlaydi. «Har bir individ, – deydi Dyurkgeym, – tirik organizmni eslatadi». U ijtimoiy taraqqiyotning yetakchi, belgilovchi omili mehnat taqsimoti deb qaragan bo'lsa-da, bu jarayonni ko'r-ko'rona tarzda ifodalashdan yiroq edi.

Jumladan, mehnat taqsimotini haddan tashqari ixtisoslashuvi salbiy oqibatlarga olib kelishi va buni bartaraf etish uchun ijtimoiy birdamlik, hamkorlik organlari – professional va boshqa uyushmalar tashkil etish g'oyasi muhim ekanligini bayon etadi.

Jamoa ongi fakti(dalil), ya'ni Dyurkgeym buni jamoa tasavvuri deb atadi, uni axloq din, huquqning mohiyatini tashkil etadi va bu jarayonni ma'lum darajada ijtimoiy borliq shakli yoki morfologik tartib fakti (dalili)ga qarama-qarshi qo'ydi.

Sotsial morfologiya jamiyat qismlari tuzilishi va shakli, uning «anatomik tuzilishi»ni o'rganish kerak, bular kollektiv tasavvur substrakti demografik va iqtisodiy fakt (dalil)larni tashkil etadi.

Morfologik faktga jamiyat asosiy elementlarining miqdori va xarakteri, o'zaro bir-biriga muvofiqlik usuli, ular erishgan jipslanganlik darajasi, o'zaro bir-biriga muvofiqlik usuli, hududda aholining taqsimoti, yo'l-xabarlari xarakteri, uy-joy shakllari va h.k. kiradi.

Morfologik faktlar jamiyatning «moddiy», miqdoriy sohasini, kollektiv ong faktlari esa uning ma'naviy, sifat sohasini tashkil qiladi.

Dyurkgeymning ilmiy muammolaridan biri – bu jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabat masalasi edi.

U jamiyat insonlarsiz bo'lmaydi, gullab-yashnamaydi. Shaxs o'zini hayoti faoliyatini jamiyat ichida amalga oshiradi. Jamiyat o'z a'zolari bo'lgan davlat timsolida odamlarni xavf-xatarlardan saqlaydi. Shaxsning baxti uning fikricha, shu bilan birgalikda, shaxs erkin va ozod bo'lishi ham kerak. Aks holda shaxs bilan jamiyat orasida munosabat buziladi va u yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Dyurkgeym shaxs manfaati, ehtiyoji haqida fikr yuritar ekan, bu individ faoliyati bilan bog'liq jarayon ekanligini uqtiradi. Manfaat shaxsni mavjud sharoitda hayot tarzini, yo'lini o'zgartirish yoki uni saqlashda undovchi muhim omil deb hisoblaydi. Faqat manfaatlar asosida odamlar faoliyat ko'rsatadi.

Manfaat ehtiyojini anglashda muhim omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, manfaatlarni amalga oshirishning yo'l va usullarini tanlash ham, muhim ahamiyatga ega ekanligini, ta'kidlaydi.

Dyurkgeym sotsiologiyani ulug' falsafiy doktrinalardan kelib chiqqanligini, shuningdek, biron-bir ta'limot tizimiga tayanishga odatlanib qolganligi va bu odatni saqlagani holda bir-biriga o'zaro ta'siri haqida fikrlar bayon etdi. U muntazam ravishda pozitiv, evolutsion, spiritualistik bo'lganligi, vaholanki, oddiy sotsiologiya bo'lib qolishligi zarur, deydi.

U sotsiolog mistik emas, fan bilan shug'ullanishi zarur, sotsiologiya faqat ijtimoiy hodisalarning sababiyat qonuniyatiga bo'ysunadi, deb uqtiradi. Sotsiologiya aql hodisalariga emas, empirik dalillarga asoslanishi kerak, sotsiologiya falsafa ta'siridan to'la xalos bo'lmasa ijtimoiy hodisalarni eng umumiy tomondan qaraydi, bu esa, o'z navbatida, boshqa hodisalarga taqqoslaganda kutilgan natijani bermaydi.

Sotsiologiya nafaqat sotsial faktlarni tadqiqot etadi, balki boshqa ijtimoiy fanlarni ham o'rganish bo'yicha nazariya va metod bilan qurollantiradi. Barcha ijtimoiy fanlar sotsiologiyani kollektiv tasavvurlarini aniq tariqat qiluvchi, aniq shakllar – huquqiy axloqiy, diniy, iqtisodiy va h.k. bo'limlari, qismlari bo'lib bormoqda.

«Sotsiologizm» jamiyatning nazariyasi sifatida ilgari surildi. Sotsial realizm uning bir qismidir. Uning nazariy konsepsiyasida ikki tendensiya ko'zga tashlanadi. Ulardan biri – naturalizm bo'lib, jamiyat va uning qonuniyatini tushunishda ma'rifatparvarlik falsafasining an'anasi tabiiy qonun va qoidalarga o'xshatadi. Ikkinchi, – sotsial realizm bo'lib, jamiyatni reallikning maxsus turi sifatida, ya'ni boshqa tur reallik(fizik, ximik, biologik, psixologik)dan farq qiluvchi reallik sifatida qaraydi.

U kollektiv tasavvur va individual ong o'rtasiga alohida chegara qo'ydi. Jamiyatni individga nisbatan obyektivligi va «mustaqilligi»ni ta'kidladi. Jamiyat bilan individ o'rtasidagi munosabatini butun va qism sifatida sharhladi. U hatto Xudo bilan jamiyatni bir-biriga o'xshatdi. Bu bilan jamiyatni muqaddas ijtimoiy hodisa, deb tushuntirdi.

Sotsial morforlogiya Dyurkgeymgacha sotsiologiyaning yo'nalishi bo'lib, olim jamiyatning tipologik klassifikatsiyasini yaratish maqsadida (bir segmentli jamiyat, ko'p segmentli jamiyat

va h.k.) jamiyatning struktural tuzilishi bilan o‘rab olgan muhitni – tabiiy dunyo bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganuvchi va tushuntiruvchi sohasidir, deb ta’kidladi.

Dyurkgeym individ tug‘ilishi bilan din, qonunlar va an’analar, o‘zini tutish, yurish-turish qoidasi, til, pul tizimi va muomalasi kabilarga duch keladi. Bola ana shu ijtimoiy munosabatlar orasida ulg‘ayadi, voyaga etadi.

Deviant – hulq-atvor sotsiologiyasining asoschisi ham E. Dyurkgeym hisoblanadi. Ilk bor u deviant hulq-atvorning turi bo‘lmish o‘z-o‘zini o‘ldirish psixologik patologiya natijasi emas, balki sotsial hodisa deb asosladi.

O‘z-o‘zini o‘ldirish muammosi haqida maxsus tadqiqotlar o‘tkazdi. Uning empirik tadqiqotlarida bosh prinsip sifatida sotsiologik metod: sotsial fakt(dalil)larni individning ichki dunyosi, uning hulqi irodasiga bog‘liqlik jarayoni sifatida qaraydi. Dyurkgeym o‘z-o‘zini o‘ldirishni psixologik asosini ijtimoiy sabablar bilan bog‘laydi. O‘z-o‘zini o‘ldirish individning faqat ichki dunyosi, tushunish tarzida emas, balki ijtimoiy sabablarini ham tadqiq etishga harakat qiladi.

Mutafakkir o‘z-o‘zini o‘ldirishni ko‘p omillarga bog‘liqligini, ya’ni individning tashqi dunyosi, kishilar bilan o‘zaro munosabati, mehnat va ijtimoiy faoliyati, psixologik holati, individual turmush tarzi va boshqa omillar bilan bog‘laydi. Hatto u o‘z-o‘zini o‘ldirishni ob-havoga ham bog‘laydi. Bunda u o‘z-o‘zini o‘ldirish darajasi yozda qish faslidan ko‘ra ko‘pligini, erkaklarda esa ayollarga qaraganda yuqoriroq, qariyalarda yoshlarga qaraganda ko‘proq, oddiy askarlarda fuqarolarga nisbatan ko‘pligi, protestantlar katoliklarga nisbatan, yolg‘izlar, beva va oiladan ajralganlarda yana ko‘proq, shaharda qishloqqa nisbatan o‘z-o‘zini o‘ldirish ko‘pligi haqida qiziqarli ma’lumotlar to‘plagan va bayon etgan.

«Individni individ sifatidagi maqsadi muddaosi va dunyo-qarashini o‘rganish, ko‘pqirrali murakkab ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish (oilaviy ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy muhit ishdagi muhit va h.k.) o‘z-o‘zini o‘ldirish darajasini, kamaytirish hatto oldini olish mumkin bo‘larmidi, – degan fikrlarni ham ilgari suradi.

O‘z-o‘zini o‘ldirishning bir necha tipini ko‘rsatdi, shulardan:

«Egoistik»; «Altruistik»; «Anomik»; «Fatalistik».

1. Egoistlik tipi ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan bu illat sotsial normalarning individga ta’siri juda sust bo‘lgan holatda ro‘y beradi.

U o‘y-fikr, kechinmalar, his-tuyg‘uda bir o‘zi yakkalik qiladi, unga hayotning qizig‘i qolmaydi. Yakkalik, bo‘shliq, tragediya(fojia) holatiga tushib qoladi.

2. Altruistikda jamiyat o‘ziga individni to‘la yutib yuborishi natijasida, butun umrini jamiyatga bahshida etib, uning uchun keksalar hayotning ma’nosini o‘zidan tashqarida ko‘radi. O‘zining hayotini qadriga bormaslik bilan bog‘liq holatga tushadi. Bu, asosan, eridan ajralgan ayollar, xo‘jasidan ajralgan qullar va individga kuchsiz ta’sir qiladi, hatto umuman, amalda o‘sha ta’sir sezilmay qoladi. Bu vaqtda jamiyatda normativ vakuum bo‘shliq kuzatiladi.

3. Anomik tipida o‘z-o‘zini o‘ldirish yirik ijtimoiy larzalar, iqtisodiy inqirozlar davrida sodir bo‘ladi. Individ tushkunlikka tushadi, yangi ijtimoiy-iqtisodiy muhitga moslasha olmaydigan irodasi bo‘sh, e’tiqodi past, ikkilanuvchilar o‘rtasida umuman, yo‘lini yo‘qotgan individlar orasida ko‘proq uchraydi.

4. Fatalistik hodisa guruhning individ ustidan bo‘lgan kuchli nazorati tufayli sodir bo‘ladi. Bunday zulm shakliga chiday olmasdan fojia qismatiga tushadi.

Shunday qilib, o‘z-o‘zini o‘ldirish qasddan va ongli qilingan hodisadir. Uning ijtimoiy sabablari yetakchi o‘rin egallaydi.

E.Dyurkgeym jamiyatni yaxlit normativ tizim sifatida qaraydi. Ayniqsa, ijtimoiy hamkorlik uning bosh mavzusi edi.

Olim ijtimoiy hamkorlikka katta ahamiyat berdi. Buning uchun adolatsizlikka barham berish zarurligini ta’kidladi. Agar jamiyatda odam qadr-qiymati toptalar ekan, uning qadriga borilmas ekan, unda jamiyat rivojlanmaydi ham gullab-yashnamaydi ham. Shaxs erkinligi va individualligini bo‘g‘ish – bu taraqqiyotga zid. Jamiyat va shaxs o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik bor. Bu bog‘liqlik buzilsa, har ikki tomon ham zarar ko‘radi. Bundan tashqari, odam mashina yordamchisiga emas, balki uni boshqaradigan subyektga aylanishi kerak. Mehnat taqsimoti ham oqilona, normal bo‘lishi kerak. Shunday qilib, tenglik, adolat, erkinlik, Dyurkgeym fikricha, jamiyat tuzilishining yuqori tipda tashkil topishining asosidir.

Adolat ishi tashkilotning rivojlanishiga bog‘liqdir. U kapitalizmni takomillashtirishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ydi. Albatta, u sotsial utopiyaga ham berilardi. Bu esa jamiyat masalalarida to‘la, keng obyektiv fikr, qarashlarni ilgari surishga xalaqit berardi.

E. Dyurkgeym sotsiologiya tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan mutafakkirdir. Uning ta’limoti G‘arb sotsiologiyasi rivojiga katta ta’sir etdi. Chunki u sotsiologiyaning ko‘pgina eng muhim masala va muammolariga nafaqat e’tibor qaratdi, balki ularga javob topishga harakat qildi. Uning jamiyat tabiati, integrativ asosi va «sog‘ligi» hamda kasallik holati, sotsiologik tadqiqotlar usuli, sotsiologiyaning fan sifatidagi mavqei kabi qator ilmiy muammolarga javob berishda yaxlit falsafiy – sotsiologik konsepsiyaga tayanishga harakat qildi. Uning «sotsiologizmi», struktural funksional maktabi tamoyiliga asos bo‘ldi. Shuning uchun ham, «sotsial fanlar xalqaro ensiklopediyasi»da Dyukgeymga hozirgi zamon sotsiologiyasining ko‘zga ko‘ringan asoschilaridan biridir, degan baho berilgan.

Struktural funksionalizm o‘z navbatida Dyurkgeym uchun jamiyat o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega tizim haqidagi nazariy-metodologik konsepsiyasi, qoidasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy qonuniyatlarni tushuntirishda jamoaviy ongdan kelib chiqishga harakat qildi. Jamoaviy ongning kelib chiqishi va mohiyati individlarning o‘zaro munosabati muomalasiga bog‘liq, deb ta’kidladi, ya’ni uni aniq tarixiy faoliyatdan tashqarida qaradi. Bu uning qarashlarini cheklanganligidan darak berardi.

M. Dion «Sotsiologiya va ideologiya» kitobida: «Sotsiologlar bizning davrimizda ulug‘ «Janglarda» faol qatnashmoqda, shuningdek, Dyurkgeym dunyoqarashidagi ziddiyat va cheklanganlik uning burjuaziya sinfiga mansubligi hamda uning manfaatlarini himoya qilishda o‘z aksini topdi» – degan edi.

Dyurkgeymning muholiflari qanchalik tanqid qilmasin, uning insoniyat tafakkuri tarixidagi xizmatini yetakchi ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’zozlaydi va hurmat qiladi. Undagi aql-idrok, bilim, intilish, jamiyatni ko‘proq adolat tomonga burish haqidagi insonparvar g‘oyalar hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Dyurkgeym fanning buyuk siymosi sifatida sotsiologiya tarixida abadiy muhrlanib qoladi.

Dyurkgeym demokratik va liberal qarashdagi mutafakkir edi. U inqilobga, inqilobiy sotsializmga qarshi edi.

U birinchi jahon urushining asosiy aybdori Germaniya deb hisobladi. Urushga qarshi bir necha pamfletlar yozdi. «Germaniya hammadan yuqori», «Urushni kim xohlaydi?» pamfletlarida urushni ayovsiz tanqid qildi. Urushda o‘g‘li Andridan ajraldi. Andri lingvist

va sotsiolog edi. Otasi uni o‘z ishini davom ettiruvchisi bo‘ladi, deb umid qilgan edi. O‘g‘lining o‘limi unga qattiq ta’sir qildi. 1917-yil 15-noyabrda Parijga yaqin Fantenbloda 59 yoshida vafot etdi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Emil Dyurkgeym va fransuz sotsiologik maktabi.
2. E.Dyurkgeym ijtimoiy mehnat taqsimoti va birdamlik haqida.
3. Deviant hulq va o‘z-o‘zini o‘ldirishning bir-biri bilan bog‘liqligi.
4. «Sotsiologizm» nazariyasi va uning nuqsonlari.
5. E.Dyurkgeymning din haqidagi ta’limoti.
6. Mutafakkirning sotsiologiya tarixida tutgan o‘rni haqida.
7. «Ijtimoiy mehnat taqsimoti» nazariyasida qanday muammolar ko‘tarilgan?
8. O‘z-o‘zini o‘ldirish illatining deviant hulq bilan qanday bog‘liqligi bor?
9. «Sotsiologizm» nima?
10. E.Dyurkgeymning din haqidagi qarashlari M.Veberning din haqidagi ta’limotidan farqi nimada?

MAKS VEBER SOTSIOLOGIYASI

Maks Veber (1864–1920) XIX asr oxiri va XX asrning eng yirik sotsiologidir. U universal ma'lumot va bilimlarga ega bo'lgan matafakkir edi. Ma'lumotiga ko'ra huquqshunos bo'lgan Veber tarix, iqtisod, ijtimoiy falsafa, hozirgi zamon kapitalizmi rivojlanishi masalalari bilan shug'ullandi.

U Karl Marks ilmiy ishlariga tanqidiy munosabatda bo'ldi. Veberning ijtimoiy o'zgarishlarga bildirgan g'oya va qadriyatlarining roli iqtisodiy sharoitdan kam emasligini ko'rsatdi. Sotsiologiyani mustaqil fan sifatida rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan. 1894-yilda Frayburg universitetlarida professor lavozimida ishladi. 1896-yilda esa Geydelberg universiteti professori bo'ldi.

1919-yildan Myunxen universitetida xizmat qildi. Uning ilmiy faoliyati, asarlarini bir necha mavzu va yo'nalishlarga bo'lish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy tarixga oid: «O'rta asr savdo jamiyatlari tarixiga doir» (1889), «Rim agrar tarixi va uning davlat hamda xususiy huquqdagi ahamiyati» (1891), «Antik madaniyat tushkunligining sotsial sabablari» (1896), «Antik davrdagi agrar munosabatlar» (1897), «Iqtisodiy tarix» (1919–1920), «Shahar» (1920–1921) va boshqa asarlari mavjud.

Germaniya ijtimoiy-iqtisodiy muammolariga doir:

1892-yildan 1912-yilgacha bo'lgan asarlari va maqolalari, nemis qishloq xo'jaligi ishchisi, birja to'g'risida, sanoatda nemis ishchilarining ahvoli kabi mavzular.

Din sotsiologiyasi bo'yicha ishlari: «Protestant etikasi va kapitalizm ruhi» (1904–1905), «Protestant sektalari va kapitalizm ruhi» (1906), «Jahon dinlarining xo'jalik etikasi» (1915-1916), «Din sotsiologiyasi» (1922).

Jamiyat va xo'jalik nazariyasiga doir:

«Rosher va Kins hamda tarixiy siyosiy iqtisodning logik muammolari», «Sotsial-ilmiy va sotsial-siyosiy bilishning obyektivligi» (1904), «Madaniyat haqidagi fan logikasi sohasidagi tanqidiy tadqiqotlar» (1906), «Tushunuvchi sotsiologiyaning ba'zi bir kategoriyalari haqida»; «Sotsiologik va iqtisodiy fandagi bahodan tashqari erkinlik mohiyati» va boshqalar.

Veberning barcha asarlarida yuksak sotsiologik ruh va mazmun bo'rtib turadi. Ayniqsa, uning o'limidan so'ng chop etilgan yirik fundamental asari «Xo'jalik va jamiyat» hamda fan metodologiyasiga doir maqolalar to'plamida sotsiologiya masalalari chuqur va batafsil bayon etilgan.

Industrial sotsiologiya, etnosotsiologiya, din sotsiologiyasi, huquq, siyosat, hokimiyat, muzikaga doir qator sotsiologik tadqiqotlari hamon o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

«Siyosat kasb sifatida» (1919), «Fan kasb sifatida» maqolalarida Germaniya hukumati siyosatini keskin tanqid qiladi.

Uning tushunuvchi, ideal tip va qadriyatlardan holi bo'lgan erkinlik, ijtimoiy harakat, ratsionallik, din sotsiologiyasi kabi fundamental tadqiqotlari G'arb va jahon sotsiologiyasining oltin xazinasidan abadiy joy olgan.

Veberning qator muhim asarlari G'arb madaniyatining boshqa madaniyat va jamiyatlardan farqini yoritishga bag'ishlandi. Jumladan, Xitoy imperiyasi, Hindiston, Yaqin Sharq an'analari tadqiqotlari din sotsiologiyasiga qo'shilgan muhim hissa edi. Xitoy va Hindiston diniy tizimlarini G'arb dini bilan qiyoslab quyidagi xulosani chiqardi: «Kapitalizm taraqqiyotiga xristianlik dini kuchli ta'sir ko'rsatdi».

M.Veber 1910-yil Germaniya sotsiologik jamiyatini tuzishda faol qatnashdi. U ko'plab shogirdlar tayyorladi. Ular orasida dunyoga mashhur sotsiologlar Georg Zimmel, Georg Lukach va boshqalar yetishib chiqdi.

M.Veber sotsiologiyaning eng mashhur klassik vakiliga aylandi. U qoldirgan ilmiy meros jahon ilmiy qadriyatlari tarixidan mustahkam joy olgan hamda o'zining ta'sirini o'tkazib kelmoqda.

M.Veber ko'p qirrali va sermahsul mutafakkir edi. O'zining dastlabki ilmiy faoliyatini iqtisod tarixi bilan shug'ullanishdan boshladi.

Iqtisodni esa odamlarning boshqa faoliyati – siyosat, huquq, din bilan o'zaro munosabatlarida o'rgandi. Odamlarning iqtisodiy hulqi «Iqtisodiy odam muammolari bilan shug'ullandi. O'tmishdagi iqtisodiy hodisalarning bir-biriga o'xshashligini o'rganishni, o'tmish jarayonning tahlili, umuman, nazariy fikrlash, kapitalistik jamiyatni tahlil qilish bilan mushtarak, uyg'un qo'shib olib bordi. O'zining «ideal tip» haqidagi nazariyasida tarixda rivojlanmagan ijtimoiy jarayon hodisalarining sabablarini ochish, tadqiq etish va yoritishga qiziqdi. Bu sohada ulkan yutuqlarga erishdi. «Obyektiv

sotsial qonunni topish oson emas, shuning uchun odamlar ijtimoiy harakatini tushunish va sharhlash uchun nazariya yaratish kerak» – degan Veber.

U: «Inson faolyaitini o'rganish va yoritishda astronom qo'llagan metoddan foydalanib bo'lmaydi!» deb ijtimoiy qadriyatlar sohasida oqilona fikrlarni bayon etdi. Qadriyatlarga o'z davrining umumiy o'rnatilgan tartib qoidasi sifatida qaradi.

Veberning «ideal tip» kategoriyasi va uning sotsiologiyadagi o'rni beqiyosdir. «Ideal tip», umuman olganda, «davr manfaati» ko'rinishidagi nazariy konstruksiyaning (tuzulish) ifodasidir. U fanni empirik reallikdan emas, balki nazariy tuzilish sifatida o'ziga xos loyihalashtirdi.

Shu ma'noda uning «Ideal tip»ini *Utopiya* deb ataydi.

U ideal tip modeli qanchalik kam va bir ma'noda qurilsa, shunchalik dunyoga yotdir. U o'zining terminologik va klassifikatsion hamda evristik munosabatdagi vazifasini yomon bajaradi, deb ta'kidladi.

«Ideal tip» deb atalmish nazariy qurilma tabiiy reaksiya sifatida reallikda kam uchraydigan hodisadir. M. Veber: «Ideal tip» fantaziyamiz mahsuli, o'zimiz tomondan yaratilgan sof fikriy qurilmadir», – deydi.

«Ideal tip» empirikdan tashqari bo'lgan tarixiy reallikni bilish uchun instrument vosita sifatida yaratiladi va foydalaniladi. Shunday qilib, abstrakt ideal tipni tashkil qilishni maqsad emas, balki o'rganish uchun vosita deb qaradi.

«Iqtisodiy almashuv» «homoeconomicus» («Iqtisodiy odam») «Hunarmandchilik», «Kapitalizm», «Cherkov», «Sekta», «Xristianlik», «O'rta asr shahar xo'jaligi» kabi tushunchalar ideal tipidagi tuzilmaning mohiyatidir. Bular individual tarixiy birlikni tasvirlash uchun vosita sifatida foydalaniladi. Bu nazariy aqliy konstruktsiya tuzilmani tarixiy madaniy reallik bilan aralashatirmaslik kerak», – deydi olim.

Rekert o'z davrida qonunlarni aniqlovchi sotsiologiyani fan sifatida tarixdan farqini umumlashtiruvchi metoddan foydalanuvchi Nomatepik fanligida ko'rdi. Bunda umumiy tushunchalar faqat vosita sifatida emas, balki bilishning maqsadi sifatida qaraladi. Veberdagi individuallik va umumiylashtiruvchilik xususiyati xuddi tarix bilan sotsiologiyaning bir-biriga qo'shilib ketganligi jarayoniga o'xshashdir. Maks Veber ideal tipni tarixni bilish metodi sifatida

qaradi. Shuning uchun uni bilishning maqsadi emas, balki vositasi deb ta'kidladi.

Sotsiologiya tiplar tushunchasini yaratish orqali voqea-hodisalarning umumiy qoidalarini izlaydi, vaholanki, tarix voqealarini sababiy tahliliga ko'proq e'tibor beradi (individual, madaniy munosabat harakatining muhimligi, birikma va h.k.).

Veber: Tarixning vazifasi individual xarakterdagi tarixiy birikmalar o'rtasidagi, sababiy aloqani o'rnatishdir» – deydi.

Agar tarix individual hodisalarni sababiy jihatdan tahlil qilishga harakat qilsa, sotsiologiyaning vazifasi esa voqealarni makon-vaqtda sodir bo'lishi hamda ularning umumiy qoidalar asosida namoyon bo'lishligini ko'rsatishdan iboratdir.

Ideal tip konsepsiyasini tushunishda «tushunuvchi» kategoriyani qo'llaydi. U sotsiologiya predmetini tabiatshunoslikdan farqini: «Boshqa barcha ijtimoiy jarayon voqealar kabi inson hulqidagi umumiy aloqa va qonuniyat mavjudligini ko'rsatadi. Inson hulqining farqi shundaki, uni tushunarli qilib bayon etish mumkin. Boshqa ijtimoiy hodisalardan u tushunishni sababiy tushuntirishga qarama-qarshi emas, balki ularni o'zaro yaqin bog'liqligini ko'rsatdi.

Sotsiologiya ijtimoiy harakatni nafaqat narxlaydi, shu bilan birga uning oqimi va oqibatlarini tushuntirish bilan ham shug'ullanadi. U, asosan, individ yoki guruh hulqini o'rganish, tadqiq etishni boshlang'ich asos qilib oladi. Alohida individ va uning hulqi sotsiologiya hamda tarixning «to'qimasi», uning «atomi», «hujayrasi» sifatida qaraydi.

Harakat tushunchasini ham, asosan, ma'no tushunchasi orqali yoritadi.

Harakat eng avvalo, bu odam hulqidir, shuning uchun harakat qiluvchi individ va guruhlar bir-biri bilan subyektivlikni taqozo etadi. Subektsiz ma'no uydirmadir.

Shunday qilib, sotsiologiyaning predmeti keng ma'noda tadqiqot – harakatdir. Bu sotsiologiya «tushunuvchi» sotsiologiyadir, chunki harakat anglangan harakatdir.

«Tushunuvchi» sotsiologiyasining markaziy metodologik kategoriyalaridan biri – «sotsial harakat»dir. Bu kategoriya ahamiyatini shunchalik yuqori baholadiki, hatto sotsiologiyani «Sotsial harakatni o'rganuvchi fandir», deb ham ta'rifladi. U sotsial harakatni quyidagicha belgilaydi:

Harakat deb, odam hulqi va uning ba'zi subyektiv ma'noga ega ekanligi bilan bog'laydi. Bu hulqni boshqalar hulqi bilan bog'langanlikda ko'rdi.

Shunday qilib, sotsial harakat ikki muhim holatni taqozo etadi: individ yoki guruhning subyektiv niyati, maqsadi, vajini ifodalaydi. Umuman, bunday holatsiz harakat haqida gapirish mumkin emas. Shu bilan birga, uning hulqida orientir, mo'ljal olishligini, ya'ni boshqacha busiz harakat ijtimoiy deb qaramasligini alohida ta'kidlaydi.

Ijtimoiy jarayonning ham obyektiv manzarasini yaratish va uning tadqiqotdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Alohida individ niyati, maqsadini tushunishdan kelib chiqib, quyidagini ta'kidlash lozim: Harakat subyekti faqat alohida individlar bo'lishi mumkin, individlarsiz harakat sodir bo'lmaydi. Ijtimoiy harakatni o'zida aks ettirirgan ijtimoiy birikmalar («davlat», «o'rtoqlik», «aksionerlik jamiyati», «muassasa» va h.k.) ham individlar harakati tufayli tashkil topadi. Shu bilan birga sotsiologiya – jamiyat, individ, din, oila, guruh, millat, davlat, ta'lim va boshqa tushunchalarsiz ish ko'ra olmaydi.

Ammo jamoatchilikning bu shakllari ijtimoiy harakatni real subyektlari bo'la olmaydi, chunki ularga xos erk va tafakkurni individlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi u logik individualizmdir.

Shunday qilib, sotsiologiya individ yoki guruh individlar harakatiga orientir, ya'ni mo'ljal olishligi ana shu holda harakat anglashilgan yo'nalishda namoyon bo'lishligini ko'rsatadi. Demak, individlarning aqlli maqsadga qaratilgan harakatini tushunish va bu jarayonda psixologik ruhiy holatlarni e'tiborga olish muhimdir.

Oqilona maqsadli harakat ijtimoiy harakatning muhim ideal tipidir. Quyidagi harakat tiplarini ko'rsatadi:

1. Erishilgan to'g'ri tip.
2. Oqilona mo'ljallangan tip.
3. Uncha-muncha anglangan va bir tarzda oqilona maqsadga qaratilgan tip.
4. Aqlli maqsadga muvofiq bo'lmagan harakat ma'nosiga ko'ra tushunish qiyin emas.
5. O'z mohiyatiga ko'ra yoki kam tushunarli bo'lgan niyat, maqsad bilan bog'liq harakat tipi. Bunda ba'zida tushunilmagan elementlar, holatlar kirib qolish ehtimoli ham yo'q emas.
6. Harakat butunlay tushunilmagan psixik va fizik (tabiiy) holatlarda «odam yoki odam»dagi bu o'xshash jarayonning bilinmay, sezilmay o'tishi.

Maqsadga muvofiq harakat shkalasi individning har qanday harakatini oqilona taqqoslash prinsipi asosiga ko'rish mumkin. Albatta, bunday jarayonda eng tushunarlisi oqilona maqsadga muvofiq harakatdir.

Aql-idrokka asoslangan harakatni tushunish muhim ahamiyatga ega. Aslida qaerda aql-idrokka asoslangan harakat bo'lsa, uni tushunish murakkab emas. Masalan, bir kishi o'rmonda daraxt kesayapti. Buni maosh uchun yoki qishda o'ziga ishlatish uchun qilayapti, deb o'ylaymiz. Bu bilan biz harakat qiluvchini emas, harakat ma'nosini tushunishga urinyapmiz. Biz harakat qilayotgan odamning harakat ma'nosiga, ya'ni niyati, maqsadini bilmasligimiz, uning farqiga bormasligimiz mumkin, albatta. Individ ba'zida oqilona, ba'zida o'ylamasdan harakat qilishi ham mumkin. Ijtimoiy harakatdagi bu xususiyatlarni e'tiborga olmoq zarur.

Sotsial terapiya – jamiyatni davolovchi harakat ma'nosini va harakatchining (individ) tushunish ideal tip modellaridan biridir. Harakatchini tushunish uning uchun harakat ma'nosini tushunishdir.

«Fan empirikdan emas, balki o'zi uchun idealli makonni yaratishi lozim. Bunday «makon» sotsiologiya uchun maqsadga qaratilgan harakatdir» – deydi Maks Veber.

Maqsadli aql-idrok tushunchasi sotsiolog uchun antologik emas, balki metodologik qoidadir, ya'ni borliqni tavsiflovchi emas, balki borliqni tahlil qiluvchi vositadir. Maqsadli harakat «sotsial totallik»ni asos qilib oluvchi «xalq», «jamiyat», «davlat», «iqtisod» kabi umumiy qochiriq-qarashlarni qabul qilmaydi, deb u jamiyatga biologik modelda qarashga ham fikrini bildirdi: «organizm» tushunchasi jamiyat uchun faqat metafora, ya'ni ishora ma'nosida bo'lishi mumkin. Sotsiolog uchun bilish obyekti hulqning ma'noligiga bog'liqligidir. Odam mavjudlik deyishi bilan individ va ijtimoiy to'qima o'rtasida o'xshashlik chizig'ini o'tkazish bu onglilik omili muhim emas, deb bilishdir. Ijtimoiy harakat modelida esa onglilik omili muhim deb hisoblanadi. U tadqiqotdagi xulosa sotsial butunlikdan emas, balki alohida individdan kelib chiqadi, deydi.

Ijtimoiy harakatning individ hulqi sifatida tushunish ma'lum ma'noga ega va muayyan niyatga mo'ljallangan bo'lishi tabiiydir. «Bunday harakatni kuzatuv biz uchun, – deydi u – ko'pchilik alohida shaxslarning faqat birinchi harakatida mavjuddir. Individ hulqini tushunamiz, to'qimanikini esa yo'q».

M. Veberning «xalq», «davlat», «feodalizm», «sherikchilik» kabi

tushunchalarini odamlarning birgalikdagi harakati sifatida anglaymiz. Umuman, Veber sotsiologik tadqiqotlarda alohida individlar harakati, faoliyatidan kelib chiqishni ta'kidlaydi. Chunki odam nimani istashi, xohishini o'zi biladi. Albatta, odam hamma vaqt ham xohishini bilmasligi mumkin. Umuman, faqat oqilona maqsadli harakat ideal tipdir. Ijtimoiy hayot alohida odamlarning o'zaro harakatidir. Bunday jarayonda individ dunyoqarashining roli kattadir. Jamiyat individlar o'zaro munosabat va ta'sirining natijasidir.

M. Veber uchun ikkinchi muhim narsa harakat qiluvchi shaxsni boshqacha qarashi, yo'l, mo'ljal olishidir.

Ijtimoiy harakat o'tmishi hozir va kelajakka individ hulqiga (o'tmishda hujum qilgan bo'lsa, qasos olishi, hozir hujum qiladigan bo'lsa, o'zini mudofaaga tayyorlashi yoki kelajakda hujum bo'lishiga qarshi tadbirlar) qaratilgandir.

Sotsiologiyaga boshqacha orientir – mo'ljal olish kategoriyasini ham kiritilishi muhim ahamiyatga ega.

1. Aqlli maqsad.
2. Qadriyatli aqlli maqsad (etika, estetika, diniy qadriyatlarga ongli ishonish) bilan bog'liq.
3. His-hayajon, ayniqsa, emotsional his-hayajon va tuyg'u.
4. An'anaviy, ya'ni uzoq o'tmishga, odatga ko'ra, oxirgi ikkitasi to'la ma'noda sotsial harakat emas, chunki bu erda anglanmagan harakat elementlarini ko'rish mumkin.

Uning ta'kidlashicha, har qanday harakat ham ijtimoiy ma'no kasb etavermaydi. Ijtimoiy harakat o'tmish, hozir yoki kutilayotgan kelajakda boshqalarning hulqiga mo'ljal bo'lishi mumkin. O'tgan ginalar uchun o'ch olish, xavfdan hozir himoya qilish yoki kelajakda bo'ladigan dahshatli xavfdan o'zini himoya qilish tadbiri bo'lishi, tanish yoki noma'lum ko'pchilikdagi mutlaqo notanish odamlar bo'lishi mumkin.

Har qanday harakat tipi, shuningdek, tashqi harakat, ijtimoiy bo'lavermaydi. Tashqi obyekti hulqini ko'zda tutgan yoki unga mo'ljal olgan bo'lsa ijtimoiy bo'lavermaydi.

Ichki munosabatlar faqat shu holda sotsial xarakterga ega bo'ladi, qachonki, faqat boshqalarning hulqiga mo'ljal olgan bo'lsa. Masalan, yakka holda o'qigan ibodati qachonki, agar ular xayoloti chiqmasa sotsial bo'lmaydi. Xo'jalik yuritish, shu holda sotsial bo'ladi, qachonki boshqalarning hulqini e'tiborga olsa.

Odamlarning o'zaro munosabatlarining har qanday tipi ham ijtimoiy bo'lavermaydi. Faqat shunday harakat ijtimoiydirki, o'zining ma'nosiga ko'ra boshqalarning hulqiga orientir – mo'ljal oladigan

bo‘lsa, masalan, ikki velosipedchining bir-biri bilan to‘qnashuvi tabiat hodisasiga o‘xshash narsadan boshqa narsa emas. Ammo ulardan birontasining bu to‘qnashuvdan chetlab qochishga o‘rinsa-yu, gunohi bo‘lmasa ham to‘qnashish tufayli haqoratlansa, mojaroni urishish, mushtlashish g‘avg‘o yoki tinchlik yo‘li bilan hal bo‘lsa, unda bu ijtimoiy harakat bo‘ladi.

Ijtimoiy harakat ideptik xarakterga ega emas;

- Ko‘p odamlarning bir xildagi hulqi tufayli ham;
- Unga boshqaning hulqi ta’sir qilganda ham.

Agar ko‘p odamlar ko‘chada yomg‘ir paytida zontiklarini ochsa, bu harakat boshqa odam hulqiga qarab qilinganini bildirmaydi, yo‘q bu yomg‘irdan himoya qilish uchun bo‘lgan bir xil tipdagi harakatdir. Barchaga ma’lumki, biron odam hulqiga oddiy shunday fakt kuchli ta’sir qiladi, qachonki u to‘qnashuvchi «ommaviy» odamlar o‘rtasida bo‘lgan bo‘lsa, bunday hulq ommaviyligi bilan taqozo qilinuvchi hulq sifatida belgilanadi.

Faqat qadriyatlar bilan bog‘langan aqllilik va aqlli maqsad sotsial harakat mohiyatini tashkil etadi. Chunki bunday yondashish, e’tiqod, bajaradigan burchi, qadr-qimmati, go‘zalligi, diniy qarashlari u yoki bu ishning muhim deb bilganligiga asoslanadi.

Jamiyatda aqlliy qobiliyatning o‘sib borishi bilan bog‘liq bu jarayon, yoki ijtimoiy dalillar sotsiologiyada muhim o‘rin tutadi. Umuman, sotsial harakatni ratsionallik asosiga qurilishi o‘ta muhim qoidadir.

Ratsionallik jarayoni dunyoviy hodisa bo‘lib, uning roli tobora oshib bormoqda.

Sotsiologiya inson faoliyatining barcha sohalarini ratsionalligini o‘sish jarayoni bilan bog‘lab o‘rganishi zarur. Bu ijtimoiy hayotning barcha sohasiga boshqaruv, iqtisod, siyosat, madaniyat, fan va hokazolar daxldordir. Bu o‘z navbatida fanning rolini oshib borayotganligidan guvohlik beradi.

Ratsionallik jarayoni taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi, omili sifatida katta rol o‘ynamoqda.

Jumladan, protestantizm xo‘jalik yuritishni ratsionallik usuliga qurishda o‘ziga xos dunyoqarashlik rolini o‘ynaydi.

Veber hozirgi jamiyatgacha bo‘lgan jamiyatning barcha tiplarini an’anaviy jamiyat deb ta’rifladi. Uning muhim belgisi sifatida rasmiy ratsionallik asosi yo‘qligida edi.

Rasmiy ratsionallik – eng avvalo, kalkuliyarli bo'lib, har qanday ijtimoiy harakatning miqdorini o'lchashi mumkin. Ya'ni miqdoriy mezon bilan xarakterlanadi. Moddiy ratsionallik cheklangan tor manfaatlar doirasida amal qiladi, ya'ni biron-bir narsaga qaratilgan ratsionallikdir. Mehnatni sof miqdoriy natijasi ko'rsatkichi kapitalizmda anglandi.

Ilgari jamiyatlarda «Moddiy ratsionallik» ustun bo'lgan bo'lsa, hozirgi zamonda esa rasmiy ratsionallik ustuvordir, chunki bu oqilonalikka, maqsadga muvofiq harakatdir.

Rasmiy ratsionallik sharoitida xo'jalik yuritishda, shunchalik mustaqil bo'ladiki, bunda hatto odam ehtiyojiga nisabtan aniq munosabat bo'lmaydi. Rasmiy ratsionallik o'z mohiyatiga ko'ra kapitalizm nazariyasidir (Veber).

Davr ehtiyoji, manfaati, ruhi qarashlarni yo'naltiradi.

Maks Veber hozirgi zamon kapitalizm tabiati, uning qaror topishi, rivojlanish yo'li, unda individ taqdiri insonning o'z ideallarini amalga oshirish imkoniyatlari, shu jumladan, XVII – XVIII asr mafkurachilari tomonidan ilgari surilgan «aql-idrok ideallari»ning amalga oshirishi va hokazo masala va muammolar ratsionalikka asoslangan demokratik jamiyatda o'z ifodasini topayotganligini qayd etadi.

M.Veber ta'limotida hokimiyat masalasi katta o'rin egallaydi. «Boshqacha mo'ljal olish», tan olish bilan kategoriyasi o'zaro bog'liqda yoritiladi. Ayniqsa, legitim qonuniylik hukmronlik tipi to'g'risidagi fikr, ya'ni boshqariladigan individlar fuqarolar tomonidan qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini tan olinishi muhim masaladir.

«Hukmronlik, – deb yozadi u, – ma'lum buyruqda bo'ysunishni anglatadi. Hukmronlik o'zaro kutishni (gan farmon, buyruq topshiriq haqida) taqozo etadi: kim buyruq bersa, unga itoat qilish, kim itoat qilsa, demak, buyruqni bajarishi, (demakki qonuniylik) shunday xarakterga egaki, itoatgo'y kutayotgandek, ya'ni tan olishi va unga itoat qilishini anglatadi».

Uch tip hukmronlik haqida qimmatli fikrlar ham bayon etilgan.

Legal, ya'ni ochiq maqsadli harakat.

Bunga hozirgi burjua davlatlari Angliya, Fransiya, AQSh va boshqalar kiradi.

Bu tip davlatlarda shaxsga emas, o'rnatilgan qonunlarga e'tiqod qilinadi. Bunday qonunlarga amal qilish faqat boshqariladiganlargina emas, barcha, shu jumladan, boshqaruvchi(chinovnik)larga ham

daxldordir. Xuddi shu tip ratsional jamiyatlarda rivojlanish tabiiy-tarixiy jarayon sifatida izchil davom etaveradi, chunki bu jamiyat rasmiy huquqiy asosga qurilgandir. Sotsiologiya tilida ratsional byurokratiya eng sof legal hukmronlik jamiyati tipiga xosdir.

Hokimiyat noravon zinapoyalar yuqorisidan joy olishi nasldan-naslga o'tuvchi monarxga xos edi. Endilikda, xalq tomonidan saylangan prezident yoki parlament aristokratiyasi tomonidan saylangan yetakchi liderlar rahbarlik qiladi. Ammo kundalik tinimsiz ish boshqaruv jarayoni ixtisosli mutaxassis chinovniklar tomonidan amalga oshiriladi. Buni to'xtovsiz ishlaydigan o'ziga xos boshqarish mashinasi deb ham atasa bo'ladi.

Veberning byurokratiya haqidagi tadqiqoti sotsiologiyada muhim o'rin egallaydi. Byurokratiya yirik hajmdagi tashkilot bo'lib, vedomet yoki xizmatga bo'linib, turli rangdagi chinovniklardan tashkil topgandir. Yirik sanoat firmalari hukumat tashkilotlari, kasalxona, maktab va boshqalar byurokratiyaga misoldir. Byurokratiyaning rivojlanishi hozirgi davrning muhim belgisi. Byurokratiya yirik hajmdagi tashkilotni samarali faoliyat yuritishi hamda hozirgi zamon jamiyatlarida ommaning samarali demokratik ishtirokiga imkon yaratdi.

Ratsional tip jamiyatda boshqaruv asosida huquqiy ma'lumot bilan birga maxsus bilim, ya'ni boshqaruv san'ati malakasiga ega bo'lish talab etiladi. Sof ratsional byurokratik boshqaruv esa alohida xodimlar, shaxslardan tashkil topgan boshqaruv shtabi majmuasiga egadir. Bunda:

1) erkin xizmat burchini bajaradigan;
2) qat'iy xizmat – merarxiz;
3) qat'iy ma'lum sohasini bilgan, xabardor;
4) shartnoma asosida, ya'ni maxsus ixtisosga ega bo'lish sharti bilan bog'liq;
5) pul maoshi bilan doimiy taqdirlanadigan;
6) o'z ximat burchini yagona yoki bosh kasb deb biluvchi;
7) o'zining karerasini, lavozimdan ko'tarilishini ko'ra oluvchi, «yuqoriga ko'tariluvchi»;
8) xizmat yuzasidan o'zidan katta, hatto rahbar fikriga bog'liq bo'lmagan holda mustaqil fikr, qobiliyatga ega bo'lish;
9) «boshqaruv vositasidan ajralgan holda» ishlash va xizmat joyini suiiste'mol qilmay;
10) yagona xizmat intizomiga va nazoratiga qat'iy bo'ysunish.

M.Veberning ratsioanl byurokratik boshqaruv apparati bilim orqali bilimga asoslangan boshqarishni taqozo etadi.

Uning maxsus ratsionallik tamoyilli xarakteri ham xuddi ana shundadir.

U boshqaruvchi haqida ham qimmatli maslahat beradi.

Ishlab chiqaruvchi boshqaruv vositasidan ajralgan holda faoliyat ko'rsatishi kerak. Boshqaruv sohasida ham ishlab chiqarish vositasi kabi ixtisoslik va mehnat taqsimoti bo'lishi tabiiydir.

Veber tomonidan ilgari surilgan boshqaruvning ideal tip ko'rinishi rasmiy ratsionallik tipi hozirgi rivojlangan mamlakatlarda ma'lum darajada o'z ifodasini topgandir.

Boshqaruvda «ish manfaati» tushinchasi muhim ahamiyatga ega va kasbiy burchini sidqidildan bajarishda xizmati kattadir.

Boshqaruvchi mashina boshqa mashinalarga o'xshash dasturga muhtojdir. Dasturni esa siyosiy lider qo'yadi, ya'ni oldindan ma'lum maqsad ishlab chiqiladi va unga erishish uchun harakat dasturi tuziladi.

An'anaviy hokimiyat yoki tizim hukmronlik qilgan davrda odamlar nafaqat qonunga, shu bilan birga o'tmishdan davom etib kelayotgan muqaddas tartiblar, qoidalar hamda hokimiyatga itoat qilishadi.

Bunga misol sifatida patriarxal hukmronlik – jamoa davri (Temeinschaft) boshliq tipi «janob», boshqaruv shtabi-xizmatchilar, xodimlar «janob»ga quloq soladi. Patriarxal tip hukmronlik oila tuzilishiga o'xshashdir.

«Oila ittifoqi o'z mohiyatiga ko'ra an'anaviy hukmronlik munosabatining hujayrasiga o'xshashdir». Bu tizim gemaynshaft va gezelshaft (F.Tennis) tipidagi strukturani eslatadi.

Veber monarxning meroslik, vorisiylik an'anasining ba'zi foydali tomonlari haqida ham ijobiy fikrlar aytadi: «bu legitimlik qoidasini ham zaifligi va hatto izchil bo'lmaganligi buni taqozo etadi», – deydi. Shaxsiy sodiqlik asosida ham mansabga ko'tarilish yoki ierarxik zinapoyadan yaxshi joyni egallash mumkinligi haqida ham qimmatli fikrlar bayon qilingan.

Veber an'anaviy hukmronlikni ikki shaklini ko'rsatadi: sof patriarxal va sosloviya tuzilishidagi boshqaruv. Birinchi holda,

xizmatkor shaxsan hukmdorga to'la bog'liq va qaram bo'ladi, ba'zi hollarda, tanish yoki qarindoshlari orasidan boshqaruvga tortilishi mumkin. Masalan, Vizantiya misolida shunday holatlarga duch kelinadi.

Ikkinchi holda, xizmatkor shaxsan qaram emas, ularni boshqarish «avtokefal» – avtonom shaklda bo'ladi. Bu erda sosloviya ma'ni-shuhrati qoidasi an'anasi ma'lum kuchga ega. Bunga G'arbiy Yevropadagi feodal davlatlar misol bo'la oladi. Patriarxal qaramlik yordamida (qul, krepostnoy) jamiyatni boshqarish oldingi Osiyo va Misrda mamluklar davrigacha davom etdi.

An'anaviy hukmronlikda rasmiy huquq ham yo'q. Munosabatlar esa shaxsiy xarakterga ega.

Hukmronlikning uchinchi sof tipi xarizmatik (grekcha – Xudoning ne'mati), ya'ni individda boshqalarga qaraganda Xudo, tabiat, taqdir in'om etgan yuksak fazilatlar mavjud. Unga qandaydir sehrgarlik qobiliyati, payg'ambarlik nishonasi, ruh va so'zning ulug' kuchini namoyon etuvchi shaxslar kiradi.

Xarizmatik sifatiga esa, asosan, qahramonlar, buyuk sarkardalar, folbinlar, payg'ambarlar, bashoratchilar, genial rassomlar, ko'zga ko'ringan siyosatchilar, jahon dinlari asoschilari: Budda, Iusus, Muhammad alayhissalom, davlat asoschilari Solan va Likurg, buyuk sarkardalar – Aleksand, Sezar, Napoleon. Katta iste'dod, sehrli kuchga ega bo'lgan shaxslar xarizmatik tipidagi odamlar hisoblanadi.

Veber sotsiologiyasida dinning tahlili katta o'rin tutadi. Din sotsiologiyasi «Protestant etikasi va kapitalizm ruhi» asaridan boshlanib, induizm, buddizm, konfutsionizm, daosizm, iudaizm kabi dunyoviy dinlarni tahlil qilishi bilan tugallangan.

«Jahon dinlarining xo'jalik etikasi» qator maqolalarida o'z ifodasini topdi. Bu tadqiqot ikki bosqichda: Diniy etikaning o'zgarishi, protestantizm asketizmi hozirgi kapitalizm qaror topishida o'rni hamda hayotga ratsionallik prinsipini kirib kelishi.

Bunda dinning axloq – qoidalari, iqtisodiy faollik shakllari o'rtasidagi bog'liqlikni kuchayishi haqidagi qarashlar bo'lib, bu marksizmning dinni iqtisodiy munosabatlarning mahsuli, degan qarashga qarshi qaratilganligi diniy omilning ijtimoiy birlik strukturasidagi roliga ham katta e'tibor berilgan.

Agar huquq va davlat sotsiologiyadan, o'zgalardan iborat va

«andoza olish» tarzi tahlil qilingan bo'lsa, din sotsiologiyasida dinning ma'no-mazmuni tadqiq obyekti bo'lgan.

M.Veberda subyektiv tushuniladigan «ma'no» va boshqadan, o'zgadan mo'ljal olish tamoyili bir-biri bilan bog'langandir.

«Jahon dinlarining xo'jalik etikasi» nafaqat din va xo'jalikning o'zaro munosabati aks etgan, shu bilan birga, din va hokimiyat shakllari «din va san'ati», fan, falsafa va hokazolarning o'zaro munosabati ham aks etgan. Shuning uchun Pitirim Sorokin Veberning din sotsiologiyasini «Madaniyat sotsiologiyasi» – deb ta'riflagan edi.

Maqsadga muvofiq harakat, tushunish metodi kabi konsepsiyalar dining kelib chiqishi, uning qadimgi shakllari haqida ratsional fikrlar bayon etishga imkon berdi.

Shuning uchun ibtidoiy jamiyatda diniy tasavvurlar va undan kelib chiqadigan diniy ong tuzilishi, asosan, evolutsionizm prinsipiga asoslangandir. Dyurkgeym aytganidek, din va sotsiallik, din va jamiyat kelib chiqishi va mohiyati jihatidan bir-biriga juda o'xshashdir.

U dinning kelib chiqishi, mohiyati bilan ko'p shug'ullanmaydi, balki dinning «sof ma'no tarkibi»ni o'rganadi.

Jamoaning ma'lum harakati, sharoiti va oqibatlari bilan ish ko'rish kerak. Uni tushunish uchun faqat subyektiv kechinma, tasavvur har bir individ niyati, maqsadidan kelib chiqish, ya'ni hayotning ma'nosidan kelib chiqish lozim.

Yovuz ruhlarni haydash bilan bog'liq tasavvur yoki yomg'ir yog'dirish, ofatlarning oldini olish kabi xayoliy qarashlar ham diniy e'tiqodda muhim o'rin egallaydi.

Din sotsiologiyasida ikkinchi muhim soha-individning odatdan tashqari «g'ayritabiiy» qobiliyati tufayli mag, shaman, payg'ambar bo'lish, ya'ni din asoschisi bo'lishi mumkin. Bu katta sotsial kuch, shu bilan birga irratsional kuch hamdir.

U rivojlangan jamiyatlar dinini, ya'ni jahon dinlarini tadqiqot predmeti qilib oluvchi bu jamiyatlarda ijtimoiy tabaqalanish yuqori rivojlangan bo'lib, intellektual salohiyatlar, yorqin shaxslar timsolida namoyon bo'ladi. Ular nafaqat o'z-o'zini anglashga, balki ta'sirchan kuch sifatida bayon etiladi.

Qaysi sotsial jamiyat, tabaqa va kasbiy guruhlarda dinning urf-odat, rasm-rusum marosimlari ustun bo'lsa, qaerda asketik – faoliyat, qaerda intellektual – dogmatik qarashlar ustun qaralsa, unga rioya qilinsa o'sha erda diniy e'tiqod, diniy amal kuchli bo'ladi.

Magiya – elementi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlar va harbiy sosloviyada; ratsionallik esa ko'proq shahar sosloviyasi, hunarmandlarda yuqori bo'lib, ular tabiat injiqliklariga unchalik bog'liq emas.

Konfutsionlikda umuman, narigi dunyoga ishonish g'oyasi yo'q, lekin uning Xitoy ijtimoiy hayotida o'ynayotgan roliga qarab, jahon dinlaridan biri deb qaraladi. Uning asosiy aqidasi: uzoq umr ko'rish, sog'liq, boylik, bir so'z bilan aytganda, bu dunyoda farovon va baxtli yashash g'oyasi ustuvordir. Shu bilan birga unda qurbonlik toat-ibodat qilish, sig'inish marosimlari muzika, ritmli o'yin, o'yin maqomi, asketizm ham yotdir. Bu din dunyoviy tashvishlarga mo'ljallangan bo'lib, odam bilan Xudo o'rtasidagi individual shaxsiy munosabat istisno etiladi. Tuzum, tartib, garmoniya (uyg'unlik) konfutsionlikni asosiy etikasidir. Konfutsionlik – aql-farosat, tartib-qoida ritsionalizmidir. Tartib, gumanitar insonparvarlik xarakterga egadir. Xitoy aristokratlari uchun Xitoyning klassik adabiyotini bilish, ko'pgina rasm-rusumlarning nozik tomonlarini egallash – bu o'sha dinning sofan'anasidir. Ezgulik hamma narsa ustidan ustuvorlik qiladi. Unda etik ratsionallik va irratsional magiya ustuvordir. Bu erdagi ratsionalizm magiya-sehrgarlik va traditsionalizm – an'anachilik bilan bog'langandir.

Dinlarning asosiy yadrosini tashkil qiluvchi sotsial tabaqalar: konfutsionlikda – jamiyatni uyushtiruvchi byurokrat; iudaizmda-dunyoni sehrli bo'ylab kezuvchi monax – kuzatuvchilar (mutohirlar); islomda – bo'ysundiruvchi itoat qildiruvchi jangchilar; xristianlikda – dunyo bo'ylab darbadarlik qiluvchi hunarmandlar.

Veberni dinning quyi bosqichi nuqtasida turuvchi tabaqa ham qiziqtirdi.

Yuqori tabaqada bu dunyo tashvishlari bo'lsa, past qatlamda tarki dunyochilik, narigi dunyoga intilish aqidasi ustuvor bo'ladi. Dinlarning dunyoga munosabati deyarli bir xilda ifodalanadi.

Konfutsionlikda dunyoni yaxshiligi, buddizmda – dunyoning yomonligini inkor etish; Hindiston – diniy etik ta'lim beshigi bo'lib, dunyoni nazariy va amaliy inkor etuvchidir. Ba'zi dinlar dunyoni yaxshilash va tuzatish bilan idrok etadi. Bunga Islom, Xristian, Zoroostrizm ta'limotlari muvofiq keladi. Dunyoni qabul qiladimi va qanday darajada, shuningdek, siyosat sohasida, umuman, hokimiyat va zo'rlikka diniy etikaga bog'liq tomonlari haqida fikrlar din dunyoni

idrok etish bilan birga siyosat va zo‘rlikni ham istisno etadi. Bu erda buddizm ko‘proq ana shu etikaga muvofiq keladi, hatto tayanadi (zo‘rlik xristianlikda ham xos emas). Dunyo dinlari soteriologik, ya’ni xaloskorlik muammosi diniy etikada markaziy o‘rin egallaydi. O‘zini qutqazish, o‘z harakati bilan (buddizm), vositachi yordamida (iudaizm, islom, xristianlik), ma’lum marosimlar yordamida yoki turli shakldagi boshqa g‘ayri tabiiy kuchga umid qilib sig‘inish, intilish bilan yashovchi toifa odamlar mavjuddir. Biz bugun nafaqat biron-bir narsaning chiroyli bo‘lishi mumkinligi, balki uning yaxshi bo‘lmasligini, u chiroyli bo‘lganligi uchun ham ezgu yaxshi bo‘lmaganligini e’tiborga olmoq zarurligini bilish, harakatdagi donolikda qandaydir haqiqat bo‘lishi mumkin, ammo u juda yaxshi emas, yaxshi bo‘lmaganligi uchun ham muqaddas, ezgu emasdir.

Yomonlikning biri shaytondan, biri Xudodan, degan aqidani individning o‘zi hal qilishi kerak: uning uchun kim Xudo, kim shayton, o‘zi hal qilishi kerak, degan aqidalar yotadi.

M.Veber sotsiologiyaning boshqa ko‘p sohalariga o‘zining munosib hissalarini qo‘shdi.

Jumladan, shahar rivojlanishi, hukumat tizimi, iqtisodiy tip va sinflar tabiati va hokazo. U sotsiologiyaning eng umumiy xarakteri haqida ham ko‘pgina fikrlar bildiradi.

U: «Biz faqat odamlar hayotini o‘rganmaymiz. Odamlar fikrlovchi va o‘ylovchi mavjudotdir. Biz qilayotgan ishlarimizda ko‘proq ma’no va ahamiyat kasb etuvchi tomonlarni ajratamiz, inson hulqi bilan ish ko‘rgan har qanday fan buni hisobga olishi kerak» – deya ta’kidlaydi.

M.Veber sotsiologiyaga juda katta ta’sir etdi. U sotsiologiyada antinaturalistik orientatsiya oldi. 60-yillarda struktural funksionalizmning inqirozi Veberning antipozitivistik va tarixchilik g‘oyasiga qiziqishni kuchaytiradi. Shu bilan birga uning ba’zi qarashlarini tanqid ham qilindi.

XX asr 70-yillarda vaziyat yana o‘zgardi. Germaniyada o‘ziga xos «Veber renesansi» sodir bo‘lmoqda. Bu tendentsiya K. Zayfarta, M. Shprondel, G. Shmidt, V. Shlyuxter ishlarida o‘z aksini topmoqda. Bu tendentsiya vakillari ratsionallik tamoyilining etik asoslari hamda bu prinsipni o‘zida ko‘proq gavdalantirgan ijtimoiy qatlamni o‘rganmoqdalar. «Sezarni tushunish uchun Sezar bo‘lishi shart emas». Bu Veberning eng sevimli aforizmi edi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Maks Veber hayoti va ilmiy pedagogik faoliyati.
2. Maks Veberning «Ideal tip» nazariyasi va «tushunuvchi» sotsiologiyasi.
3. Sotsial harakat nazariyasi va ratsionallik tamoyili.
4. Din sotsiologiyasi va uning hozirgi zamondagi ahamiyati.
5. Ijtimoiy tabaqalanishda ikki muqobil qarashlar – K.Marks va M.Veber nazariyalarining farqi nimada?
6. Demokratiya rivojlanishida M.Veber nazariyasi va Shumpeter g'oyalarining hozirgi zamon muammolari.
7. Nima uchun Veber din sotsiologiyasining haqiqiy nazariyotchisi va amaliyotchisi deb baholanadi?
8. M.Veberning «Protestant etikasi va kapitalizm ruhi» asarida qanday muammolar tadqiq qilingan?
9. Hozirgi zamon jamiyati tizimida ratsionallik tamoyili va muammosi.

FERDINAND TENNIS SOTSIOLOGIYASI

Ferdinand Tennis 1855-yil 26-iyunda Oldensvort shaharchasi yaqinidagi Shlizvig degan joyda badavlat dehqon oilasida tug'ildi. 1872-yil Strasburg universitetiga o'qishga kirib, 1875-yilda uni tugatdi. U klassik falsafa bo'yicha dissertatsiya himoya qildi. 80–90-yillarda XVIII – XIX asr ijtimoiy falsafasini o'rgandi. 1896-yil Gobes to'g'risidagi kitobi chop etildi. U Leybnits, Spinoza, Nitsshe, Spenser, Marks va boshqalar haqida muhim maqolalar yozdi. 1921-yil «Marks hayoti va ijodi» kitobi bosilib chiqdi. F.Tennis Germaniyada klassik sotsiologiyaning asoschilardandir. Olim sotsiologiyani fan sifatida institutlashuvida katta rol o'ynadi. Nemis sotsiologik jamiyati va uning birinchi prezidenti (1909 – 1931-yillar) edi. U Gobes jamiyatini tuzdi va uning ham prezidenti bo'ldi. 1909-yil Kil universitetining avval ekstraordinar so'ngra ordinar professori bo'ldi. Uning asosiy sotsiologik konsepsiyasi 1881-yil yozilgan «Jamoa va jamiyat (madaniyat falsafasi teoremasi)» asarida bayon etilgan (Ye-meinschaftliche u Yeselschaftliche). 80-yillarda sotsial statistika, jinoyatchilik, kambag'allik, o'z-o'zini o'ldirish muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordi. «Jinoyatchilik sotsial hodisa sifatida» (1909), «Axloq» (1909), «Sof sotsiologiyaning asosiy tushunchalari» (1912), «Jamoatchilik fikrini tanqid» (1922), «Mulk» (1926), «Progress va sotsial rivojlanish» (1926), «Sotsiologiyaga kirish» (1931) kitoblari sotsiologiya sohasidagi yirik tadqiqotlar natijasi edi. Unga huquq tarix maktabi asoschisi Savini va ingliz huquqshunosi G.Men katta ta'sir etdi. O'sha davrda Germaniyada turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qarashlar va ular o'rtasidagi bahs tortishuv, hatto kurash jarayoni davom etayotgan edi.

F.Tennis sotsiologiyasida bir tomondan jamoa munosabati va aloqasi, boshqa tomondan ijtimoiy aloqa va munosabatlar yetakchi o'rin egallaydi. Birinchi tur emotsiya (his-tuyg'u), mehribonlik va chin dildan moyillik hamda an'anaga muvofiq o'zini o'xshatish, shu bilan birga emotsioanal bog'liq kuchi umumiy til tufayli Tennis bu haqda shunday yozadi: Men quyidagi ijtimoiy munosabat tiplarini farqlayman: 1) urug'chilik munosabati tabiiy, bunga birinchi navbatda urug'chilik yoki qon-qardoshlik munosabati kiradi; 2) qo'shnichilik munosabati, ya'ni birgalikda yashash bilan xarakterlanuvchi nikoh va qisqa ma'noda oilaviy hayotga xos, ammo tushunchada kengroq

ma'noga ega; 3) ma'naviy yaqinlik yoki qarindoshchilik ongiga asoslangan do'stlik munosabati.

Odamlarning o'zaro munosabatlarini ikki tipi alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchisi, tabiiy-instinktiv iroda, ya'ni o'tmish ajdodlardan meros qolgan tafakkur tarzi va idroki bo'lib, odamlarning qarashlari, axloqi va vijdonida namoyon bo'ladigan jamoa tipi. Ikkinchisi, o'ylab – fikrlashga asoslangan ijtimoiy munosabat bo'lib, ratsional iroda, ya'ni aqlli irodadir. Uning xususiyati shundaki, u ongsizlik bilan birga mavjud bo'ladi, ammo tabiiy irodadan farq qiladi. Bu ikki xil iroda ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan, maqsadga muvofiq vositani tanlaydi, jarayonni aniq anglashga tayanadi.

Tabiiy iroda jamoa o'y-fikriga asoslangan jamiyatni yuzaga keltirdi. Jamoa, masalan, oilada va xalqda mavjud bo'ladi hamda u tarixan birlamchidir. Tarixiy jarayonda jamoa jamiyat tomonidan siqib chiqariladi. Bu ham tabiiy-tarixiy jarayon. Tennis yozadi: «Madaniyat rivojlanishi jarayonida ikki davr bir-biriga qarama-qarshi turadi: jamiyat davri jamoa davrini almashtiradi. Keyingisiga ijtimoiy irodaga asoslangan kelishuv, odat, din xarakterlidir; birinchisi uchun shartnoma, siyosat, jamoatchilik fikri xarakterlidir. Bu konsepsiya sotsiologiyani «madaniyat sotsiologiyasiga», tarixni esa madaniyat tarixiga olib borib taqaydi».

Tennisning erk-iroda tushunchasiga e'tibori muhim o'rin egallaydi. Irodasiz inson hulqi sariq chaqaga arzimaydi. «Har qanday ma'naviy faoliyat – deb yozadi, Tennis, – tafakkurning ishtiroki bilan xarakterlanadi, erk-irodada tafakkur mavjud, tafakkurning o'zida esa erk-iroda bor. Iroda insonning sifati, fazilati sifatida odam tafakkuri darajasining kuchi bilan belgilanadi».

U individning ijtimoiy hulqi masalasida ham ratsional fikrlarni bayon etdi. Bu sohada u M.Veber tipologiyasidan foydalandi. Bu tipologiya: aqlli maqsad, qadriyat – ratsional, affektiv va sotsial hulqning an'anaviy shakli. Irodani aql bilan o'xshatish, bir xil hodisa deb bilish ham xarakterlidir. Birgalikdagi ijtimoiy hayotda intilish, istak, tilak qandaydir noma'lum kuchdan emas, balki aqldan, aql orqali ro'yobga chiqadi.

Tennisning «jamoa» va «jamiyat» konsepsiyasi orqali sotsiologiyani rasmiy, sof, amaliy va empirik sotsiologiyaga ajratdi va ularning har birining o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflab berdi. «Agar sof sotsiologiya sotsial mohiyatni fikrlash va qayd etishni osoyishtalik

holatida qarasa, amaliy sotsiologiya esa dinamik holatda, ya'ni ularni harakatiga qaraydi. Amaliy sotsiologiya sotsial hodisalar tahlilini rivojlanish nuqtayi nazaridan rivojlanish jarayonini ratsionallikni oshib borishidir» – deb ta'kidlaydi. Tennis jamiyat – Yeselschaftliche ingliz tilida societas emas, «association» deb qabul qilingani hamda bu tushunchalarning hamjamiyat, hamjamoa tushunchalar bilan bo'lgan o'zaro munosabatini ham yoritishga harakat qildi. U jamoaga xos «ijtimoiylik» o'rnini tom ma'nodagi ijtimoiylik egallaganligini qayd etadi. Bu esa oila, huquq, axloq, xo'jalik yuritish, shahar va qishloq hayoti, din, siyosat, ijtimoiy fikr, davlat va boshqa ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish imkoniyatini yanada kengaytirdi. Tennis tufayli «Volyuntarizm» tushunchasi fanga kirib keldi.

Ijtimoiy aloqa hamda munosabat shakllarida jamoa va jamiyat asosiy o'lchov bo'lib xizmat qildi. Ijtimoiy hayot mohiyati yoki shaklini uchga bo'ldi: ijtimoiy munosabatlar, guruhlar, korporatsiya yoki birlashmalar. Ijtimoiy munosabatlarning obyektiv xarakterini, ya'ni individlar o'rtasida sodir bo'ladigan zaruriy jarayon ekanligini qayd etdi.

Uning sotsiologiyasida ijtimoiy hayotning statik va dinamik jarayoni o'z aksini topgandir. Fanning erkinligi bu siyosatdan erkin bo'lishdir. Sotsiologiya va siyosatning o'zaro munosabati masalasini keng darajada qo'ydi. Sotsial nazariya va sotsial amaliyot, ya'ni bilish va manfaat bir-biri bilan bog'liqdir, dedi. Ijtimoiy qadriyatlarni tadqiq etish, xususan sotsiologik, ilmiy, obyektiv, asosda o'rganish siyosat uchun ham muhim asos bo'ladi. Siyosat hunarlarning biri bo'lib, fan erishgan yutuqlardan foydalanadi. Agar fan qadriyatlarni o'rganish, tadqiqot predmeti hisoblasa, siyosat esa buni faoliyat asosi qilib oladi. Tennisning fanning siyosatdan erkin bo'lishi haqidagi aqidasi romantizmning siyosiy falsafasiga qarshi qaratilgan edi. Albatta, u bu ikki faoliyat turi o'rtasida o'tib bo'lmaydigan to'siq qo'ymoqchi emas, balki siyosatni «ilmiylashtirish» tarafdori edi. Eng muhimi siyosatchilar bilan sotsiologlar o'rtasida yaxshi aloqa, ittifoq bo'lishi zarur. Yaxshi siyosatchi sotsiolog bo'lishi, shu bilan birga sotsiolog siyosatchi bo'lishi mumkin. Bir kishi har ikkala rolni oqilona uddalashi mumkin.

Tennis G'arb sotsiologiyasida birinchi bo'lib sotsial struktura muammosini qo'ydi va uni o'rganishni yo'lga qo'yish bo'yicha fikrlarini bayon etdi. Bir xalq ichida o'zining iqtisodiy sharoiti, o'zining hayotiy odati va turmush haqidagi qarashlari bilan bir-biridan

ancha uzoqlashgan. Turli qatlam, sinf, sosloviyalarning tinch yashashi va hamkorligini amalga oshirish, sotsial masalaning asosiy mazmunini tashkil etadi. Sotsial masala uch katta shaklga ega: iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayot. Iqtisodiy hayotning muhim elementi mehnat va uning tovar ishlab chiqarishidir. Qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishi bilan bog'liq (qishloq va shahar) ijtimoiy hayotning bu sohasi inson hayotida nafaqat muhim, balki belgilovchi rol o'ynaydi.

Tennis jamiyat rivojlanishi mulkchilik shakllarining rivojlanishi ekanligini, dunyoviy hayot bilan bog'liq faoliyat – feodallar, dvoryanlar yoki ritsarlar – bevosita mulkdorlar ekanligini yer va boshqa vositalarning egasi ekanligini, boshqa qism esa ruhoniylar, cherkov ierarxiyasida band bo'lganlar bo'lib, jamiyatda katta maqeiga egaligini aniqlaydi. Navbatdagi sosloviya qo'lida puli bo'lgan sudxo'rlar, sanoatchilar bo'lib, ular, asosan, shahar hayoti bilan bog'liqdirlar. Bular, asosan, burjuaziya namoyandalarini tashkil etadi. Mulk egallari davlatda hokimiyatga erishish uchun bir-biri bilan kurashadi. Bu kurash asosida manfaat yotadi.

Jamiyatning pastki qatlamini – katta mehnatkash omma mehnat bilan, ishlab chiqarish bilan (qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishi) banddir. Xalq boshqaruvchi sinfni boqadi. Boshqaruvchi sinfdan esa xalq o'rtasida yetakchi bo'lishi sud, boshqarish, maorif, diniy marosimlar bajarish, ma'naviy rahbarlik kabi fazilatlarni ko'radi. Ular bir-biri bilan bog'liq ekanligini sezadi va anglaydi. Hukmron tabaqa Xudoning «Karomati» bilan hukmron bo'lib qolaveradi.

XIX asrgacha Yevropaning barcha mamlakatlarida aholi tarkibi quyidagicha edi:

Birinchidan, «dehqon»lardan (hatto bir parcha yeri bo'lganlar ham) iborat bo'lib, ularning yashashlari uchun ma'lum maosh beriladi.

Ikkinchisi, katta qismi hunarmandlar (ustoz va uning o'rinbosari, shogirdlar) va kam qismi «shaharlik». Ular ham dehqonlarning qishloq jamoasiga o'xshash sex, korporatsiyalarda birlashishi, ba'zida katta hududdagi jamoat yaylovchi, ko'proq o'rmon va suvga egalik huquqi borlar edi. Yer egalari, ayniqsa, sudxo'rlarning ochko'zligi quyi qatlamga katta iqtisodiy ziyon etkazardi. Xalqning ma'naviy dunyosiga, asosan, din vakillari rahbarlik qilardi. Ruhoniylar Xudoga yaqin kishilar sifatida hukmron tabaqaga aylanib, Iso payg'ambar haqidagi turli rivoyatlar tarqalgan edi. Tennis: ruh umumiyligiga diniy uylar mulk umumiyligiga esa kommunizm qaratilgan bo'lib, haqiqiy

nasroniylar istak va umidlari bo'lgan din ruhini hayotga singdirishga harakat qiladi.

Ijtimoiy adolatsizlikka qarshi ijtimoiy harakatlar ham namoyon bo'laveradi. Quyi qatlam hukmdorlarga, hatto ruhoniylarga o'z noroziliklarini ochiq namoyish etdilar. Angliyada janoblar va ularga qaram qatlam bo'lsa hech qachon hayot yaxshi bo'lmaydi. «Nima uchun lordlar eng oliy tabaqa hisoblanadi? Nima uchun ular quyi tabaqalarni ezadi, haqqini o'zlashtiradi?. Vaholanki, biz hammamiz Odam Ato va Momo Havodan, kelib chiqqanmiz. Nima uchun ular ustun, yuqori imtiyozli tabaqa bo'ladi? Ularning bizlardan ustunligi nimada? Hukmdorlarning boyligining barchasi adolasizlik, uydirma tufaylidir. Hamma teng bo'lishi kerak», degan shiorlar paydo bo'ldi. Tomas Myuntser huddi shunday ruhda katta guldurosli qarsaklar ostida nutq so'zladi: «Janoblarning o'zi o'z xalqi orasidan dushmanlar etkazayapti. Kelajak yaxshi bo'lishi uchun ijtimoiy adolatsizlikka nuqta qo'yish kerak!» Yevropada ana shunday shiorlar ostida dehqonlar urushi vujudga keldi. Tennis XVI – XVIII asr Yevropa ijtimoiy hayotini juda yaxshi tahlil qiladi, ayniqsa, Germaniya hayotiga ko'p e'tibor qaratadi. Xalq turmush darajasi bilan bog'liq ijtimoiy masalalardagi ko'pgina muammolar chuqur tahlil etiladi, tavsiya qilinadi.

Tennis Yevropadagi inqiloblar, Angliyadagi sanoat, Fransuz siyosiy inqiloblariga ham katta qiziqish bilan qaradi. Germaniya, Gollandiyada suv va shamol tegirmonlari, to'qimachilik mashinalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi dvigatelda ishlaydigan bug' mashinasining keng qo'llanishiga olib keldi. Bu «sanoat revolutsiyasi»ning debochasi edi. Sanoat inqilobi Yevropaning siyosiy va sotsial hayotini o'zgartirib yubordi. Bu yangi jamiyatga olib keldi. Eski jamiyat feodal sosloviya hukmronligi ostidagi dehqon va hunarmandlardan iborat bo'lgan, yangi jamiyat – burjuaziya va yollanma ishchilar hamda ziyolilardan iborat burjuaziya o'zini insoniyatning namunasi sifatida qaradi. Yangi iqtisodiy tuzum tanasi bo'lgan tadbirkorlik ruhi rivojlandi. Xalqaro savdo ham taraqqiy topdi.

Siyosiy inqilob yangi jamiyatda yangi davlat shaklini yaratdi. Unda yangi hukmron qatlam shakllandi. Yangi davlat mamlakat ichida erkin nikoh va assotsiatsiyalar erkinligini ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratdi. Sanoat va siyosiy inqilob ma'naviy inqilobga yo'l ochdi. Bu o'z navbatida ijtimoiy kuch sifatidagi yangi dunyoqarashni vujudga keltirdi. Bu yangi dunyoqarash jamiyat va davlatga rahbarlik

qilishga mo'ljallangan bo'lib, diniy g'oyadan mustaqil ravishda amal qila bordi. Ma'naviy inqilob sohasida Germaniya birinchi o'rinda turardi.

Uch inqilob Buyuk Britaniyadagi ko'proq iqtisodiy Fransiyadagi siyosiy, Germaniyadagi esa ko'proq g'oyaviy ma'naviy sohadagi inqiloblar ta'siri hamda uning oqibatida yangi dunyo qaror topdi, har tomonlama kengayishi va rivojlanishi uchun katta turtki berdi. Yangi dunyo, yangi jamiyat, yangi davlat, yangi dunyoqarash, yangi ijtimoiy ong, barchasi jamuljam bo'lib, yangi sivilizatsiyani, eng avvalo, ijtimoiy hayotning barcha sohasida teng huquqlik: iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy va hokazolarda namoyon bo'ladigan inson huquqlari, shaxs erkinligi e'tiqod erkinligi, fikrlar xilma-xilligi, matbuot va so'z erkinligini qamrab olgan edi.

Shu bilan birga, Tennis turli ijtimoiy guruh tabaqa, qatlam, sinflar, jumladan, burjuaziya va proletariat, eski sosloviya o'rtasidagi ziddiyat, qarama-qarshilik, kurash haqidagi o'z fikrlarini bildirdi.

Sotsiologiyaning yirik nazariyotchisi va amaliyotchisi bo'lgan F.Tennis ijtimoiy hayotning ko'p sohalarini o'rgandi, tahlil qildi, umumlashtirdi, xulosalarini berdi. Tennis fan tarixida, ayniqsa, sotsiologiya nazariyasi va uning tarixida o'lmas sotsiologik meros qoldirdi. U 1936-yil 11-aprelda Kile shahrida vafot etdi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Ferdinand Tennisning hayoti va faoliyati.
2. Olimning jamoa va jamiyat haqidagi nazariyasi.
3. F.Tennis qarashlarida jamiyat ijtimoiy tuzilishi masalalari.
4. Yevropadagi uch inqilob va uning yangi dunyoni qaror topishidagi roli haqida.
5. F.Tennis sotsiologiyasida erk-iroda muammosi.
6. F.Tennis qarashlarida individ jamoa – jamiyat muammosi.

PITIRIM SOROKIN SOTSIOLOGIYASI

Pitirim Aleksandrovich Sorokin 1889-yil 21-yanvarda Vologda guberniyasining Turya yarensk uezdida tug'ildi. Otasi uni cherkovda cho'qintirgach, yepiskop Pitirim sharafiga ismini Pitirim deb qo'ydi. Otasi, Aleksandr Prokopevich duradgor bo'lib, cherkovni qayta ta'mirlash ishlarida qatnashardi. Onasi, Pelagiya Vasievna dehqonlar avlodidan edi. Pitirim oilada o'rtancha farzand bo'gani uchun 1902-yilda Gamsk ikki yillik maktabiga o'qishga kiradi. Maktabni a'lo baholar bilan tugatib, Kostroma guberniyasida joylashgan Xrenovsk cherkor – o'qituvchilar maktabiga yo'llanma oladi.

O'n besh yoshida Pitirim Sorokin faol revolutsioner sifatida eserlar partiyasiga a'zo bo'ladi. 1906-yilda ijtimoiy-siyosiy faoliyati uchun qamoqqa olindi. Uning dunyoqarashida keskin burilishlar bo'la bordi. Diniy aqidaparstlik, yarim taqvodorlik, hatto rus pravoslav teologiyasidan voz kechib, tabiiy-ilmiy falsafiy ilmiy-evolutsion nazariyaga qiziqishi kuchaydi. Sotsialistik va demokratik g'oyalarga qiziqdi. U ko'proq integral va idealistik «yo'nalishlarga, jumladan, «individualizm uchun kurash», «yashash uchun kurash» noiqtisodiy omillar kabi sotsial jarayonlar determinatsiyasi va odam hulqi kabi masalalarga katta e'tibor berdi.

1909-yilda P.A.Sorokin Sankt-Peterburg psixonevrologiya instituiga o'qishga kiradi. Shu yerda institut rektori V.M.Bexterev taklifiga ko'ra jahonda ko'zga ko'ringan sotsiologlar De Roberti va M.M. Kovalevskiylar bilan birgalikda Rossiyada birinchi marta 1919-yilda sotsiologiya kafedrasini ochdilar. Sorokin shu kafedra bilan yaqindan aloqa bog'ladi, bir qancha vaqt M.M. Kovalevskiyning shaxsiy kotibi ham bo'lib ishladi. 1911-yil Rus huquqshunosligi fakultetiga o'qishga kiradi.

Pitirim Sorokindagi iste'dod yoshligidanoq namoyon bo'la bordi. Hali yigirmaga ham kirmagan yosh yigitning ilmiy maqolalari jurnallarda chop etila boshlandi. 1913-yilda «jinoyat va jazo, qahramonlik va mukofot» mavzusida diplom ishini himoya qildi. Diplom ishiga ko'lab ijobiy taqrizlar yozildi. O'z davrining mashhur sotsiologi M.M. Kovalevskiy: «Kelajakda rus sotsiologiya kutubxonasida uning birgina tomi bo'lib qolmaydi» – deb uning

sermahsul ijodiga ishorat qilgan edi. Sorokinning ilmiy maqolalari 1914-yilda «Sotsiologiyada yangi g'oyalar» kitobida chop etildi va yuqori baho oldi.

Universitetni tugatganidan keyin Sorokin «Jinoyat huquq va sud jarayonida kasbiy lavozim tayyorlash» kafedrasiga ishga qabul qilindi. 1915-yilda magistrlik imtihonlarini a'lo baholarga topshirdi. Rus jamiyatshunos olimlari, uning iste'dodi va qobiliyatini yuqori baholadilar.

1917-yilda Petrograd universitetida unga dotsentlik lavozimini tavsiya etishdi. Uning ilmiy rahbari mashhur sotsiolog olim M.M.Kovalevskiy edi. Yosh Pitirim sotsiologiyada integral usulga juda qiziqdi va integralizm yo'nalishi bilan keng shug'ullandi. Keyinchalik bu unga katta obro' va shon-shuhrat keltirdi. 1916-yilda mashhur rus sotsiologi M.M.Kovalevskiy vafot etadi. Rossiyada «Kovalevskiy nomidagi 1916-yil sotsiologik jamiyat» tuzildi va bu jamiyat 1920-yilda Petrograd universitetida sotsiologiya fakulteti ochilishiga olib keldi.

Rossiyadagi siyosiy voqealar uning ilmiy orzularini amalga oshirishga xalaqit berdi. U jamiyat hodisalariga, umuman, ijtimoiy jarayonlarga juda sinchkovlik bilan qaradi. Jamiyatning ikki inostasi – «normal», ya'ni davrning nisbatan barqarorligi (jamiyat rivojlanishining bu holatiga bir xil ijtimoiy qonunlar muvofiq keladi) va «kulfatchilik» (ijtimoiy nobarqarorlik davri va dezorganizatsiyasi – urush, ocharchilik, epidemiya, inqilob va h.k. «normal» davridagi sotsial qonunlar harakati buziladi). Sorokinning siyosiy faoliyati aks etgan asarlarida uning o'z taqdiri yotardi.

1917-yil Rossiyasi kabi Sorokin hayoti ham ko'pgina voqealarga boy bo'ldi. Ilmiy ishlarini ham bir chekkaga qo'yib, inqilobiy jarayonga kirishib ketadi. U davlat dumasi, muvaqqat hukumat faoliyatida faol qatnashadi. Butun Rossiya dehqonlar s'ezdini tashkilotchilaridan bo'ldi. Eser partiyasining gazetalari «Xalq ishi» va «Xalq irodasi»ning muharriri edi. Bir qancha vaqt A.F. Kerenskiyning shaxsiy kotibi ham bo'lib ishladi. Uning o'sha yillarda «Milliy avtonomiya va davlat birligi», «Boshqarish shakli», «Ijtimoiy tenglik muammosi», «Kelajak dunyo asoslari», «Urush sabablari va tinchlik tomon yo'l», «Monarxiya va respublika nima?», «Sotsializmning mohiyati» nomli asarlari chop etildi.

O'sha yillarda bolsheviklarga qarshi chiqishda ayblanib yana qamoqqa olindi. U qamoqdagi davrini «o'limdagi hayot» deb atadi.

Erkinlik ustidagi zo‘ravonlik hukmron bo‘lgan jamiyatda siyosiy faoliyat olib borish murakkab ekanligini anglab, ilmiy faoliyatga qaytdi. U birinchi Petrograd universitetiga ishga kirdi. Keyinchalik esa Ikkinchi Petrograd universitetida ishlay boshladi. Shu bilan birgalikda boshqa o‘quv yurtlarida ham ma’ruzalar o‘qidi. U yangi ilmiy yo‘nalish «Vatanshunoslik» kursini tavsiya etdi. Bu kursda tabiiy va gumanitar fanlar sintezi o‘z ifodasini topishi zarur edi.

1919-yili Pitirim Sorokin Rossiyada birinchi sotsiologiya fakultetini tashkil qildi va uning birinchi dekani bo‘ldi.

1920-yilda esa Sorokin universitetda sotsiologiya fanidan birinchi professor bo‘ldi. Bu davrda u keng qamrovli ommabon darsliklar, jumladan, huquq va sotsiologiyadan qo‘llanmalar yaratdi. Shu yili uning ikki tomlik «Sotsiologiya tizimi» nomli yirik kitobi chop etildi. Kitobda urush, ocharchilik – inqilobni umumlashtirishga harakat qildi.

1922-yil aprelida Petrograd universiteti «Sotsiologiya tizimi» kitobi atrofida keskin tortishuv, bahslar bo‘ldi. Unda o‘sha davrda ko‘zga ko‘ringan yirik jamiyatshunos olimlardan N.I. Kareev, K.M. Toxtarev, I.M. Grevs, I.I.Lapshin, S.I. Txorshevskiy, N.A. Gradeskul chiqish qilib kitobni rus sotsiologik maktabining eng katta yutug‘i deb baholadilar. O‘sha bahsdan qolgan stenogrammada muallif sha’niga uzoq qarasaklar bo‘lganligi qayd qilingan.

Sho‘ro hukumatiga birinchi sotsiolog professor yoqmadi. N.Buxarinning «Tarixiy materilizm nazariyasi» kitobiga (1922) yozgan taqrizini bahona qilib uni o‘qituvchilikdan chetlashtirishdi.

1922-yil yozda mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyat yana keskinlashdi. Yana qamashlar boshlandi. Bu davrda ijtimoiy fanlar dasturi, mazmuni ustidan kommunistik nazorat qilish kuchaytirilgan edi. Bu esa Sorokinning taqdiriga yomon ta’sir etdi.

1922-yil avgustda dunyoga mashhur iqtisodchi N.I.Kondratyev taklifiga binoan Sorokin Moskvaga keldi. O‘sha kuni ko‘pgina olimlar, jumladan, Berdyaev, Frank, Osorgin va boshqalar hibsga olinadi. Ularning ko‘plari chet elga chiqarib yuboriladi.

1922-yil 23-sentyabrda 33 yoshli P.A.Sorokin ham kindik qoni to‘kilgan Vatanini umrbod tark etishga majbur bo‘lib, oilasi bilan chet elga ko‘chib ketishga otlanadi. Avval Berlin, so‘ngra, Pragada yashadi. Chexoslovakiya Prezidenti Mosarika Sorokinni Pragaga taklif etdi. Keyin Amerika safari boshlanadi. Shunday qilib, 1923-

yildan to umrining oxirigacha AQShda yashab ijod etdi va o'sha yerda 79 yoshida vafot etdi.

Ko'zga ko'ringan amerikalik sotsiolog olim E.Xayesa, E.Rossa P.Sorokinni rus inqilobi haqida ma'ruzalar bo'yicha o'qishga taklif etdi. Bu Sorokin uchun ayni muddao ish edi.

Uning til o'rganish qobiliyati juda kuchli bo'lib, tez orada ingliz tilini puxta o'rganib, Minnesot universitetida ingliz tilida ma'ruzalar o'qiy boshladi. Sorokin o'zining memuarlarida yozib qoldirganidek, o'zi uchun uch saboqni oladi:

1. Hayot qanchalik og'ir bo'masin, u juda go'zaldir, yoqimlidir, mo'jizalidir. Hayot baxtli bo'lib boraveradi, qalb esa egilmas, bukilmasdir.

2. O'z ideallaringga, g'oyalaringga sodiq qolgin.

3. Zo'rlik, baxillik, adolatsizlik hech qachon na moddiy, na axloqiy boylikni yaratadi.

Bu uch saboq uning dunyoqarashini, falsafasining asosi edi.

P. Sorokinning Amerikadagi faoliyati juda qizg'in va mazmunli o'tdi, bu yillarda jahonga mashhur sotsiologiyaga oid ko'plab kitoblar yaratdi. «Revolutsiya sotsiologiyasi» (1926), «Sotsial mobillik» (1927), «Hozirgi zamon sotsiologik nazariyasi» (1928) hamda K.Simmerman bilan hammualiflikda «Shahar va qishloq sotsiologiyasi asoslari» va nihoyat uch tomlik «Qishloq sotsiologiyasining antologiya tizimi» asarlarini yozdi. Bular Rossiyada boshlangan «sotsiologiya tizimi»ning davomi edi.

Sorokin sotsiologik ta'limotida o'zaro ta'sir ijtimoiy jarayonlarning oddiy modeli sifatida qaraladi. Uning elementlari deb individ, harakat (akt) va muomala yurgizuvchilar (ular interaktsiya simvollaridir: til, yozuv, muzika, san'at, pul).

O'zaro ta'sir antogonistik yoki birdamlik, bir tomonlama yoki ko'p tomonlama, shablonli yoki uni teskarisi sifatida namoyon bo'ladi. O'zaro ta'sir ijtimoiy guruhga o'tadi. Sotsial guruhlarning o'zaro ta'sirlari yig'indisi – aholishunoslikdir. Sotsial guruhlar elementar bo'lishi (oila, jinsiy belgilar, yoshiga qarab, diniy va boshqa me'yordagi), kummulyativ (guruhiy elementlarni qushiluvchi, masalan, kasta, millat, sinf va h.k.) va murakkab (aholi – elementar va kummulyativ guruhlarning kombinatsiyasi) bo'lishi mumkin. Uning sotsial mexanika nazariyasi «jamiyat fiziologiyasi»ga taqqoslangan edi. Bu o'ziga xos ijtimoiy jarayonlarni biosotsiologiya va bixevioristik

tasavvuri edi. Odam hulqiga kosmik, biologik, sotsial-psixologik omillar ta'sirini ko'rsatdi.

Sotsial genetikani u aholi tuzilishi, ijtimoiy sohalarning vujudga kelishi rivojlanishining asosiy yo'lini o'rganishi deb qaradi. U ijtimoiylikni Kontcha statik va dinamik bo'lishdan chekindi.

Sorokinning nazariy sotsiologiyasini uch tarmoqqa bo'lib o'rganish mumkin:

1. Sotsial analitika (sotsial anatomiya yoki morfologiya).
2. Sotsial mexanika (ijtimoiy jarayonlar obyekti).
3. Sotsial genetika (jamiyatning taraqqiyot nazariyasi).

Kezi kelganda, shu holni ta'kidlash joizki, Sorokinning Amerikadagi dastlabki hayoti va faoliyati silliq bo'lgani yo'q. Unga ko'proq siyosiy emigrant sifatida qaradilar. Ana shunday paytda F.Giddens, Ch.Kulli, E.Rosselar uni himoya qilib chiqdilar.

Sorokinning «Sotsial stratifikatsiya va mobillik» asari G'arb sotsiologiyasida stratifikatsiya va mobillik muammosi bo'yicha klassik asar sanaladi. Novatorlarcha yozilgan bu asarda jamiyat ichidagi sotsial dinamik jarayonlar tasvirlangan. Unda gorizontal va vertikal mobillik haqida va individlarni ijtimoiy zinapoyalarni yuqorisiga erishish mumkinligi va bunga erishishning vosita va kanallari haqida keng fikrlar bayon etilgan.

Sorokin sotsial mobillikni jamiyatning tabiiy, normal holati deb qaradi, bu nafaqat individ guruhlarning joy almashishi, shu bilan birga sotsial obyektlar (qadriyatlar, ya'ni odamzot tomonidan yaratilgan va modifikatsiya qilingan barcha ahamiyatli, foydali narsalar va ularning bir ijtimoiy pozitsiyadan boshqasiga o'tishida muhim rol o'ynaydi. Gorizontal mobillikda o'sha darajada joylashgan ijtimoiy stratifikatsiya bir guruhdan boshqasiga o'xshash bo'lsa, vertikalda individning bir pog'anadan boshqasiga, ya'ni yuqoriga pastga – ijtimoiy ierarxiyaga yoki pasayish jarayonidir. Vertikal mobillik Sorokin fikricha bu hol uch shaklda qaralmog'i zarur: siyosiy, iqtisodiy, kasbiy. Masalan, bolsheviklar ilgari ijtimoiy zinapoyadan pastda edi. Revolutsiya tufayli lavozimlarni egallab rus jamiyatida o'z mavqei maqomiga chor aristokratiyasiga xos erishdilar. Albatta, bu jarayon jamiyatning normal yoki nonarmal rivojlanishiga bog'liq. Agar jamiyatda barqarorlik bo'lsa, unda oqilona qonun, qoidalar bilan tartibga solinadi, nazorat qilinadi. Agar jamiyatda to's-to'polon

bo'lsa, unda bu jarayonning buzulishiga olib keladi va uning oqibatlari juda xatarli bo'ladi.

Jamiyat ichki elitasida aylanma sirkulyatsiya sodir bo'lgan (V.Pareto). Sotsial stratefikatsiya – odamlarning sinflar va ierarxik pog'anlarga tabaqlanishidir. Uning asosin huzur va imtiyozlarning, mas'uliyat va vazifalarning tengsiz bo'linishidir. Sotsial stratifikatsiya doimo o'z shaklini o'zgartirib kelgan. Hatto odamlar tengligini e'lon qilgan jamiyatlarda, jumladan, sobiq sotsialistik davlatlarda ham mavjud edi.

Sorokinning ilm-fandagi novatorligi, nazariy va maxsus sotsiologiya sohasidagi pionerligi, ko'pgina yangi tushuncha, kategoriyalarni yaratganligi Amerika ilmiy jamoatchiligi orasida katta obro' keltirdi. 1930-yilda unga bo'lgan ishonchsizlik, hatto dushmanlik kayfiyati ham batamom barham topdi. Bu ishonchni dunyoga mashhur Garvard universitetida ochilgan sotsiologiya fakultetiga dekanlikka taklif qilinishining o'zida ko'rish mumkin. Dastlab bu taklifni qabul qilmadi. Keyinchalik rozi bo'ldi va bu lavozimda 1930-yildan 1959-yilgacha qariyb 30-yil samarali mehnat qildi. Sorokin ajoyib notiq edi. Uning har bir jumlasida kuchli mantiq sezilib turardi.

Sorokinning zo'r pedagog bo'lganligi to'g'risida ko'plab esdaliklar yozilgan. U juda qobiliyatli notiq edi. Lekin u ruscha talaffuzda gapirishini esdan chiqarmasdi. Sorokin auditoriyada kirganda talabalar uning ma'ruza-suhbatini nihoyatda qiziqib tinglashardi, go'yo o'zlarini sehrlangandek sezardilar. O'z ma'ruzalarida muholiflarini keskin tanqid qilardi. Dekanlik davrida tashkilotchilikni ilmiy faoliyati bilan isbotladi.

U 1935-yilda «700-yildan 1300-yil oralig'ida Arab intellektual rivojlanish yo'li», 1936-yilda «M.avv. 600-yildan 1920-yillargacha materializm va idealizm fluktatsiyasi» asarini yozdi. Uning «Ijtimoiy va madaniy dinamika» asari hatto Marksning «Kapital»idan, Paretonning «Umumiy sotsiologiya bo'yicha traktat»idan ham o'tib ketdi. Bu kapital shox asar katta shov-shuvga sabab bo'ldi.

«Davrimizning inqirozi» (1941), «Odam va jamiyat ofatda» (1951) kabi kitoblari ham unga katta hurmat va shuhrat keltirdi. Hatto o'zining shogirdlari bo'lgan dunyoga mashhur sotsiologlar Tolxatt Parsons, Robert Mertonlar asarlarini ham juda tanqidiy baholadi. «Inqiroz asrida ijtimoiy falsafa» (1950), «Altruistik sevgi», «Sevgi

yo‘li va hokimiyati» (1954) va boshqa qator asarlari sotsiologiya tarixida abadiy muhrlanib qoldi. U 1950-yilda «Krizis asrida sotsial falsafa», «Muhabbat hokimiyati va yo‘li» (1954), «Amerika seksual inqilobi» (1957), «Hokimiyat va axloq» (1959) asarlarini yozdi. Uning bu kapital asarlari dunyoning ko‘p tillariga tarjima qilingan.

P.Sorokin integral jamiyat haqidagi nazariyani ilgari surdi. 1960-yil o‘zining konvergensiya ta’limoti asosida «Qo‘shma Shtatlar bilan SSSRning aralash ijtimoiy-madaniy tipidagi o‘zaro yaqinlashishi» haqida esse yozadi. Pitirim Sorokinning quyidagi satrlari diqqatga sazovordir: «G‘arb liderlari kelajak kapitalizmniki, kommunizm liderlari kelajak kommunizmniki deyishadi. Men har ikkalasiga ham qo‘shilmayman. Insoniyat urushlarning oldini ololsa va hozirgi zamondagi qaltisliklar barham topsa, o‘shanda jamiyat va madaniyatda hukmron kapitalizm ham sotsializm ham emas, o‘ziga xos tip integral sifatidagi jamiyat tipi bo‘ladi. Bu tip kapitalizm va sotsializm tuzumi va turmush tarzi o‘rtasida bo‘lsa ajab emas. Integral jamiyat o‘zida ko‘pgina qadriyatlarni birlashtiradi. Integral tip jamiyat har bir tipdagi keskin nuqsonlardan xalos qiladi».

Bundan tashqari, Sorokin ta’limotida «qadriyat» tushunchasi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Agar Platon tizimida markaziy tushuncha «g‘oya» bo‘lsa, Aristotel uchun «mohiyat», Bekon uchun «eksperiment», «induksiya», Darvin uchun «tabiiy saralash» «evolutsiya» bo‘lsa, Sorokin uchun «qadriyat» tushunchasi alohida ahamiyat kasb etgan.

Ko‘pgina mutafakkirlar ungacha ham «qadriyat» tushunchasi tabiati haqida fikr yuritgan bo‘lsalar-da, ammo hech kim Pitirim Sorokinchalik bu tushunchani har tomonlama chuqur yoritib bera olmadi. U sotsiologiyada qadriyat tushunchasini aniq tizimga soldi, uni metodik jihatdan oqilona asosladi, sharhladi. Qadriyatlarni guruhlashtirish, uning jamiyat taraqqiyotidagi rolini ko‘rsatish, ayniqsa, muayyan tizimga solishga urinish ham muhim ahamiyatga ega edi.

Haqiqat – Go‘zallik – Ezgulik tushunchalaridagi ulkan ma’no – mantiq hamda ularning yaxlit sotsial butunlikka foydali qadriyatga kelib taqalishini ko‘rsatdi. Odamning har qanday ahamiyatli faoliyatini ana shu to‘rt universal tushuncha orqali tushuntirish mumkinligini ta’kidladi. Bu uni inkor qilish yoki boshqasi bilan almashtirish ko‘zlangan maqsadga olib kelmaydi, dedi. Bu yerda ham Sorokinning integralizm usuli ijodiy

qo'llanilgan. Sotsial madaniyat, madaniy qadriyatlar, hulqiy namunalar, davr inqirozi, simvollar, ijtimoiy ko'ngilsizliklar kabi masalalar ham uning asaralaridan o'rin egallagan edi.

Uning payg'ambarona aytgan quyidagi satralari diqqatga sazovordir: «Bizlar qandaydir ikki davr o'rtasidamiz. Bizning o'lib borayotgan hissiy madaniyatimiz yashnab turgan o'tmish bilan ertaga yaratilayotgan kelajak ideatsional madaniyatidir. Bizlar olti asr davom etgan yorituvchi hissiy kun oxirida yashayapmiz, fikrlayapmiz, harakat qilayapmiz. Botayotgan quyoshning nurlari o'tib borayotgan ulug' davrni hali yoritib turibdi. Ammo yorug'lik asta-sekin so'nadi va qalinlashgan qorong'ida bu ulug'likni farq qilish tobora qiyinlashadi hamda ishonchli yo'lni (orientir) kirib kelayotgan oqshomdan izlash lozim. «O'tish davrining bu tuni uning qo'rqituvchi dahshati, qalbni emiruvchi qo'rqinch» bilan bizga qarab tusha boshladi. Ammo uning tashqarisida yangi ulug' ideatsional madaniyat yorug'ligini farq qiladigan yangi avlod – kelajak odamlarini tabriklayapti».

U behuda «qadriyat» tushunchasiga katta e'tibor bermagan ekan. O'zi qadriyatga aylandi. Uning ulug'ligini shundaki, davr ziddiyatlarini yaxshi his etardi, tasavvur qilardi va unga muvofiq fikr bildirdi. Sorokin shunday degan edi: – Madaniy olamning ma'naviy qadriyatlari orasida oliy integral qadriyat – bu ko'rinmas haqiqat – ezgulik – go'zallik birligidir. Insoniyatning bosh vazifasi haqiqat – ezgulik – go'zallikni cheksiz yaratish, to'plash va takomillashtirishdir. Uning bu purma'no fikrlari barcha uchun, ayniqsa, sotsiologlar uchun vasiyatnomadir.

P.A.Sorokinning 40-yillarda yozgan ko'plab asarlarini, jumladan, «Davrimizning inqirozi», «Inson va jamiyatning kulfati» asarlari G'arbiy Yevropada shunchalik mashhur bo'ldiki, hatto uning atrofida turli bahslarga olib keldi. Lekin bu asarlarni ko'pchilik to'g'ri, adolatli baholay olmadi. Hatto uning shogirdlari bo'lgan Tolkatt Parsons va Robert Mertonlar ham ijobiy baholay olmadilar.

P.Sorokin qancha sotsiolog bo'lsa shuncha sotsiologiya bo'ladi, degan fikrida katta ma'no bor edi. Bu fikrini o'z shogirdlari timsolida ham ko'rdi, sinadi. Hayotining so'nggi yillarida yozgan «Zamonamiz sotsiologik nazariyalari» asari ham katta shuhrat qozondi. Bu asariga u mantiqiy jihatdan yondashib, zamonaviy sotsiologik fikrlar rivojlanishini tahlil qildi, struktual va dinamik sotsiologiyada integral tizimni qo'llash kerakligini yana bir bor isbotlab berdi.

Uning Amerika sotsiologiyasidagi obro'si shubhasiz katta edi. Buni 1964-yil 75 yoshida uni Amerika Sotsiologlar Assotsiatsiyasining raisi etib saylaganliklarida ham ko'rish mumkin. P.Sorokin bu sharafli va faxriy lavozimda ekanligida sotsiologiya rivojlanishiga juda katta e'tibor berdi. U «zamonaviy sotsiologiya, albatta, o'zining ijodiy qaddini ko'taradi va ulug' sintez yo'liga yangi qadamlarini qo'yadi» deb, umuman, sotsiologiya rivojlanishini yangi davri boshlanajagani bashorat qildi. Asrning o'rtalarida Amerikada hukumatga qarshi chiqishlar, radikal studentlarning faol harakatlari avjga chiqqan paytda Pitirim Sorokin bu voqealardan chetda qolmadi. U AQSh hukumatining Vetnam urushidagi, ishtirokini ochiq tanqid qildi. Keksalik yillarida hech ham haqiqat, adolat yo'lidan chekinmadi. Pitirim Sorokin hayotining oxirgi ikki yili og'ir kasallik bilan o'tdi. U 1968-yil 11-fevralda Kembridj yaqinidagi, Vinchesterdagi uyida vafot etdi.

Uning vafoti kuni – 11-fevral Amerika sotsiologiya assotsiatsiyasi sotsiologiya faniga oid eng yaxshi kitoblari uchun Sorokin nomidagi Laureat mukofoti ta'sis etildi va uni har yili topshirish marosimi an'anaviy tus oldi.

Nazorat savollari

1. Pitirim Sorokinning Rossiyadagi ijtimoiy – siyosiy faoliyati.
2. Olimning Amerikadagi ilmiy-pedagogik faoliyati.
3. P. Sorokinning integralizm sotsiologiyasi.
4. P. Sorokinning sotsiologiya tarixida tutgan o'rni.
5. P.Sorokinning Rossiyani tark etishining sababi nima?
6. Sorokin nazariy sotsiologiyasining asoslarini nima tashkil etadi?
7. «Sotsial strafikatsiya va mobillik» asarida qanday muammolar ko'tarilgan?
8. Sorokinning qadriyatlar haqidagi ta'limotining hozirgi zamondagi ahamiyati
9. P.Sorokin nomidagi laureat qaysi vaqt va nima uchun beriladi?

TOLKATT PARSONS VA UNING SOTSIOLOGIYADA TUTGAN O'RNI

Tolkatt Parsons (1902 – 1972) XX asr sotsiologiyasining eng ko'zga ko'ringan yirik vakillaridan biri. Amerikalik bu sotsiolog noyob iste'dod egasi edi. U o'ziga xos sintetik tafakkurga ega bo'lib, tabiatshunoslik, iqtisod, sotsiologiya fanlari sirlarini chuqur o'rgandi. U dastlabki mutaxassislik bo'yicha ilm olishni meditsinani (Amxrest kolleji) o'rganishdan boshladi. O'z davrining mashhur iqtisodchisi Uilton Xomilton uning bo'lg'usi dunyoqarashiga katta ta'sir etdi. Yoshligida ijtimoiy fanlarga bo'lgan qiziqishi kuchaydi. Uning taqdiri murakkab kechdi. T.Parsons 1923-yil o'qishni bitirishidan bir yil oldin uning prezidenti Aleksandr Mikldjon tomonidan haydaldi. Kollejda u yoqtirgan professorlardan hech kim qolmadi. U biologiya, falsafa, ayniqsa, I.Kontning «Sof aqlning tanqidi» asarini chuqur o'rgandi. Parsons Angliya adabiyoti kurslarida qatnashmoqchi edi. Aspiranturada o'qishni juda orzu qilardi, hatto meditsina bo'yicha ham shuhrat qozonmoqchi bo'ldi.

T.Parsons aspirantura uchun o'tilayotgan, ammo dasturi mukammal bo'lmagan sotsiologiyaga qiziqdi. Bobosining yordamida London iqtisod maktabida o'qidi. Maktabda L.G.Xobxauza, R.Gani va X.Laskining qarashlari unga juda yoqib qoldi. Ayniqsa, sotsial antropolog Bronislav Malinovskiy intellektual salohiyati unga juda katta ta'sir etdi. Amxrest kollejida iqtisod bo'yicha o'qituvchi bo'lib ishladi, ko'p vaqt o'tmay u ta'siri juda kuchli bo'lgan Maks Veber tavsiyasi bilan Geydelberg shahriga yuborildi. «Men, – deb eslaydi T.Parsons o'zining «sotsializm – nazariya tuzilishi to'g'risida», intellektual avtobiografiya asarida, – birinchi marta Maks Veber haqida Amsterdamdami yoki Londondami eshitganimni eslolmayman. Ammo Maks Veber asarlari menga katta ta'sir etdi. Uning «Protestant etikasi va kapitalizm ruhi» asarini ingliz tiliga tarjima qildim. Avval nomzodlik dissertatsiyasi yoqlashni unchalik rejalashtirmagan edim. Edgar Zamin rahbaligida «yangi nemis adabiyotida kapitalizm tushunchasi» mavzusida ilmiy ish yozishga kirishdim. Men munozarani Karl Marks haqidagi mavzudan ilmiy tadqiqotimda unchalik taniqli bo'lmagan iqtisodchi Luylo Brentano qarashlariga to'xtaldim. Asosiy e'tiborni Verner Zombartning «Hozirgi zamon kapitalizm» nomli yirik asari va Maks Veber ta'limotiga qaratdim. Ilmiy tadqiqotimda quyidagi ikki bosh yo'nalishni tahlil qildim:

1. Kapitalizmning sotsioiqtisodiy tizim sifatidagi tabiati.
2. Maks Veber sotsiologiyaning yirik nazariyotchisi.

Amxrestda o'qituvchilikning birinchi tili hamda dissertatsiya ustida qunt bilan ishlash jarayonida iqtisod va siyosat o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasini o'rganishga kirishish zarurligini sezdim. U nomzodlik darajasini olganimdan so'ng fakultet dekani bo'lib kelgan Richard Merdiam bilan uchrashdim. U menga katta yordam berdi. Merdiam Geydelbergda olgan iqtisodiy bilimimni yanada chuqurlashtirishga turtki berdi va yordam qildi. Nemis «Dr. Pxil» Amerika falsafasi doktoriga (ph.D) teng bo'lmasa-da, men unga da'vogar bo'lmadim va erishgan natijamdan xursand bo'ldim. Merdiam Garvardga o'qituvchilikka tavsiya berdi va joylashishga yordamlashdi. Garvardlik iqtisodchilar T. Parsons dunyoqarashiga katta ta'sir etdi. Ayniqsa, tarixchi-iqtisodchi Edving Gey unga juda samimiy munosabatda bo'ldi va yordam qildi. Iqtisod nazariyasi asta-sekin men uchun ichki nazariy matritsa bo'lib bordi. Bunga yana sotsiologiya nazariyasi ham qo'shila bordi. Meni, ayniqsa, Alfreyd Marshall iqtisodiy nazariyasi juda qiziqtirdi. Marshall o'sha davr «ortdoksal» yoki «neoklassik» iqtisodiy nazariyasi bo'yicha dunyoda juda mashhur edi».

Marshallning iqtisodiy sotsiologiyasi, ya'ni iqtisod bilan sotsiologiyani birga qo'shilishi Parsons uchun kelgusida shuhrat qozonishga va to'g'ri nazariy yo'l olishga imkon berdi. Paretonning iqtisodiy nazariyasi ham yosh tadqiqotchi Parsonsga ham katta ta'sir etdi. Uning sotsiologik nazariyasiga qiziqishi yanada kuchaydi. Shumxster, Paretolarning ham iqtisodiy, ham sotsiologik nazariyalari Parsonsda katta qiziqish o'yg'otdi. Ular Marshallning iqtisod va sotsiologiya sohasidagi ma'lum g'oyalarni farqini tushunishga katta yordam berdi.

Umuman, M.Veberning hozirgi zamon kapitalizm haqidagi ta'limoti dissertatsiyaning bosh mavzusi bo'lib, protestant askitizm etikasi va kapitalizm ruhi haqidagi konsepsiyasi Marshall, Pareto, Veber, shakllangan ilmiy tizim «konsepsiyasi»ga olib keldi. T.Parsons Emil Dyurgeymni ham o'rgandi. Ayniqsa, Emil Dyurgeymni tushunish uchun esa uning «Ijtimoiy mehnat taqsimoti to'g'risida» (1893) asari o'ziga xos kalit rolini o'ynadi. E.Dyurgeym qarashlari Veberning kapitalizm rivojlanishi va Marshallning erkin tadbirkorlik konsepsiyasi bilan bog'langanligini ko'rsatdi.

1937-yil T.Parsons tadqiqot natijasi sifatida «Sotsial harakat tuzilishi» kitobini yozib tugalladi. Bu kitob turli mualliflarning hozirgi zamon sotsio-ekonomik tartib, kapitalizm, erkin tadbirkorlik va boshqa nazariy tuzilmalarni tahlil qilish, sharhlash asosida vujudga kelgan edi. Bunday konseptual sxemalarni o'sha davrdagi intellektual muhitda o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatiga ega edi.

1952 – 1957-yillarda Chikago shahrida Rol Grinker rahbarligida «Tizim nazariyasi» haqida doimiy ishlovchi konferensiya faoliyat ko'rsata boshladi. Bu o'quv dasturida kibernetik kuzatuv nafaqat tirik tizimda, balki shunga o'xshash ko'p turlarda amalda qo'llanishi mumkinligini ko'rsatdi. O'sha davrdagi yirik olimlardan bo'lgan Alfred Emerson organik dunyo tirik tizimi bilan inson sotsio-madaniyat dunyosi tizimi o'rtasida fundamental bog'liqlik mavjudligiga Parsonsni ishontirdi. Bu o'ziga xos genning funksional ekvivalenti g'oyasining «ramzi» edi. Boshqacha aytganda bu tadqiqot turlarning genetik konstitutsiyasi va organizm muammosi hamda sotsiomadaniy tizim o'rtasidagi o'zaro obyektiv bog'liqlik borligini ko'rsatdi.

Marshall, Pareto, Veber, Emerson to'rt olim ta'limotlarining konvergensiyasi (qo'shiluvchi) bo'lgan «sotsial harakat tuzilishi» Parsonsga katta kasbiy va ilmiy shuhrat keltirdi. Bu konsepsiyada, asosan, G'arb jamiyatining hozirgi zamon holati haqida gap borardi.

T.Parsons G'arb jamiyatini kapitalizm yoki erkin tadbirkorlik sifatida ta'rifladi, siyosiy jihatdan esa demokratiya deb belgilash mumkin, dedi. Shu bilan birga XX asrda jamiyat inqiroz ahvolida ekanligini ham alohida ta'kidladi. Parsonsning tadqiqotlarida birinchi sotsialistik davlat, fashistik harakatlar, ulug' iqtisodiy inqiroz (1929 – 1930) kabi ijtimoiy-siyosiy voqealar ham muhim o'rin egalladi.

1930 – 1936-yillarda uning uchala qizi o'sayotganligi tufayli oila uchun muammo paydo bo'ldi. Kasb bo'yicha 9 yil oddiy o'qituvchi: birinchi 4 yil iqtisod fakultetida, so'nggi 5 yil yangi tashkil qilingan «sotsiologiya» fakultetida o'qituvchilik qildi. U o'z xotiralarida «X.Berbon (iqtisod), P.A.Sorokin (sotsiologiya) meni unchalik yoqtirishmas edi, – deb yozadi. – Mening assistent darajasiga ko'tarilishimda shtatsiz professorlar E.F.Gey, E.B.Uelson, A.Xenderson katta rol o'ynaydi. 1936-yil Xenderson Garvard Universiteti rektori Konant oldiga meni ikkinchi muddatga assistentlik lavozimiga tayinlash haqidagi masalani qo'ydi (albatta, Sorokin bilan kelishilgan holda) va ikki-yildan keyin professorlikda doimiy joy

bo'ladi, deb va'da berdi. Ana shu shart bilan Garvard Universitetida ishlay boshladim» – deb xotirlaydi Parsons.

Parsons intellektual maqsadda Taussig Shumpetter Gim bilan juda yaxshi aloqada bo'lgan. «Xenderson juda og'ir tabiatli olim bo'lib, uncha-muncha sotsiologni tan olmasdi. Xenderson fan, ayniqsa, fan falsafasi va nazariyasi, fanning tabiati bobida katta bilimga ega edi. Mening kitobimni ham tanqidiy nuqtayi nazarda o'qidi va qimmatli fikrlarini berdi. Mashhur shaxslar haqida gap ketganda albatta, Xenderson tilga olinardi. Unga «qizil soqol» degan taxallus berishgan edi. Uning «sotsial sistema haqida»gi asari bosilib chiqdi. O'sha davrda olimlar o'rtasida quyidagi shior ustuvor edi. «Nashr ettir yoki halok bo'lasan». Menga ham eng yaxshi asarni bosib chiqarishni o'shanda maslahat berishdi» – deb eslaydi olim.

Sotsiologiya bilan shug'ullanish T.Parsonsni psixologiya va sotsia' antropologiyaga qarab etakladi. Parsons kasbni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganib, hozirgi zamon industrial jamiyati tabiatiga xos konseptual sxemani uyg'unlashtirishga harakat qildi. Uning o'qituvchilik faoliyatida quyidagi xulosa ochiq ko'zga tashlandi: «Olimlik kasbi hozirgi zamon jamiyatida ko'zga ko'rinarli, sharafli unvon». «Bu erda, – deb yozadi Parsons, – mafkuraga asoslangan «kapitalizm-sotsializm» alternativasi haqida, umuman, eslatmaydi. Ikki mafkuraviy pozitsiya: aql-idrokka asoslangan «shaxsiy manfaatni ko'zda tutuvchi kapitalizm aqidasi hamda jamoa manfaatini ko'zlovchi sotsialistik aqidasi asosidagi utilitar fikr, ya'ni individ o'zining ehtiyojini qanoatlantirish ustuvorligiga, sotsialistik aqidasi esa kollektiv manfaati (Gobbs va D.Ostinadan boshlangan) ustuvorligiga asoslanib, ijtimoiy ehtiyojlarini maksimal darajada taminlaydi, degan xulosa mavjud edi».

«Ratsionallik tabiati muammosini o'rganish, shuningdek, ratsionallikka asoslangan bilim bilan harakat qilishga e'tiborni qaratdim. Shuning uchun, – deb yozadi Parsons, – oxirgi kursda biologiyaga emas, ijtimoiy fanga borishga qat'iy qaror qildim. Mening jamiyatshunoslikka kirish ishim (dastlab tor ma'noda yo'l izlayotganimda o'qituvchi va ma'muriyatli bo'lib qoldim). Talabalik bilimda otam Ogayo shtatida «Marietta College» prezidenti edi. U o'zining karyerasini kongressionallik ruhoniysi va o'sha davrdagi ta'sirli «Sotsial evagelist» harakatiga qo'shilishidan boshladi. Endi bilsak bu harakat AQShda sotsiologiya tug'ilishida ko'p ish qilgan ekan».

Odam harakati birinchi navbatda individual, shu bilan birga ijtimoiy xarakteri hamda noratsional va irratsional omillarni nazariy bilish mumkinligini ham istisno etmaydi. Parsons tadqiqotlarida Freyd va noratsionallikning yaroqliligi to'g'risidagi, jumladan, meditsina ratsionallikni iqtisodiy va siyosiy sohalardagi o'rni, umuman, har qanday ijtimoiy harakat tahlilida dinning o'rni, protestant etikasining ijobiy tomonlari masalalari ham keng o'rin oldi. «Bu uch soha (dinni qo'shganda to'rtinchi) ilmiy faoliyatimda «ratsionallik muammosi» sohasidagi ijodiy qiziqish strukturasida deyarli to'la egallab oldi» – deb qayd qiladi olim.

Siyosiy – iqtisodiy majmuadan sotsiopsixologik tomon keskin burilish, ya'ni noratsionallik muammosini Freyd pozitsiyasida ko'rish muhim ahamiyat kasb etdi. Bunda «kognitiv ratsionallik»ning, xususan, meditsina ilmi komponentining madaniy asosi sifatida yetakchi mavzuga aylanishi muhim ahamiyat kasb etdi. Harakatning umumiy tizimida nafaqat o'zaro bog'liqlik, shu bilan birga, o'zaro bir-biriga kirishish va ta'sir mavjud madaniyat tizimining ma'lum komponentlari bir vaqtning o'zida sotsial hamda shaxs tizimining komponentlari bo'lib kolmoqda edi.

1944-yil Garvard Universiteti sotsiologiya fakulteti boshlig'i qilib tayinlandi. U fakultetni butunlay qayta tuzdi. 1945-yilda fakultetda ikki professorlik joyi ochildi. Birinchisi, K.Romans ilgari flot xizmatiga ketgunga qadar shu erda ishlagan, ikkinchisi, Somyuel Stauffer harbiy idorada informatsiya va ta'lim bo'yicha bo'lim rahbari bo'lib ishlagan.

T.Parsons 1946-yil Venada psixoanalitik o'qish va seminarda qatnashdi. Urush davrida Garvard Universiteti professorligidan harbiy xizmatga ketdi. U erda u «Yevropa va Sharqiy Osiyo» jamiyati haqida ma'ruza o'qidi. Urush so'nggida xorijiy iqtisod Boshqarmasida maslahatchi bo'lib ishladi.

1946-yil kuzida universitetda sotsial munosabatlar laboratoriyasini boshlg'i bo'lib ishlay boshladi. Fakultet sotsial antropologiya, sotsial va klinik psixologiyani o'z ichiga olardi. Fakultet rahbari sifatida 1956-yilga qadar ishladi. Parsons 1942-yil Sharq sotsiolog jamiyati Prezidenti 1949-yilda esa Amerika sotsiologik assotsiatsiyasi prezidenti bo'lib xizmat qildi. Parsons rahbarligida assotsitsiyasida katta tashkiliy ishlar qilindi. Eng avvalo a'zolari ko'paydi va faoliyatining turi ham kengaydi.

Shtatlar strukturasi o‘zgardi. Ma’muriyatchi xodimlar olindi. 1953 – 1954-yillrda Kembridj Universitetining shtatsiz professori bo‘lib ishladi.

Bir necha vaqt tanaffusdan keyin yana Assotsiatsiyada kasb bo‘yicha qo‘mita rahbari, 5 yil kotib, «The Amerikan Sociologish» jurnali bosh redaktori bo‘lib ishladi. T.Parsons 1937 – 1951-yillarda ko‘p kitoblar yozdi. Uning ilmiy va jamoatchilik faoliyatida o‘qitish va tadqiqotchilik funksiyasini qo‘shib olib borishining ahamiyati katta bo‘ldi. Ikki katta kitobi «Sotsial sistemada ijtimoiy tizim» va «Sotsial harakat strukturasi»ni (1951) yozib tugallandi. Bu ilmiy nazariy izlanishlarining ma’lum etapining tugallanishi hamda uni yanada teranroq va kengroq tadqiq etishni davom ettirishga fundamental asos bo‘ldi.

Parsons Sxilz bilan sotsial sistema darajasidan, umuman, sotsial harakat darajasigacha bo‘lgan o‘zgaruvchan namuna sxemasiga muvofiqlik masalasi munozarali bo‘ldi. 1953-yilda R.Beylz Sxilz bilan hamkorlikda «Harakat nazariyasi bo‘yicha ishchi daftari»ni yaratdi. Bunda eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan «to‘rt funksiyali paradigma» g‘oyasini yaratish bo‘ldi. Beylzning «O‘zaro ta’sir jarayonining tahlili» kitobdagi to‘rt o‘zgaruvchan namuna Parsonsning to‘g‘ri yo‘l olishiga muhim manba bo‘ldi. «Biz, – deb yozadi Parsons – shunday xulosaga keldik: umuman, harakat tizimini jarayon va struktura kategoriyalari orqaligina oxirigacha tahlil qilish mumkin ekan. To‘rt funksiyali muammo: «adaptatsiya «sistemali (alohida bo‘lmagan maqsadga erishish», «integratsiya», sotsio-madaniyatli o‘zaro ta’sir jarayoni va unda ro‘y beradigan hayajonni boshqarishni o‘z ichiga oladi».

Parsons 1953 – 1954 yillarda Kembridj Universitetida «sotsial nazariya» mutaxassisligi bo‘yicha shtatsiz professorlikka taklif etildi. U yerga meni Alfred Marshall o‘quviga (uning xotirasiga bag‘ishlangan) taklif etishdi, deb yozadi.

Sotsiologiyaning mumtoz vakillari:

1. Ijtimoiy dunyoni tizim nuqtayi nazaridan qaradilar. Tizim esa ehtiyoj va talabga ega bo‘lib, bularni qanoatlantirish orqali tizimning yashashini ta’minlash mumkin.

2. Tizimning normal yoki nonormal yashashida muvozanat va gomeostatizmning ahamiyati katta.

3. Tizim qismlardan, qismlar o‘z navbatida butunni saqlashda roli kattadir. Demak, butun va qism bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

T.Parsons «Sotsial harakat strukturasi» (1937) asarida utilitarizm, pozitivizm, idealizmning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qildi. Bu uch yo'nalishdagi nazariya va nazariyalashtirishning sotsiologiyada tutgan o'rnini alohida ta'kidlaydi. Harakat nazariyasini qurishda «analitik realizm»ni o'z o'rniga qo'yishni tavsiya etdi. Tushuncha tizimni ishlab chiqish fikr-mulohazalar tizimiga nisbatan birinchiligini ko'rsatdi. Nazariyada tushunchalar hukmdor qatoriga kirmasligi kerakligi, avvalo bu *analitik tizimga* daxldorligi bayon etiladi.

T.Parsons dunyo tizimdan iboratligini alohida ta'kidlaydi. U odamlar hamma vaqt o'zlarini ratsional tutadilarmi? Haqiqatdan ham ular erkin va ma'lum qoidalarga itoat qilmaydimi? Boshqa tizimlar bilan raqobat qilayotgan sharoitda boshqarib bo'lmaydigan qanday tartib bo'ladi? Sotsiologiya bu savollarga javob berishi kerak, deydi. *Utilitarizmning* ma'lum tomonlari yaxshi fikrlardan: odamlarni ma'lum maqsadlarni ko'zlash (foydali tomonlarni), o'zlarini harakatlarida bir-birini istisno qiluvchi holatlar bo'lganda, o'zining tanlovini amalga oshirilishini ham alohida ta'kidlaydi. *Pozistivistlar*ni sotsial dunyoni fizik hodisalardagi sabab-oqibat aloqasi nuqtayi nazari va unda inson ahlining murakkab simvoli funksiyasini inkor qilganligini ham tanqid qildi. Ijtimoiy borliqni fizik parametrda qarash mumkin emasligini ham alohida ta'kidlaydi. *Idealizm* «Ideya» nuqtayi-nazaridan foydaliligi ko'rsatilganligi, ammo «ideya» ijtimoiy hayot obrazidan ajralganligini tanqid qildi. Vaholanki, deydi u, ijtimoiy hayotni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. T.Parsonscha «Valyutaristik harakat nazariyasi» quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. «Aktyor» – alohida shaxs.
2. «Aktyor» – qandaydir maqsadni ko'zlaydi.
3. «Aktyor» – o'z maqsadiga erishish uchun alternativ vositalarga ega.
4. «Aktyor» – turli vaziyatli sharoitlarga to'qnash kelishi (biologik tabiati va nasllilik, turli tashqi ekologik bosim va hokazo.)
5. «Aktyor» – ma'lum qadriyat, norma va boshqa g'oyalarga tayanadi, ya'ni bu idealar nimani maqsad qilgani va unga qanday erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, harakat «aktyor»ni o'z faoliyatini – subyektiv hal qilishi, maqsadga erishishida, nisbatan vositachi sifatida qaraladi.

Bu erda harakat g'oya va sharoit bosimi asosida bajariladi.

Funksional tahlil ehtiyoj tushunchasini taqozo etadi. Ijtimoiy integratsiya «yagona» tizim sifatida ko'p «aktyor»larni amal qilishi,

yaxshi integratsiya bo'lishi esa boshqa hammasiga ijobiy ta'sir qilishini anglatadi. Parsons harakat tushunchasida yana harakat tizimining organik hossasini ko'rsatadi, u 1945-yilda nashr etilgan «Ijtimoiy tizim» kitobida bu tahlil qanday shakl olishi kerakligi haqida to'xtalib yozadi: «Sotsial tizim strukturasini bevosita «aktyor» – vaziyat qo'lidan keltirib chiqarib bo'lmaydi. Bu ko'p aktyorlarning o'zaro ta'sirida vujudga keladigan shunday murakkab hosilasi bo'lib, funksional tahlil qilishni talab etadi».

Tolkatt Parsons tomonidan rivojlantirilgan evolutsion nazariyasi zamonamizdagi eng ta'sirchan nazariyalardan biri hisoblanadi. U ijtimoiy evolutsiyani biologik evolutsiyaning kengayib borishi deb hisoblashni taklif qiladi. Holbuki, amaliy jihatdan qaraganda, bu ikki evolutsiyaning har ikkala tipini birga qo'shib evolutsion universallar deb ataladigan atamalar tarzida tushunish mumkin, ya'ni bunda taraqqiyotning shunday tiplari anglashiladiki, ular bir necha hollarda bir-biriga bog'liq bo'lmagan sharoitda mavjud bo'lishi aniqlanadi hamda o'zining hayotiylik darajasini ancha oshirib boradi. Tabiat olamida ko'z evolutsion universialga bir misol hisoblanadi. U jonli tabiatning qandaydir alohida ajratib qo'yilgan burchagida tasodifiy tarzda, shunchaki, paydo bo'lmay, balki bir necha turlarda bir-biriga bog'liq bo'lmagan tarzda rivojlanib borgan. Ko'rmaydigan turlarga nisbatan olganda, ko'rish qobiliyati atrof-muhitdan muvofiq, ravishda qodir bo'ladigan reaksiyalar spektrini beqiyos darajada oshirish imkonini beradi va shuning uchun ham, g'oyat ulkan adaptatsion qiymatga ega bo'ladi. Biologik evolutsiyaning barcha oliy bosqichlarida ko'rish qobiliyati barcha hayvonlar uchun zaruriy bir belgiga aylanib boradi. «Har qanday insoniy madaniyatda, deb ta'kidlaydi Parsons, kommunikatsiya asosiy ahamiyat kasb etadi».

Parsonsning nuqtayi nazariga muvofiq, ijtimoiy evolutsiyani ijtimoiy institutlar tabaqalanishini tezlashtiruvchi bir jarayon sifatida tushunish ham mumkin, chunki jamiyat oddiylikdan murakkablikka qarab rivojlanib boradi. Jamiyatlarning dastlabki tiplari juda past darajada tabaqalashtirilgan bo'lib, ular uchun Parsons «Konstruktiv simvolizm» deb atagan xususiyat xarakterlidir. Mazkur holatda gap ijtimoiy hayotning amalda barcha jabhalariga singib borayotgan, asosan, diniy xarakterda bo'lgan timsollar to'plami mavjudligi to'g'risida bormoqda. Ijtimoiy evolutsiyaning eng quyi bosqichda bo'lgan madaniyatni misol tariqasida keltirgan Parsons (xuddi Dyurkgeym

singari) Avstraliya oborigenlari qabilasini o'rganib chiqdi. Ushbu jamiyatlar butunlay qarindosh-urug'chilik munosabatlariga asoslangan holda tuzilgan bo'lib, ular o'z navbatida, diniy qarashlarni ifoda etadi, shuningdek, ular xo'jalik faoliyati orqali bir-biriga bog'liq bo'ladi. Mazkur jamiyatlarda individlarning shaxsiy mulklari juda oz miqdorda bo'lgan, qabila Daxiylarining mulki institut shaklida qandaydir farqi shaklda mavjud bo'lmagan, chunki, yashash uchun zarur bo'lgan ne'matlarni ovchilikdan va yig'uvchi-terimchilikdan topganlar.

Evolutsiyaning shundan keyingi bosqichi – bu «rivojlangan qadimgi jamiyat» darajasidir. Ushbu tipda etalitar munosabatlar o'rniga stratifikatsiya tizimi keladi, bunda jamiyatning sinfiy bo'linishi ham mavjud bo'ladi. Qadimgi rivojlangan jamiyatlarda alohida ishlab chiqarish tizimi vujudga kelib, u chorvachilikka yoki dehqonchilikka, shuningdek, doimo yashash joyi o'troqlikka asoslangan bo'ladi. Din ijtimoiy hayotning boshqa jabhalaridan ajralib chiqa boshlaydi hamda diniy rahbarlik maxsus ijtimoiy guruhlar – ruhoniylar yoxud kohinlar qo'liga o'tadi.

Mana shunday shkala bo'yicha harakat qilib borar ekanmiz, Parsons «oraliq, jamiyatlar» deb atagan jamiyatlarga duch kelamiz. Ushbu termin bilan ko'pchilik mualliflar ma'rifatli jamiyat deb ataydigan jamiyatlarni yoki Qadimgi Misr, Rim va Xitoy singari an'anaviy davlatlarni ataydi. Bunday jamiyatlar bir-birlari bilan yozuv va savodxonlik vujudga kelgani tufayli o'zaro aloqada bo'lganlar. Turli siyosiy, iqtisodiy va oilaviy munosabatlar shakllana borgan. «Mana shularning har birining paydo bo'lishi, – deb ta'kidlaydi Parsons, – jamiyatning o'z tarkibiga ko'proq kishilar ommasini jalb etish imkoniyatlarini ko'p marta oshirib yuboradi».

Sanoatlashgan jamiyatlar Parsons evolutsion sxemasida eng yuqori bosqichni egallaydi. Ular oraliq tipdagi jamiyatlarga qaraganda g'oyat ko'proq darajada tabaqalashtirilgan bo'ladi. Ulardagi siyosiy va iqtisodiy tizimlar bir-biridan, shuningdek, qonun chiqaruvchi tizimdan va dindan qat'iy ravishda ajratib qo'yilgan. Ommaviy demokratiyaning paydo bo'lishi butun aholini siyosiy jarayonda ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Sanoatlashgan jamiyat paydo bo'lgandan so'ng ijtimoiy tuzumlarning qadimgi tiplarining deyarli batamom yo'qolib ketishiga olib keldi.

T.Parsons yuqorida qayd qilinganidek, sotsiologiya sohasida ko'pgina nazariya va konsepsiyalar yaratdi. Shulardan yana biri *inson*

harakati, ya'ni xatti-harakat bilan bog'liq, muayyan tizim bo'lib, uni o'zini-o'zi uyushtiruvchi tizim, deb ataydi va uning quyidagi regulletiv xususiyatlarini ramziy mexanizmi mavjudligi (til, qadriyatlar va hokazo) normativlik, (ya'ni individual harakatning umum tomondan norma va qadriyatlarga bog'liqligi) hamda vamotaristik (o'rganadigan muhit sharoitida ma'lum darajada irratsionallik hamda mustaqillik shu bilan birga subyektiv, ammo uning ma'lum vaziyatga bog'liqligi). Parsons ana shuning asosida abstrakt formallashgan harakat tizimining modelini yaratdi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Tolkatt Parsons sotsiologik qarashlarining shakllanishi.
2. Struktural-funksionalizm ta'limoti nima?
3. Sotsiologiyaning umumnazariy muammolari.
4. Hozirgi zamon jamiyat tizimi haqida.
5. T.Parsonsning struktural-funksionalizm ta'limoti jamiyatning qaysi muammolari yechimini topishga ko'maklashadi?
6. Hozirgi zamon jamiyat tuzimining asosiy muammolarini nima deb bilasiz?
7. Evolutsion nazariyasining parsonscha talqini nima?
8. T.Parsonsning an'anaviy va hozirgi zamon jamiyati haqidagi qarashlarida qanday muammolar mavjud?

SOTSIOLOGIYA TARIXIDA AYRIM NAZARIYALAR VA ULARNI O'RGANISHNING AHAMIYATI

Nazariya tushunchalar mohiyati bo'lib, guruh hukmlarning (mulohazasi) uyushganlik ifodasidir. Hukm esa mulohazalarning uyushgan guruhidir. T.Gobbs «Leviafan» asarida (1651):«Insoniyat jamiyati tabiiy holati: zo'ravonlik, doimiy xavf-xatar, qo'rqitish, qo'rqinch, tazyiqdan iboratdir. Hayot esa bir xil kambag'al, yaramas, qattiq va qisqadir» – deb yozgan edi. Inson zoti doimo hokimiyatga ochko'zlik va foyda axtarish uchun, eng avvalo, o'zlarining g'arazli maqsadlarini amalga oshirish uchun intiladi. Shuning uchun jamiyatda tinchlik barqaror bo'lishi qiyin. Urush va kelishmovchilikka asoslangan hayotda doimo shunday muammo turadi: sotsial tartib va tashkilotga o'xshashni yaratish va saqlashni zarurat qilib qo'yadi. U sotsiologik nazariya qurishning eng muhim masalasi: jamiyatning mavjudligi qanday va nima uchun mavjud bo'lishi mumkin, degan muammoni qo'yadi.

Masalan, ijtimoiy tashkilotni modeli qanday yaratiladi, saqlanadi va o'zgaradi, buzilib ketadi yoki bo'linib ketadi. Bu va boshqa holatlar turli maxsus nazariyalarni yaratadi. Sotsiologik nazariyani institutlashuvi va deinstitutlashuvi obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Bular ijtimoiy jarayonlar natijasi sifatida sotsiologik nazariyada individual, shaxsiy munosabatlarga bog'liq, kichik guruhning notinch olomon yoki yig'in, katta va murakkab tashkilot yoki yaxlit jamiyat sharoitlada ma'lum jarayonlar tuzilma modeli vujudga keltirish qiziqtiradi. Nazariyada:

1. Jahonda sodir bo'layotgan voqealarni istiqbolda tasavvur qilish uchun ularni klassifikatsiya qilish lozim.

2. Kechayotgan voqealarni sababini tushuntirish uni kelajakda «qachon, qaerda va qanday sodir bo'ladi?», degan savolga javob berish.

3. Voqealar nima uchun va qanday bo'lib o'tishi kerakligini «tushunish» va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Buning uchun sotsiologik nazariya to'rtta bosh elementni tashkil qiluvchi blokni namoyon qilishi lozim: 1) tushuncha; 2) o'zgarish; 3) tasdiqlash; 4) shakllar. Aslida sotsiologik nazariya nima va u qanday

bo‘lishi kerak? Bu to‘rt element barcha sotsiologik nazariya uchun umumiydir. Tushuncha nazariyaning asosiy qurilish (tashkil qiluvchi) blokidir. Tushunchaning turli darajadagi abstraktligi, tushunchaning aniq hodisalarga ma’lum joy va vaqtdagi munosabati masalasidir. Abstrakt tushunchalar hodisa, jarayonlarga xos umumiy xossasini bilishga ko‘maklashadi. O‘zgaruvchanlik tushunchaning muhim tipi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan «it», «mushuk», «guruh», «ijtimoiy sinf», «yulduz» tushunchalarida ularning xossalar, hajmi, og‘irligi, jipsligi, tezligi, uyushqoqlik kabi xususiyatlari ham mavjud bo‘lib, bu tushunchalar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatadi. Hodisalarning o‘zgaruvchanlik xossasi ham mavjud bo‘lib, bular o‘ziga xos nazariy fikr, mulohaza, hukm chiqarishda ma’lum rol uynaydi.

Nazariy fikr-mulohazalar shakl jihatidan farq qilishi mumkin. Sotsiologik nazariyalashtirishning ideal ilmiy nazariyasi haqida bahs, munozaralar ko‘p. Jumladan, «Jamiyat obrazi», «Jamiyat istiqboli», «Jamiyat mo‘ljali» kabi tushunchalarning mazmunini ochishda XIX asr davomida utilitarizm, («foyda», «manfaat») doktrinasi hukmron edi.

«Sotsial tartib» nazariyasida nima uchun va qanday qilib jamiyat mavjud bo‘lishi mumkin? O.Kont bu savolga jamiyatning «organizm»lik xususiyati bilan tushuntirishga harakat qildi. O.Kont «Pozitiv siyosat tizimi» asarida: oila asosiy sotsial hujayra bo‘lib, ijtimoiy kuchlar sifatida davlat va shahar, ijtimoiy organlar, jahon mamlakatlari biologiyadagi organizm tizimiga o‘xshashdir, degan aqidani ilgari suradi.

G.Spenser ham jamiyatni organizmga o‘xshatdi. Paul Fon Lilienfeld va Rene Vorms jamiyat nafaqat organizm, balki haqiqiy tirik organizmdir deydi. Sotsiologik funksionalizmga:

Ijtimoiy borliq tizimdir; tizimdagi jarayonlar uni tashkil etuvchi qismlarning o‘zaro bog‘liqligidan iborat; sistema (tizim) organizm singari cheklangan bo‘lib, uning butunligi va chegarasini saqlashga yo‘naltirilgan ma’lum jarayonlar harakat qiladi.

Jamiyat cheklangan tizim sifatida o‘z-o‘zini tartibga solib turadi va gomeostazis hamda muvozanat tendensiyasiga egadir. Gomeostazis – grekcha bir xil va doimiylik, mo‘tadillik, barqarorlik degan ma’nolarni anglatadi. Tizimning muvozanatini saqlashda o‘z-o‘zini tartibga solish, atrof-muhitga moslashish qobiliyati muhim o‘rin egallaydi. Jamiyat o‘zini ta’minlovchi tizim sifatida muayyan tayanch ehtiyoj, talabini

qanoatlantirish uchun, uning o'zini omon saqlab qolishi uchun tizimning gomeostatizm yoki o'z muvozanatini saqlashga harakat qiladi.

Shunday qilib, har bir jamiyatda mavjud struktura elementlari o'zaro hamkorlikni saqlashga yo'naltirilgandir.

B.Malinovskiy birinchi bo'lib «funksionalizm» tushunchasini ishlatgan edi. U madaniyatga funksiyali qarash har qaysi sivilizatsiyada an'ana, urf-odatlar, g'oya va e'tiqod muhim hayotiy funksiyani bajaradi. Strukturaning har bir elementi muayyan vazifani bajarishi, faoliyatidagi butunni ajralmas zaruriy qismini tashkil etishi organizmga hayot bag'ishlaydi.

Madaniyatning har qanday elementi ma'lum vazifani bajarishi shubhasizdir. Funksionalizm nazariyasining asoschilari O.Kont, G.Spenser, E.Dyurkgeym, B.Malinovskiy, Radkliff-Brounlar ijtimoiy tizim tuzilmalariga katta hissa qo'shdilar.

Sotsiologiyaning mumtoz vakillarining:

Ijtimoiy hayotni tizim nuqtayi nazaridan qarashi, tizim esa muayyan ehtiyoj va talabga ega bo'lib, bularni qanoatlantirish orqali tizimni yashashini ta'minlash mumkinligi; tizimning normal yoki nonormal yashashida muvozanat va gomeostatizmni ahamiyati, tizim qismlarda, qismlar o'z navbatida butunni saqlashdagi roli butun va qismning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Dunyo sahna. Unda barcha odamlar aktyorlardir. Ular biron bir rolni bajaradi (Shekspir).

Struktural - funksionalizm nazariyasida jamiyat, madaniyat va shaxs tizimi muhim o'rin egallaydi.

T.Parsons sotsial tizimda institutlashuvni jarayon sifatida ham struktura sifatida ham qaraydi. Umuman, jamiyatda institutlashgan model paydo bo'lganligi uni saqlaydi, o'zgartiradi. Institutlashuv shunday jarayonki, xuddi ana shu tufayli sotsial struktura shakllanadi, saqlanadi, rivojlanadi. Ijtimoiy tizim esa institutlashgan rollar yig'indisini yoki harakatlarning mustahkam modelini tashkil qiladi. Agar sotsial tizim katta bo'lsa, demak, u bir necha bir-biri bilan bog'langan institutlardan tashkil topuvchi tuzilmachalardan iborat bo'ladi. Shunday qilib, jamiyat bir-biri bilan bog'langan institutlardan tashkil topgan katta bir tuzilmadir.

Sotsial tizim madaniyat namunalari doirasida, ya'ni qadriyat, e'tiqod, mafkura orqali shaxs tizimini belgilaydi. Ijtimoiylashish

mexanizmi va sotsial nazorat mexanizmi jamiyat ijtimoiy tarkibi va muvozanatini saqlashda madaniyat namunalari katta rol o'ynaydi. O'zaro ta'sir resurslari bo'lgan til, kommunikatsiya ramzlarining jamiyat tizimida o'rni va roli kattadir. Shaxs, jamiyat va madaniyat tizimlari o'rtasida o'zaro aloqa, munosabat mavjud.

Robert Beyls va Eduard Shire «Harakat nazariyasi bo'yicha ishchi maqolalar» kitobida ijtimoiy harakat haqida qimmatli fikrlarni bayon etganlar.

Robert Merton struktural funksionalizm haqida mustaqil fikrlarini bayon etgan. U umumiy falsafiy nazariyani izlash kerakligini alohida ta'kidlaydi. Uning: «Sotsiologik nazariya o'zining Eynshteynini kutishi kerak, chunki uning Kepleri hali topilgani yo'q, Nyuton, Laplas, Gobbs, Maksvell yoki Planklari haqida gapirmay qo'yaqolaylik» – degan fikrida katta ma'no bor.

Uning o'rta rang «daraja» nazariyasida funksionalizm shakllaridan birini foydalanish kerak deydi. R.Merton uchun funksionalizm nafaqat o'rta rang nazariyasini tuzish metodi bo'ldi, shu bilan birga, yirik nazariy sxema yaratish uchun ham muhim vosita bo'ldi.

Insoniyat jamiyati u yoki bu darajada integratsiyalashmaganda zamonaviy sistemalar mavjud bo'lmasdi. Demak, har qanday ijtimoiy tizim integrallashgandir.

R.Mertonning funksional strategiyasi sotsiologik nazariyalashtirishda antiqa joy oldi. Uning temperamenti va aqli bu fanda eskirgan intellektual muammoni hal qildi. Uning «o'rta daraja» nazariyasi sotsiologlar o'rtasida keskin tortishuvlarga chek qo'ydi, Empirik yo'l olgan nazariyagina va nazariy yo'l olgan amaliyotgina samarali bo'lishi isbotlandi. R.Merton: «Struktura funksiyaga, funksiya strukturaga ta'sir qiladi» – deb ta'kidlaydi.

Agar T.Parsons funksional nazariya tushunchalarining yirik tizimi bo'lishi o'z ichiga nimani olishi mumkinligi hamda keng hodisalarni o'z ichiga olishligini ta'kidlasa, R.Merton sotsiologik nazariyalashtirish birinchi navbatda bir-birida alohida, ajratilgan empirik hodisalarga qaratilishi zarurligini ko'rsatdi.

Konflikt nazariyasi jamiyatda tartib va muvozanat bilan birga noizchillik, tartibsizlik, konflikt (to'qnashuv, ziddiyat, qarama-qarshilik, nizolar) sodir bo'lib turadi. XIX asrda konflikt nazariyast haqida fikrlar ilgari surilgan edi. Sotsiologiyada konflikt funksionalizm

singari qadimgi nazariyalardan bo'lib, u ikki nemis sotsiologi – K.Marks va G.Zimmel tomonidan ilmiy tahlil qilingan edi.

G.Zimmel jamiyatda konfliktning bo'lishi shubhasiz ekanligini ta'kidladi. Ijtimoiy struktura nafaqat hukmron va itoatgo'ydan, balki xilma-xil bir-biri bilan bog'langan assotsiatsiya va diassotsatsiya jarayonlaridan iboratdir dedi. Ular birgalikda mavjuddir. Faqat ularni tahlil qilganda bir-biridan ajratish mumkin. Amalda esa ular bir-biri bilan bog'langandir. Birini monistik, boshqasini antogonistik qarash ham deyish mumkin. Agar K.Marks konflikt faqat kuchayib boradi va tizimda surunkali strukturali o'zgarishga olib keladi, desa, G.Zimmel esa aksincha, konfliktlar sistemasi nafaqat jamiyatda nizolarni, balki uning integratsiyasini ham mustahkamlaydi, deb ta'kidlaydi. Konflikt sistemani tartibli o'zgarishini rag'batlantiradigan omildir. Agar K.Marks konfliktni antogonistik xarakterini tahlil qilgan bo'lsa, Zimmel esa integrativ rol va oqibatlarini ta'kidladi.

«Parsons sxemali funksionalizm singari jamiyat haqida haddan tashqari garmonik integratsiya va statik tasavvurlarni yaratdi, aslda esa jamiyat «ikki qiyofa»: umumiy kelishuv va konfliktli qiyofaga egadir», dedi Ralf Dorendorf.

Interaktsionizmning tug'ilishi va rivojlanishi sotsiologiada muhim o'rin egallaydi. Unda jamiyat va individ o'rtasidagi o'zaro ta'siri sotsiologiya nazariyasida eng qiziqarli muammoni tashkil etadi. Masalan, qanday qilib bir hodisa ikkinchisini in'ikos etadi? Jamiyat qanday qilib individni shakllantiradi? Qanday qilib individ jamiyatni yaratadi, saqlaydi va qayta quradi? Jamiyatda individ shaxsning qanday xususiyatlari orqali bir-biri bilan bog'laydi? Individlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir sotsial strukturani, sotsial struktura esa individni shakllantiradi, degan g'oya interaksionizmda muhim o'rin egallaydi.

Interaksionizm nazariyasini rivojlantirishda Uilyam Jeyms, Charlz Kuli, J.Bolduin, J.Dsyunning xizmatlari katta. Ammo Jorj Gerbert Mid uni ma'lum tizimga soldi. Insoniy aqli, ijtimoiy Men va sotsial struktura vujudga kelishi jarayonini uning nazariyasida ikki asosiy ahamiyati:

1. Inson organizmi biologik jihatdan zaifligi, shuning uchun yashash uchun guruhda bir-biri bilan hamkorlik qilish zaruriyat tug'ilishi.

2. Odam aql-idroki ichki va o'zaro harakatda odamlarni

hamkorligini yengillashtiradi, ya'ni ularni yashashini yanada yengillashtiradi, osonlashtiradi, qulaylashtiradi. Aslida jamiyat Aql va Menni shakllantiradi, ular esa o'z navbatida jamiyatga ta'sir etadi, mustahkamlaydi.

Djekob Moreno birinchilardan bo'lib rollar nazariyasini yaratdi. U «kim qolishi kerak» muammosini qo'yib ijtimoiy tashkilotlarni rollar tarmog'i sifatida odamlar hulqini chegaralovchi, tartibga soluvchi va yo'naltiruvchi vositadir, deb qaraydi. Jamiyat bir-biri bilan bog'langan turli xil rollarni bajarishdan iborat makondir. Rol – status (mavqe) – shaxsning o'zaro nisbatida alohida o'rin egallaydi. Agar status – bu huquq va majburiyatlar yig'indisi bo'lsa, rol mavqening dinamik ko'rinishidir. Shaxs ijtimoiy jihatdan o'z mavqeyi bilan boshqalardan ajralib turadi va bunga boshqasiga nisbatan alohida mavqega ega bo'ladi. O'z mavqeyini tashkil qiluvchi huquqiy normalari orqali faoliyatini oshirish va majburiyatni bajarishda shaxs jamiyatda ma'lum rol o'ynaydi. Aql, Men va jamiyatning o'zaro bir-biriga munosabatlari tabiati nimada? Rol nazariyasi tarafdorlari Shekspirning quyidagi so'zlaridan parcha keltiradi: «...Butun dunyo teatr. Undagi ayol, erkak – barchasi aktyorlardir. Ularning o'zi kelishi, ketishi bor va har qaysi birgina rolni o'ynamaydi». Bu bilan sahnadagi aktyor bilan jamiyat a'zolari o'rtasida muayyan o'xshashlik mavjud. Jamiyat a'zolari aktyorga o'xshab ma'lum rolni bajaradi. Ijtimoiy dunyoda odamlar aktyorlarga o'xshash muayyan rol bajaradi. (Ota-ona, farzand, o'qituvchi, o'quvchi, ustoz, talaba).

Jamiyat a'zolari o'z faoliyatida ma'lum yo'lni, mavqeni egallaydi. Aktyor esa teksti bilan ish ko'rsa, jamiyat a'zolari normalarga tayanadi. Aktyor rejissorga jamiyat a'zolari esa hokimiyatga quloq soladi yoki ularning talabini bajaradi. Odamning sotsial dunyoda o'ynayotgan roli turlicha. «Teatr» tushunchasi ijtimoiy tashkilot tabiatini ochib beradi. Aktyor tushunchasi esa shaxs tabiati haqida tasavvur beradi (ayol, erkak obrazi esa o'zining chiqishi, ketishi). Individ turli sotsial tashkilotlarda birlashgan bo'lib, muayyan rol, vazifa bajaradi. Shaxs tabiati ko'p omillarga bog'liqdir. Shaxs va jamiyat o'rtasida o'zaro bog'liqlik quyidagicha: yozilgan rol, subyektiv rol va o'ynaydigan, bajariladigan rol.

Sotsiologiyada almashish nazariyasi ham muhim o'rin egallaydi. Masalan, avstraliyalik aborigenlarda kimning ko'p singlisi bo'lsa o'shancha boy bo'lib, unisi ham, bunisi ham bo'lmasa eng kambag'al hisoblanadi va umuman, xotin ushlashga qobiliyatsiz deb hisoblanadi.

Keksalar bu almashuv tizimidan o‘zlariga bir necha ayol bilan yashash huquqini ta’minlash uchun foydalanganlar. Almashtirishga ayollari bo‘lmagan yosh erkaklar ko‘p hollarda bo‘ydoq bo‘lib qolavergan yoki jamiyatning kattasi xotinlarga xohlagan muomala, munosabatda bo‘lishi mumkin.

Almashuv nazariyasida nafaqat individual hulqgina emas, jumladan, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, shuningdek, taqdirlash va jazolashni ham o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, sotsiologik nazariyalarda individlar xomxayollikka berilmasdan real ish bilan band bo‘lishni, jamiyatda o‘rnatilgan tartib, intizomga rioya etishni va mavjud qonun-qoidalarga muvofiq faoliyat ko‘rsatishga da’vat etadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Sotsiologiada nazariyalarni o‘rganilish darajasi.
2. Sotsiologiya tarixida ayrim nazariyalar, maktablar, yo‘nalishlar va ularning usullari.
3. Sotsiologiya tarixida nazariyalarning o‘rganishni ahamiyati.
4. Pozitivizm ta’limoti
5. Utalitarizm qarashlari
6. Struktural funksionalizm nazariyasi
7. Rollar nazariyasi.
8. Konflikt nazariyasi.
9. Simvolik interaksionalizm.
10. «O‘rta daraja» nazariyasi.
11. Sotsiologiya tarixida turli oqimlarning mavjud bo‘lishiga sabab nima?
12. Sotsiologik turli oqimlar, maktablarning umumiyligi nimada?
13. Hozirgi zamon sotsiologiyasida eng yirik nazariyalardan qaysilarini bilasiz?
14. O‘zbekistonda sotsiologik nazariyalarning rivojlanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Д. Тернер. Структура социалогической теории. М. 1985.
2. П. Сорокин. Человек. Цивилизация. Общество. М. 1992.
3. Т. Парсонс. Система современных обществ. М. 1998.
5. Д. Ритцер. Современные социологические теории. - Петербург. 2002.
6. Западно-Европейская социология. XIX век и начало XX века I-II том. Москва 1996.
7. История социологии в Западной Европе и США. Учебник для вузов. Москва 1999.
8. История социологической социологии. Минск 1996.
9. Дилген Лаертский. О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов. Москва 1986.
10. Российская социологическая энциклопедия. Москва 2000.
11. История теоретической социологии. Москва. 1996.
12. Социологический словарь. Москва 2000.
13. Галина Серебрякова. Похищение огня. Москва.
14. Энтони Гидденс. Социология. Москва 1999.
15. Анри Мендра. Основы социологии. Москва. 2000.
16. В. Парето. Трансформация демократии. Лондон, 1984.
17. История социологии в Западной Европе и США. Москва, 1990.
18. М. Вебер Избранные произведения. Москва 1990
19. Современная Западная социология. Словарь. Москва 1999.

20.Т.Парсонс. Функциональная теория изменения. Москва 1994.
21.Т.Парсонс. Система современных обществ. Москва 1999.
22.Социология сегодня. Проблемы и перспективы Американской социологии. Москва, 1965.
23. Американская социологическая мысль. Москва, 1996.

MUNDARIJA

So‘zboshi 3
Sotsiologiya tarixining vujudga kelishi va rivojlanishi 5
XIX asr ikkinchi yarmi va XX asrda G‘arbiy Yevropa
va Amerika sotsiologiyasining rivojlanishi 11
Ogyust Kont sotsiologiyasi 25
Gerbert Spenser sotsiologiyasi 36
Vilfredo Paretoning sotsiologik qarashlari 43
Emil Dyurkgeym sotsiologiyasi 51
Maks Veber sotsiologiyasi 61
Ferdinand Tennis sotsiologiyasi 77
Pitirim Sorokin sotsiologiyasi 83
Tolkatt Parsons va uning sotsiologiyada tutgan o‘rni 92
Sotsiologiya tarixida ayrim nazariyalar va ularni
o‘rganishning ahamiyati 102
Foydalanilgan adabiyotlar 109

Bekmurod Normurodov,
Go‘zal Normurodova

SOTSIOLOGIA TARIXI

XIX – XX asr

Muharrir D.RAJABOV
Badiiy muharrir O.MUXTOROV
Texnik muharrir H.SAFARALIEV
Sahifalovchi D.AKROMOV

Bosishga 12.08.2010 yilda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 1/16. Hajmi 7 b.t. Adadi 1000.
Bahosi shartnoma asosida.
Buyurtma № 091

«Tafakkur» nashriyoti.
www.tafakkur.uz
E-mail: maktub@tafakkur.uz

«TAFAKKUR» nashriyoti bosmaxonasi.
Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Chilonzor ko‘chasi, 1-uy.

7585-00

60,5
M 833

TAFAKKUR nashriyoti

ISBN 978-9943-372-98-6